



TORNTON UAYLDER

AVLIYO QIROL  
LYUDOVIK  
KO'PRIGI

AHON ADABIYOTI TURKUMIDAN

UO'K: 821.111(73)-3  
KBK 84(7AQSH)  
U 12

**Tahrir hay'ati:**

**Naim Karimov, Umarali Normatov, Erkin A'zam,  
Xurshid Do'stmuhammad, Savon Meliyev,  
Shuhrat Sirojiddinov, Dilmurod Quronov, Nurboy  
Jabborov, Uzoq Jo'raqulov, Ulug'bek Hamdamov,  
Abdurahmon Jo'rayev**

**Tarjimonlar:**

**Mehri BONU va b.**

Tog' yo'lida qurilgan ko'prik to'satdan qulab tushadi. Xuddi shu paytda ko'prikdan o'tayotgan besh kishi jarlikka yiqiladi. Asar muallifi kutilmaganda halok bo'lgan yo'lovchilarning hayotiga nazar tashlab bu halokatning sabablarini qidiradi...

Shuningdek, ushbu to'plamga kiritilgan hikoyalar ham sizni o'ylashga, fikrlashga undaydi.

## NASHRIYOTDAN

Biz o'tgan mingyilliklar davomida jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan, uni o'zgartira olgan xalqimiz. Madaniyat, san'at, axloq, falsafa, fan va adabiyot sohasida buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ulkan meros hali-hamon dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari tomonidan e'tirof etilib, o'rganib kelinadi. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Burhoniddin Marg'iloniy, Ahmad Farg'oniy, Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Bahouddin Naqshband, Abullays Samarqandiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugna'kiy, Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab singari yuzlab ajdodlarimiz borki, biz ularni hech ikkilanmasdan jahon miqyosidagi mutafakkirlar deyishga haqlimiz. Ammo bugungi avlod ularning buyuk shaxsiyati, tarixi, jahonshumul shon-shuhrati bilangina cheklanib qolmasligi lozim. Ajdodlarning madaniy, ma'rifiy, ilmiy, ijtimoiy, adabiy faoliyati, hayot tarziga doimo hushyor nigoh va ibrat ko'zi bilan qarashimiz maqsadga muvofiq. Tarixiy manbalarni sinchiklab o'rganadigan bo'lsak, mutafakkir ajdodlarimiz jahon madaniyati, ilmiy va badiiy tafakkuri bilan doimiy tarzda hamqadam, hamnafas bo'lib kelganlar. Jahonda ro'y berayotgan birorta madaniy-intellektual o'zgarish, biror badiiy tafakkur namunasi bobolarimiz nazaridan chetda qolmagan. Ajdodlarimiz ularni o'qib, uqishar ekan, o'z milliy madaniyatlarini rivojlantirish, jahon xalqlaridan ortda qolmaslikni maqsad qilganlar. Ko'plab xorijiy tillarni bilganlari, xorij mutafakkirlari yozgan asarlarni tarjima qilganlari bu o'rinda qo'l kelgan. Eng muhimi, xorij madaniyati, badiiy-ilmiy tafakkuri namunalariga nisbatan shaxsiy to'xtamlari, xulosalari va tanqidiy nuqtayi nazarlari bo'lgan.

Bugun biz, mamlakatimiz Prezidenti kitobxonlik madaniyatini takomillashtirishni davlat siyosati darajasiga ko'targan bir paytda, o'tmishda yashab o'tgan buyuk ajdodlarimiz an'anasini izchil davom ettirishimiz, jahon madaniyati, san'ati, adabiyoti namunalari bilan izchil va tizimli tarzda tanishib borishimiz zarur.

Xalqimiz ijtimoiy-madaniy hayotidagi mana shunday ulkan ehtiyojni nazarda tutib „Ziyo nashr“ nashriyoti bir xayrli ishga qo'l urishga bel bog'ladi. Ya'ni joriy yildan e'tiboran jahon nasri namunalarining yuz jildligini chop etishga kirishdi.

Mazkur nashrda siz turk, rus, ingliz, italyan, fransuz, nemis, hind, xitoy, arab, eron, yapon, amerika adabiyoti namunalari bilan tanishasiz. Yuz jildlikda Ch. Dikens, L. N. Tolstoy, A. Dyuma, N. V. Gogol, O. de Balzak, A. P. Chexov, Gi de Mopassan, J. London, G. Flober, M. Sholoxov, G. G. Markes, A. Kuprin, V. Shukshin kabi siz muhtaram o'quvchiga nisbatan tanish yozuvchilar asarlari bilan birga, S. King, U. Folkner, V. Vulf, Mo Yang, Chan May Txyun, V. Losa Mario, T. Bug'ra, Alp Dundar, Dino Butssati, R. Akutagava, I. Bunin, K. Chandar, Abdul Muis, Y. Zamyatin singari jahon xalqlari tomonidan e'tirof etilgan-u, ammo o'zbek kitobxonlarining aksariyati ilk bor uchrashayotgan yozuvchilar asarlarini o'qishga muyassar bo'lasiz.

Mazkur yuz jildlik jahon nasrining deyarli barcha janrlarini qamrab oladi. Unda siz jahon o'quvchilarini hayratga solib kelayotgan romanlar, qissalar, novella va hikoyalardan bahramandlik hissini tuyasiz.

Tarjimalar ichida Abdulla Qahhor, Zumrad, Odil Rahimiy, Qodir Mirmuhamedov, Vahob Ro'zmatov, Ozod Sharafiddinov, Ibrohim G'afurovdek mashhur tarjimonlar tomonidan o'girilgan asarlar qatorida umidli yosh tarjimonlar ijod namunalari ham o'rin olgan. Albatta, tarjima asarlar tarkibida rus tili vositasida amalga oshirilganlari ko'proq. Bunda biz tajribali, mahoratli tarjimonlar o'girmalariga bo'lgan ishonch va hurmatni bosh mezon qilib oldik. Shu bilan birga, ingliz, fransuz, nemis, turk, arab, fors tillaridan qilingan original tarjimalarning mutaxassislar tomonidan tan olingan namunalari ham qamrab olishga urindik. Eng muhimi, bu o'rinda badiiy tarjimalar sifati, milliy tilimiz jozibasini qanchalik aks ettirganiga asosiy e'tiborni qaratdik. Yuz jildlikni tayyorlash jarayonida imkon darajasida xalqimiz ma'naviyati va axloqiy o'lchamlariga muvofiq keladigan asarlarni tanlashga harakat qildik.

Ammo shuni alohida ta'kidlashni istardikki, „Jahon nasri namunalari yuz jildligi“ni chop etish nashriyotimiz uchun ilk tajriba. Shunday bo'lgach, mazkur yirik loyihaning kamchiliklari, maromiga yetmagan jihatlari bo'lishi tabiiy. Bu jarayon muttasil davom etib, tajriba va mahorat, texnik imkoniyatlar oshgan sari kamchiliklar ham bartaraf bo'la borishiga ishonamiz. Va, umid qilamizki, xayrli niyat bilan boshlayotgan ishimizdagi juz'iy kamchiliklarni aziz kitobxonlarimiz ma'zur tutadilar. Muhtaram adabiyotshunoslarimiz, adiblarimiz va adabiyot muallimlarimiz keyingi nashrlarni amalga oshirish jarayonida o'zlarining qimmatli maslahatlarini ayamaydilar.

Yaratgan Alloh ishimizni xayrli, ajr-mukofotlarga loyiq, jonajon xalqimiz uchun manfaatli qilsin!



AVLIYO QIROL LYUDOVIK  
KO'PRIGI

*Qissa*

*BIRINCHI QISM*

**Muqarrar tasodif**

1714-yil 20-iyul, juma kuni, qoq tushda Peruning eng chiroyli ko'prigi quladi, u bilan birga beshta yo'lovchi ham jarlikka tushib ketdi. Ko'prik Lima va Kusko shaharlari oraliq'idagi tog' yo'lida qurilgan, har kuni bu yerdan yuzlab yo'lovchi o'tar edi. Bir asr ilgari Inklar<sup>1</sup> tomonidan tol chiviqlaridan to'qib yasalgan bu ko'prikni shaharga kelgan har bir kimsaga ko'z-ko'z qilish odat tusiga kirgandi. Ko'prikning faqat piyodalar uchun mo'ljallangan ostki pillapoyalari taxtadan yasalgan bo'lib, ularning ikki yon tutqichlari toldan to'qilganidan, yillar o'tishi bilan qovjirab ketgandi. Yo'lovchilar aksar ot-arava va yuklarini yuz chaqirim pastdagi kechuvdan sollarda o'tkazishardi-da, o'zlari, albatta, Avliyo qirol Lyudovik ko'prigidan o'tishni ma'qul ko'rishardi. Qirol noibi janoblari ham, hatto Limaning buzruk otasi ham ushbu yo'ldan yurib o'tishni afzal bilardi.

Kelib chiqishi fransuz bo'lgan Avliyo Lyudovik ko'prikka shaxsan o'z nomini berib, uni himoyasiga olgan, bi-

---

<sup>1</sup> *Inklar* - Janubiy Amerikaning mahalliy hindu qabilasi.

roz nariroqda esa xom g'ishtdan butxonalar ham qurdirgandi. Ko'prikning bir soniyada qulab tushishini esa hech kim xayoliga ham keltirmagan, odamlarning nazarida, u abadiylik timsoliday ko'rinardi. Falokat xabarini eshitgan har bir perulik darhol cho'qinib olib, bu yo'ldan oxirgi marta qachon o'tganini va yana qachon o'tmoqchi bo'lganini eslashga harakat qilib, vahimaga tushardi. Fojidan hamma o'zini yo'qotib, go'yo o'zlari jarlikka qulab ketayotgandek, nimalarnidir pichirlar edi.

O'lganlarning jasadlari to'planib, bir-biridan ajratilib, ibodatxonada katta dafn marosimi tashkil qilindi. Ajoyib Lima shahri aholisining qalbida o'ziga xos tozari yuz bera boshladi. Xizmatkorlar bekalaridan o'g'irlagan bilaguzuklarini qaytarib bergan, qo'pol rastachilar muomalasini yaxshilab, go'yo shu bilan avvalgi qo'polliklari gunohlarini yuvishga urinayotganday ko'rinardilar. Falokatning Lima aholisiga bunday ta'sir qilishi juda g'alati edi. Chunki bu yerdagilar uchun baxtsiz hodisalar odatiy holga aylangan, suv toshqinlari butun boshli shaharni yuvib ketgani, deyarli har haftada yer qimirlab, qayerdadir begunoh erkak yoki ayolni uy bosib qolgani haqidagi xabarlar tez-tez quloqqa chalinib turardi. Shum xabarlar bir provinsiyadan boshqasiga tez tarqalardi. Peruliklarning Avliyo qirol Lyudovik ko'prigidagi falokatdan bunchalik hayajonlanganliklarining g'alati ko'rinishi sababi shunda edi. Hamma dovdirab qolgandi, faqat birodar Yunipergina bu fojiaga boshqacha nuqtayi nazardan yondashdi.

Bu jikkak fransiskolik Peruga shimoliy Italiyadan kelgan, shu yerda hindilarni nasroniy diniga da'vat qilib yurib, mana shu falokat guvohiga aylangandi. Ha, voqea shunchalik g'ayrioddiy ediki, bunda qandaydir MA'NO borligini ilg'ab olish qiyin emasdi.

O'sha mudhish kunning tush payti juda jazirama edi. Birodar Yuniper tepalikni bosib o'tguncha qora terga botib, nafas rostlash uchun to'xtarkan, uzoqlardagi qorli cho'qqilarni, so'ngra g'or tomondagi yam-yashil daraxtzorni, yashil rangli qushchalarni, pillapoyadek bir-biriga ulanib ketgan tol daraxtlarini kuzata boshladi. U xursand edi, chunki ishlar yomon ketayotgani yo'q. Bir necha tashlandiq butxonalarni ochishga muvaffaq bo'lindi. Endi hindilar ertalabki ibodatga har yoqdan oqib kelmoqda edilar. Ibodat marosimi davomida ular yurak-bag'irlari ezilib, oh-voh tortishardi. Qorli tog'ning musaffo havosimi, xotirada uyg'ongan she'riy satrlarni, bilmadim, nimadir uni bu tomonga boqishga majbur qilgan, har holda, yuragida tinchlik-xotirjamlik hukmron edi. Keyin esa uning nigohi tog' oralig'idagi ko'prikka tushdi. Xuddi shu payt havoda xuddi eski uy buzilayotgandek bo'g'iqlik qasir-qusur ovozi yangradi va uning ko'z o'ngida ko'prik qulab, sarosimaga tushgan beshta yo'lovchini ham qumursqadek pastga uloqtirdi.

Bunday paytda uning o'rnida bo'lgan har qanday odam o'zicha „Yana o'n daqiqa bo'lganda, men ham...“ degan mudhish xayolga borishi shubhasiz edi. Lekin birodar Yuniperning xayolidan: „Nega aynan o'sha beshovi?“ degan fikr kechdi. Bordi-yu bu ishda falakning biror-bir Rejasi bor bo'lsa, yo insonning hayoti qolipda quyilgandek bir xil shaklda bo'lsa, buning ko'rinmas izini aynan shular, hayot rishtalari to'satdan uzilgan shu sho'rpeşonalar misolida ko'rish mumkin bo'lar edi.

Balki, bizning hayotimiz ham, o'limimiz ham tasodifdir, balki, hayotimiz va o'limimiz zamirida ham REJA bordir. Shuning uchun birodar Yuniper fojia sodir bo'lgan ondayoq jarlikka qulab borayotgan bu beshovining hayoti sir-asrorlarini o'rganib, sababini topishga qaror qildi.

Birodar Yuniperga ilohiyotning ham aniq fanlar orasidan joy olishi uchun fursat yetib kelgandek ko'rindi va u ko'pdan beri shuni o'ylab yurar edi. Buning uchun faqat laboratoriya yetishmayotgandi. Tajriba uchun voqea-hodisalar istagancha topiladi. Baxtsiz hodisalar uning atrofidagilarni chetlab o'tayotgani yo'q: kimnidir qoraqurt chaqqan, kimdir og'ir kasallikka chalingan, kimningdir uyi kuyib kulga aylangan yoki bolalariga biror falokat dorigan, bu haqda gapirgani tiling bormaydi. Lekin odamlarning boshiga tushgan bu kulfatlar ilmiy izlanish uchun to'g'ri kelmasdi. Bular, ilm odamlarining tili bilan aytganda, nazoratli sharoitlar yetishmasdi. Baxtsiz hodisalar aksar beparvolik oqibati yoki tasodif bo'lishi mumkin edi. Avliyo Lyudovik ko'prigining qulashida esa UNING QO'LI yaqqol ko'rinib turardi. Shu bois u ajoyib amaliyotxona o'rmini bosa olardi. Qolaversa, bu yerda UNING REJAYU maqsadlarini o'ziday qilib o'rganish mumkin edi. Barchamizga ayonki, bunday fikr birodar Yuniperdan boshqa bitta-yarimtamizning xayolimizga kelganida bormi, u meva tugmayoq „Amalga oshmas orzular“ degan mulohazalar girdobiga g'arq bo'lgan bo'lardi. Bu ish ko'proq jannat ma'volarida sayr qilishni istab, unga Bobil minorasini shoti qo'yib qurmoqchi bo'lgan insonlarning xatti-harakatini eslatardi. Lekin fransiskolik ruhoniyning bu yo'lda hech qanaqangi ikkilanishiga o'rin yo'q. U javobni bilardi: u faqat buni o'zining yangi muxlislariga, barcha baxtiqarolarga, yangi dinni qabul qilishda imillayotganlarga, azob-uqubatlar ularning foydasi uchun hayotlari taomiliga aylantirilganini ilmiy jihatdan isbotlab bermoqchi edi. Insonlar har doim Tangrining borligi haqida qat'iy va ishonarli isbot talab qilishgan, chun-



ki odamzod qalbidagi badgumonlik bulog'i hech qachon qurib bitmaydi. Inkvizitsiya<sup>1</sup> odamlar ongiga hukmron bo'lib, ularning har bir fikrini uqib olishga harakat qilgan mamlakatlarda ham bu shunday bo'lgan.

Birodar Yuniper bunday amalni birinchi marta qo'llamoqchi bo'layotgani yo'q. Ko'pincha uzoq yo'lga chiqqanida (uzun ridosining etagini ko'tarib olib, bir butxonadan boshqasiga shoshganida) yo'l davomida ana shunday amaliy ishlar haqida orzu qilardi. Xalloq egamning hidoyat yo'lini maxluqlar nazdida oqlash<sup>2</sup>, masalan, deylik yomg'ir yog'diruvchi duolarning to'liq ro'yxati va uning natijalari haqida o'y surib borardi. Aksar u butxonaning zinalarida turar ekan, unga ixlos qo'ygan muxlislari suvsizlikdan qaqragan yerga tiz cho'kib turishar, u esa qo'llarini ko'kka cho'zib, ulug' marosim duosini o'qirdi. Har doim ham emas, lekin bir necha marta u o'ziga quyilib kelayotgan ilohiy kuch ta'sirini his qilgan, so'ngra uzoqdan suzib kelayotgan bir parcha bulutni ko'rgan, lekin ko'pincha haftalab, hatto oylab kutishga to'g'ri kelgan... faqat bu haqda o'ylashga ne hojat? Tabiiyki, bularning bari uni o'zini ishontirish uchun emas, bu omilardan farqli ravishda u yomg'ir yog'ishi, qurg'oqchilik bo'lishi hodisalari tarozi pallasining boshqa o'lchamiga tegishli bo'lgan masala ekanligini juda yaxshi bilardi. Falokat sodir bo'lganda undagi azm-u qaror ana shu tariqa yuzaga kelgandi. Bu qarori esa uni olti yillik mashaqqatli izlanishga mahkum qildi. U Limadagi deyarli har bir eshikka kirib-chiqdi, minglab savollar berdi, o'nlab yondaftarlarini ma'lumotlar bilan to'ldirdi. Natijada har beshovining hayoti ham to'kis-tugalik ramzi bo'lib chiqdi. Hamma uning falokat bilan bog'liq

<sup>1</sup> *Inkvizitsiya* – Shakkoklikda ayblovchi diniy sud hay'ati vakillari.

<sup>2</sup> „...Egamning hidoyat yo'lini maxluqlar nazdida oqlash“. (J. Miltonning „Yo'qotilgan jannat“ poemasiidan satrlar.)

ma'lumotlar ustida ishlayotganini bilar, undan o'z yordamlarini ayamasa va bu bilan uni yanada ko'proq chalg'itardi. Ba'zilar uning bu ishidan ko'zlangan asl maqsadni tushunib, unga homiylik qilardi.

Bu tinimsiz izlanishlar samarasi sifatida ko'p o'tmay katta asar yaratildi. Keyinroq guvohi bo'lganimizdek, bu asar go'zal ko'klam tongida, katta maydonda gulxan yoqib, olovga tashlandi.

Baxtimizga, maxfiy ro'yxat saqlanib qolgan ekan. Oradan ancha yillar o'tib, barchaning nazaridan chetda qolgan bu to'plam Avliyo Martin universitetining kutubxonasida o'z sayohatini nihoyasiga yetkazdi. U yog'ochdan yasalgan og'ir g'ilofda yillar changini o'zida to'plab, jovonda yotardi. Kitobda falokatning beshala qurbonining har biri haqida ketma-ket yozilgan, minglab dalillar keltirilgan, qurbonlarning hayotlariga oid ma'lumotlarga oydinlik kirituvchi guvohlarning ko'rsatmalari va nihoyat, nima uchun Yaratgan egam aynan shu soatda shu insonlarda O'z donishmandligini namoyish etganligi haqidagi hayajonli xulosalar jamlangandi.

Vaholanki, shuncha izlanishiga qaramay, birodar Yuniper na Mariya xonim, na Pio amaki, hattoki Estebanning ham hayotidagi ixlos qo'ygan asosiy narsa nima ekanligini bila olmagan. Ko'proq biladigandek bo'lib ko'ringan o'zim ham kosa tagidagi nimkosani anglay oldim deb ishonch bilan ayta olarmidim?

Ba'zilar, Yaratgan uchun biz yoz kunlari bolakaylar ermakka o'ldiradigan pashshachalik<sup>1</sup>imiz deyishsa, boshqalar Xudo o'z panohida asrayman desa qiyomatda ham omon qolish mumkin, deb bashorat qilishardi.

<sup>1</sup>Shekspirning „Qirol Lir“ tragediyasidan.

## IKKINCHI QISM

### Markiza de Montemayor, Pepita

Donya Mariya, ya'ni Markiza de Montemayor haqida bugungi kunda Ispaniyadagi har qanday maktab o'quvchisi ko'p yillik izlanishlar olib borgan Dirodar Yuniperdan ko'ra ko'proq ma'lumotlarga ega bo'lsa kerak. O'limidan bir asr o'tib-o'tmay, markizaning o'z qiziga yo'llagan maktublari ispan adabiyoti durdonalari safidan o'rin oldi, uning hayoti va yashagan davri esa tadqiqotchilarning izlanish maydoniga aylandi. Lekin uning tarjimai holi solnomachilari qanchalik bir tomonlama bo'lishsa, birodar Yuniper ham butunlay qarama-qarshi tomonga uzoqlashib ketgandi: ular xonimning go'zallikka burkangan xatlaridan ta'sirlanib, undagi to'lib-toshgan maftunkorlikni uning hayotiga va shaxsiga ham olib kirishga urinishgan; bu g'alatiroq ayol bilan yaqindan tanishuv esa butkul boshqacha taassurot qoldirardi. Aslida, bu xonim barcha qadr-qimmatdan, g'ururdan begonalashib xor bo'lgan ayol edi, faqat bir narsadan tashqari.

U tezroq boyib ketish istagida kuyib-pishganlar va boyib ketganlarni ko'ra olmaydiganlar bilan to'lib-toshgan Lima shahrining markaziy qismi hisoblangan Plasodadan chiqqan yirik ishlab chiqaruvchining qizi edi. Uning bolaligi baxtsiz kechdi, chunki u juda xunuk, ustiga-ustak duduqlanib gapirardi. Onasi o'z pichinglari bilan uni juda bezor qilar, kiborlarga xos xatti-harakatlarni unga singdirishga urinib, qizning xohishiga qarab o'tirmay, uni qimmat-

baho taqinchoqlarga burkab, shahar ko'chalaridan yurishga majbur qilardi. U yolg'izlikda hayot kechirar va yolg'izlikda xayol surardi. Qo'lini so'raguvchilar to'lib-toshib yotgan bo'lsa-da, u hech qachon turmushga chiqmaslikka qaror qilib, zamonasining me'yorida bunga qarshi qo'lidan kelgancha oyoq tirab turib oldi. Ona-bola o'rtasidagi baqir-chaqirlar, tushunmovchiliklar, o'zaro o'pkalashlar, eshikni qarsillatib yopishlardan keyin, nihoyat, yigirma olti yoshida, atrofda gilarining masxarali kulgusi ostida obro'li oiladan chiqqan, lekin kambag'allashib qolgan takabbur olifta bilan Lima cherkovida nikohdan o'tdi. U oldingidek tanho yashab, tanho xayol surardi. Qizalog'ining dunyoga kelishi uni butkul o'zgartirib yubordi va u o'zining sarflanmay qolgan butun mehr-muhabbatini shu ajoyib xilqatga to'kib sochdi. Biroq jajjigina Klara otasiga tortdi: u aqli, lekin juda sovuqqon qiz bo'ldi. Sakkiz yoshida onasining tilini shafqatsizlik bilan to'g'rilay boshlagan bo'lsa, borib-borib undan jirkanadigan, gapini qaytaradigan bo'lib qoldi. Bundan xavotirga tushgan ona sal yumshadi, lekin baribir ham tarki odat – amri mahol deganlaridek, o'zining bezor qiluvchi mehri-yu doimiy g'amxo'rligi bilan Klarani juda charchatib yuborardi. Gina-kuduratlar, o'zaro o'pkalashlar, baqir-chaqirlar, eshikni qarsillatib yopishlarning oxiri ko'rinmasdi. Bo'y yetib qolgan donya Klara atrofiga parvona bo'lib yurgan sonsiz qo'l so'raguvchilar ichidan bittasini – aynan Ispaniyaga ketayotganini tanladi. U bilan o'sha tomonlarga jo'nab ham ketdi. U yoqqa yuborilgan xatning javobi oz emas-ko'p emas, naq olti oy deganda qaytib kelardi. O'lis safarga tantanali kuzatish Peru cherkovida rasmiy marosimga aylanib qolgandi. Oq yo'l tilab, fотиha berilgach, kema bilan qirg'oq orasidagi masofa kattalashib borar ekan, har ikkala tomondagilar ham tiz cho'kib, ochiq havoda madhiya kuylay boshlashdi. donya



Klara atrofdagilardan farqli o'laroq o'zini g'oyat xotirjam tutardi. Ona esa suzib ketayotgan oq kemadan nigohini uzmay, kaftini dam og'ziga olib borar, dam yuragiga bosardi. Axiyri Tinch Okeanining tiniq suvlari va ko'kda suzib yurgan o'rkach-o'rkach durday oppoq bulutlar ko'z o'ngida bir-biriga qorishib ketganday bo'ldi.

Limada yolg'iz o'zi qolgach, markiza yanada odamovi bo'lib qoldi. Kiyinishlari ham tayinsiz, shunaqa yolg'iz odamlar kabi o'zi bilan o'zi ovoz chiqarib gaplashardi. Uning butun fikr-u zikri hayotining yagona shamchirog'iga qaratilgan edi. Bu yerda u qizi bilan so'ngsiz suhbatlarga berilar, o'zicha yarashar, afsus-nadomatlar qilar, kechirim so'rar va bu sahna qayta-qayta takrorlanaverardi. Uni ko'cha-ko'ydagilar yasama sochi bir tomonga qiyshayib ketgan, bir yuzining terisi shamollashdan, ikkinchi yuzi pala-partish surilgan lab bo'yoqlardan qizargan bir alfozda ko'rishardi.

Uning iyagi doim so'lakdan nam bo'lib, labi tinimsiz qimirlab turardi. Lima shahri g'alati odamlar makoni bo'lsa-da, bu kampir ko'cha-ko'yda yurganida, cherkovga qatnaganida boshqacha kulgi bo'lardi. Uni ko'rganlar, kampir doim mast holda yuradi, deb o'ylardi. Markiza haqida bundan-da battarroq mish-mishlar yurardi, emishki, kimdir uni qamoqqa tiqish uchun imzo to'playotganmish. Uning ustidan uch marta inkvizitorlarga ig'vo qilishdi. Kuyovi Ispaniyada katta mavqega ega bo'lmaganida, uni ailaqachon gulxanda kuydirgan bo'lisharmidi. Saroydagi a'yonlar orasida ham markizaning dunyoqarashini, bilimni hurmat qiluvchi do'stlari talaygina edi. Ona bilan qizning munosabati pul muammosi sabab battar chigallashib bormoqda edi. Grafinya onasidan durustgina puldan tashqari yana talaygina qimmatbaho sovg'alar ham olib turardi. Ispaniya qirolining saroyida donya Klara tezda yuk-

sak idrok sohibi sifatida dovrug' qozondi. Uning tanlagan hayot tarzini ta'minlashga butun boshli Peruning xazinasini ham urvoq bo'lmasdi. Eng hayratlanarlisi shunda ediki, bunday hotamtoylik unga Xudo yuqtirgan fazilatdek ko'rinardi: barcha do'stlari, xizmatchilari, poytaxtdagi ko'zga ko'ringan insonlar bilan o'z farzandidek muomala qilardi. G'amxo'rliги butun olamga yetardi-yu, faqat birgina odam bundan benasib edi. Uning homiyligidan xaritachi De Blazi yaxshigina manfaat ko'rardi (u o'zining yaratgan yangi dunyo xaritalarini markiza de Montemayorga bag'ishlagan, Lima saroyidagilar serzavq bazmlardan ilhomlanib, uni shahrimiz bezagi, mag'ribdan nur sochayotgan oftobimiz", deb ta'rif berishgandi). Qalblarni hayajonga solib, aqlni besaranjom qiladigan kitoblar muallifi sifatida inkvizitorlar tomonidan asarlari taqiqlab qo'yilgan Azuariy kabi ilm kishilarini moddiy qo'llab-quvvatlashdek mas'uliyatni ham grafinya o'z zimmasiga olgan edi. Deyarli o'n yildirki, grafinya butun Ispaniyaning barcha olimlar-u san'at ahlini boqar, bu yillar ichida ko'zga ko'rinadigan bironta tayinli ish qilinmaganligi va esda qolarli narsa yaratilmaganligi esa uni qiziqtirmas edi.

donya Klara jo'nab ketganining to'rtinchi yili donya Mariyaga Yevropaga kelishga ijozat berib xat yozdi. Har ikkala tomon ham bu uchrashuvga o'zicha qattiq tayyorgarlik ko'rgandi: bittasi sabr-toqatli bo'lishga, boshqasi esa bosiq bo'lishga. Ammo ikkovidan biri ham bunga rioya qilmadi. Ular bir-birlari bilan kelisholmay, esdan og'gudek tushunmovchiliklar girdobida qolishar, ora-sira ona-bolalik tuyg'ulari ustun kelib, afsus-nadomatdan bo'g'ildilar. Nima bo'ldi-yu, bir kuni donya Mariya tong otmasdanoq uyg'onib ketdi, qizi uxlab yotgan xona eshigini bir qur o'pib qo'yishgagina botinib, shartta kemaga o'tirdi-da, Amerikaga qaytdi.

Bundan buyon faqat xatlargina yonma-yon bo'lganda toqat qilib bo'lmaydigan mehrlı jonlarga oro beruvchi el-chilarga aylangan edi.

Aynan mana shu xatlar bizning go'zal majmuamiz dunyosiga kirib keldi va maktab o'quvchilariga saboq uchun asqotdi.

Daholik degani tabiat ato etadigan qobiliyat bo'lmay, o'z ustida ishlashning, izlanishlarning natijasi bo'lganida, donya Mariya, albatta, o'zida bunday sifatni yaratgan bo'lardi. Uning onalik muhabbati uchun muhim narsa – bor-yo'g'i olisdagi qizining e'tiborini jalb qilish, ajib bir hayratga solish istagi edi, xolos. Faqat shuning uchungina u kiborlar yig'inidan qolmaslikka harakat qilar, bunga o'zini majburlar, so'ngra u yerdan olam-olam be'mani yangiliklar bilan qaytardi. Bu yig'inlarda u hech narsani nigohidan chetda qoldirmaslikka tirishar va shu tariqa kuzatuvchanlik mahoratini ham oshirib borayotgandi. U dunyo adabiyotining durdonalarini o'qib chiqib, ularning o'zidagi ta'sirini sinash maqsadida, shakarguftorliklari bilan dong taratganlarning suhbatiga ham suqulib kirar, keyin esa har kuni kechqurun o'tirib olib xatlarni qayta-qayta ko'chirib yozardi. Ajoyib-g'aroyib gaplar bilan sahifalarni to'ldirib tashlar, bunday paytda xira tortganday ko'ringan aqlning bisotidan teran fikrlovchi insonning so'zamollik mo'jizasini namoyish etuvchi, nozik fikrlarga yo'g'rilgan yangiliklar bilan bir qatorda saroyda bo'lib o'tgan voqealarni aniq sanalar bilan tarixchilarday lo'nda yoritib borardi. Lekin biz shuni ham bilamizki, xatlarning asl egasi ularga shunchaki ko'z yugurtirib chiqar, bu xatlarning yo'qolmay omon qolgani uchun markizaning kuyoviga rahmat aytishimiz kerak.

Yozgan xatlarining umrboqiyligini ko'rib, donya Mariya juda taajjubga tushgan bo'lardi. G'oyat go'zal uslubda

yozilgan xatlariga e'tiborimizni qaratib, ba'zi tanqidchilar uni kelajakka ko'z tikib yozganlikda ayblamoqchi bo'lishardi. Ular donya Mariyaning faqat qizining mehri qozonish, e'tiborini tortish uchungina, rassomlarning ko'plab tomoshabinlarni hayajonga soluvchi buyuk asar yaratganchalik mehnat qilgani sababini tushuna olmay garang edilar. Markizaning kuyovi xatlarni o'qib huzurlanar, go'yo shu bilan go'zal uslubda yozilgan maktub satrlarini boricha shimirib, shuuriga singdirgandek, yana bir karra ma'naviy boyigandek his qilar, asl maqsadni, ya'ni qalb in'ikosi bo'lmish adabiyotning mohiyatini esa (ko'pchilik kitobxonlar singari) u ham nazardan qochirar edi. Uslub – bu achchiq ichimlikni dunyoga tortiq qilish uchun mo'ljallangan ko'zadir. Agar markizaga, sizning xatlaringiz juda zo'r uslubda yozilgan deyishsa, u qattiq ajablangan bo'lardi, chunki bu toifadagi insonlar o'zlarining oliyjanobliklariga yo'g'rilgan muhitlarida yashashar, hayratga soluvchi go'zal tuyg'ular uyg'unligi esa ular uchun oddiy hayot tarzi hisoblanardi.

Serajin, malla yuziga siyohrang soya tashlab turgan g'alati poxol shlapa kiyib olib, kampir ayvonda soatlab o'tirardi. Ko'pincha uzukli barmoqlari bilan kitob varaqlar ekan, yuragimdagi doimiy og'riq qalb iztirobi oqibati emasmikan, deb miyig'ida kulib o'ziga o'zi savol berardi. Ba'zan malakali shifokor uning misolida o'z shogirdlariga bu haqda tushuncha berayotgani kabi holatlarni ham tasavvur qilib ko'rmoqchi bo'lardi. „Ko'ryapsizlarmi, – derdi o'sha shifokor uning xayolida, – mana bu ayolning chekkan iztiroblari uning yurak tuzilishiga ta'sir etib, o'z izini qoldirdi“. Azbaroyi ko'p o'ylaganidan bu haqda hatto qiziga ham yozib yubordi, evaziga esa u yoqdan dashnomlarga to'la, pashshadan fil yasashning oqibati yaxshi bo'lmasligi haqida tanbehli javob xati oldi.



Mehr-muhabbatining javobsiz ekanini anglash kampir boyaqishga qoyani ham yemiradigan to'liqlar kabi ta'sir etdi. Avvalo uning e'tiqodida o'zgarish yuz berdi. Tangri-dan faqat bir narsani so'rashi mumkin edi, u ham bo'lsa qizlar onalarini sevsinlar, buning evaziga u jannatning barcha ne'matlaridan kechgan bo'lardi. Bora-bora u atrof-dagilarning samimiyligiga ishonmay qo'ydi. Bu olamda (undan boshqa) kimdir kimnidir u qizini sevganchalik seva olishiga ishonmasdi.

Barcha oilalar o'zlari o'rganib qolgan muhitda kun kechirishardi, odamlar o'pishib ko'rishganlarida ham samimiy bo'lmay, ichki loqaydlik bilan ko'rishadilar. Marki-za atrofni kuzatar ekan, hamma o'zi bilan o'zi ovora bo'lib qolganini, kundan kunga o'z qobig'iga o'ralib, arzima-gan xizmatlari uchun olqish olish dardida qanchalik past ketishini, faqat o'ziga foydasi bor narsani qiziqib eshitib, boshqalar bilan ishi yo'qligini, ularning dardiga sherik bo'lish, qo'lidan kelsa yordam berish kabi savob ishlarni esa o'zi uchun muhim deb bilgan ishlardan chalg'ituv-chi bekorchi ish deb bilishlarini kuzatardi. Odam Ato-ning Xitoydan Perugacha bo'lgan barcha o'g'il-qizlari ana shunday edilar. Ayvonda o'tirib shunday xayollar-ga berilar ekan, goho u uyatdan lablarini qimtib olardi, o'zi ham begunoh emasligini, qiziga mehri qanchalik ul-kan, serjilo bo'lmasin, bu mustabidlikdan boshqa narsa emasligini, qizini qizi bo'lgani uchun emas, o'zi uchun yaxshi ko'rishini anglab yetganday bo'lardi. O'zidan bu sharmandali o'rgimchak to'rini sidirib tashlashga qan-chalik tirishmasin, buning uddasidan chiqolmasdi. Yashil ayvonda o'tirgan bu aftodahol qari xonimni turli hissiyot-lar tug'yoni turli tomonga qarab tortqilar, shundoq ham to'kilib turganiga parvo qilmay, to'kilgan qonini quritar, ushalmas orzular ko'layotganiga qaynashga

solgani-solgan edi. U qizining nimasidan yozg'irsini! Axir orada naq to'rt ming millik masofa yotibdi! Shunga qaramay, donya Mariya mudom shirin xayollar girdobida o'zini har yoqqa urar va oqibatda har doim mag'lublik alamini tortishga majbur bo'lardi. U qizini faqat o'ziniki bo'lishini xohlar, qizidan „Siz dunyodagi eng yaxshi onasiz“, deyishini, „Meni kechiring“ deya shivirlab aytgan ovozini eshitishni orzu qilardi.

U Ispaniyadan qaytib kelganidan keyin oradan ikki yil o'tib, uncha ko'zga ko'rinarlik bo'lmagan qator voqealar bo'lib o'tdiki, bular bizga markizaning ichki dunyosi haqida ko'proq ma'lumotlar berishi mumkin. Yozilgan xatlarda bularga shunchaki urg'u berilgan, yigirma ikkinchi xatida esa bu yanada yaqqolroq ko'rinib qolgan uchun biz bu xatning birinchi qismini e'tiboringizga havola qilib, baholi qudrat o'z fikr-mulohazalarimiz bilan o'rtoqlashsak.

*„Nahotki Ispaniyada shifokorlar bo'lmasa? Sendan yordamini ayamagan mehridaryo flamandliklar qani? Oh, mening gavharim, shamollashingga bunaqa beparvolik qilganing uchun seni qay tariqa koyishim kerak? Don Visente, yolvoraman, dilbandimning aqlini kiritib qo'ying, oh, samo farishtalari, sizlardan iltijo qilaman, nuridiydamning aqlini kiritib qo'ying.*

*Sog'lig'ing tiklangan bo'lsa, bolajonim, bundan keyin shamollashning birinchi alomatini sezishing bilanoq issiq vanna qabul qil, ko'rpaga o'ranib yotaman deb menga so'z ber. Bu yerda, olis Peruda men ojizman, senga hech qanday yordam bera olmayman. Jon bolam, o'zboshimchalik qilma. Seni Xudo yorlaqasin. Ushbu xatim bilan qo'shib senga allaqanday bir daraxtning yelimini yubor-yapman. Uni bu yerda Avliyo Foma ibodatxonasining rohibalari tarqatib yurishibdi. Qanchalik foydaliligini o'zim*

ham bilmayman, har holda, zarari tegmas deb o'ylayman. Aytishlaricha, soddadil rohibalar uni shu darajada hidlab olishar ekanki, ibodatxonadagi marosim payti boshqa hidlar umuman sezilmas emish. Bu qanchalik haqiqatga yaqin ekanligini bilmadim, o'zing sinab ko'r.

Azizim, xotirjam bo'lishing mumkin. Hazrati Oliylari uchun ajoyib oltin zanjirni berib yubordim<sup>1</sup>. (Qizi unga oxirgi xatida shunday deb yozgan edi: „Tilla zanjiringiz eson-omon yetib keldi, men uni qirolimiz vorisini cho'qintirish marosimiga taqib bordim. Hazrati Oliylari, taqinchog'imga e'tibor berib, qiziqib qoldi. Bu sizning sovg'a-angiz ekanligini bilib, didingizga yuqori baho berdi. Ilojini qilib yana bitta shunday tilla zanjir yasattirib, cho'zib o'tirmay, tezda xizmatchingizdan berib yuboring.“) „Uni qo'lga kiritish uchun naq surat ichiga kirib chiqqanligim to'g'risida Hazrati Oliylariga tushuncha berib o'tirishning hojati yo'q. Avliyo Martin ibodatxonasidagi Velaskes'ning asari esingda bormi. Ibodatxonaga asos solgan qirol janoblari o'z ayoli bilan tasvirlangan surat osig'liq turibdi. Suratdagi ayol tilla zanjir taqib olgan. Men faqat o'sha bilangina kifoyalansam kerak deb o'ylagan edim. Lekin bir kun yarim kechasi ibodatxonaga kirib, yosh qizaloqlardek stol ustiga chiqib olib, surat ichiga kirib ketdim. Oldiniga surat qarshilik qilmoqchi bo'lgandek edi, lekin musavvirning o'zi menga yon bosib, bo'yoqlar orasidan olib o'tdi. Men unga, Ispaniyaning eng ajoyib qizi eng oliyanob qirolga, ushbu chiroyli tilla zanjirni sovg'a qilmoqchi dedim. Hammasi kutilmaganda mana shu tarzda sodir bo'ldi. Velaskesning asariga jilo berib turgan kumushrang havodan nafas olganicha to'rttovimiz suhbatlashib turardik. Endilikda mening xayollarimni tillarang yorug'lik

<sup>1</sup> Velaskes – 1599–1660-yillarda ijod etgan ispaniyalik rassom. (tarj.)

band qilgan, nigohlarim saroyga qaratilgan. Men endi kechani Titsian 'ning yonida o'tkazishni istayman. Faqat janobi oliylari bunga ruxsat etarmikan?

Aytganday, janobi oliylarining yana oyoq og'riqlari xuruj qilib qolibdi, „yana“ deyishimning boisi, saroy g'iybatchi xonimlarining aytishlaricha, janobning kasal emas paytlari ham bo'lar ekan. Avliyo Mark kuniga janobi oliylari universitetni tugatayotgan yigirma ikkita shifokorni mustaqil hayotga kuzatgani yo'lga chiqqan ekanlar. Ularni zo'rg'a divanlaridan karetaalariga o'tqazishgan ekan, dod solib, ortiq yurishdan bosh tortibdilar. Ularni darhol yana o'z to'shagiga yotqizib qo'yishibdi, biroz o'zlariga kelgach esa xushbo'y hidli sigarasini tutata turib, Perikolasiga odam jo'natibdilar. Bizlar lotin tilida uzundan uzoq o'qilgan ma'ruzani anglab yetgunimizcha janobi oliylari biz haqimizda hamma yangiliklarni ispanchada qabul qilib olibdilar. (donya Mariya kutilmagan ishga yo'l qo'ydi. Garchand qizining oxirgi xatida o'qigan bo'lsa-da: „Senga ehtiyot bo'l deb qancha aytish mumkin? Mana, yozgan xatlaringning yo'lda ochilgan izlarini necha marta sezib qoldim. Sening fikr-mulohazalaring bitilgan xat keltirib chiqaradigan oqibatlarni o'ylashning o'zi odamni vahimaga soladi. Men maktubdagi istehzolarining hech kulgili joyi yo'q deb hisoblayman. Visentening qoyil qolib maqtovlar yog'dirishiga qaramay, xatlar sabab bu yerda ko'zga ko'ringan shaxslar bilan muammolar tug'ilishini istamayman. Ko'rsatayotgan hunarlaring hali-hanuz seni biror chekka qishloqqa surgun qilish uchun sabab bo'lmayotganiga hayronman“.) „Tantanalarda odam rosa tirband bo'ldi. Hatto ikkita xonim balkondan tushib ket-

---

<sup>1</sup> *Titsian* – Titsian Vechellio 1485/90–1576-yillarda yashab ijod etgan buyuk italyan rassomi. (tarj.)



di. Xayriyatki, „Tangrining marhamati bilan“ ular donya Mersed xonimning ustiga qulab tushishdi. Uchalasi ham yaxshigina jarohat olishdi, lekin bari bir yilga qolmasdan hech nima ko‘rmaganday unutilib ketadi. Hodisa yuz berganida Prezident janoblari ma‘ruza qilayotgan edi. Janob uzoqni yaxshi ko‘ra olmaganidan, tepadan tushib ketgan odamlar tufayli ko‘tarilgan to‘s-to‘polon sababini tushunmay, bularni o‘zining sharafiga bo‘layotgan zo‘r hurmat sifatida qabul qilib, ta‘zim bajo keltirishi juda yoqimli taassurot qoldirdi.

Gap Perikola va olqishlar haqida ketayotgan ekan, shu narsani senga ma‘lum qilmoqchi edimki, biz Pepita bilan komediya ko‘rgani borishga qaror qildik. Muxlislar har doimgidek o‘zlarining sevimli Perikolasini boshlariga ko‘tarishmoqda, shu jihatdan hatto yoshini ham kechirishgan. Aytishlaricha, husnini saqlab qolish maqsadida u ertalablari yonog‘iga dam qaynoq, dam muzdek qalamchalar bosar emish“. (Bu uydirma ispanchadan tarjimada bor jozibasidan mahrum bo‘lgan. Aktrisa sha‘niga to‘qilgan bu uydirma haqiqatdan ancha yiroq bo‘lib, buyuk aktrisaning yoshi o‘sha paytda endigina yigirma sakkizda edi. Yonoqlarining tarangligi va tiniqligi esa to‘q-sariq marmarni eslatar va bu, albatta, shundayligicha ancha vaqt saqlanib qolishi mumkin edi. Kamila Perikola sahna uchun kerak bo‘lgan pardozdan tashqari hamma oddiy ayollar singari kuniga ikki marotaba yuzini sovuq suvga chayar edi, xolos.)

„Pio amaki degan bu g‘alati kishi doim uning oldida o‘ralashgani-o‘ralashgan. Janob don Rubio, uning o‘zi kim, otasimi, o‘ynashimi yoki o‘g‘limi, hech tushuna olmadim deb aytdi. Lekin Perikola juda ajoyib-da, meni sodda qishloqi deb har qancha urishishing mumkin, lekin sizlarning Ispaniyada ham bunaqangi mahoratli aktrisa topilmaydi...“ va hokazo.

Teatrda borish bir qancha muhim voqealarga ulanib ketdi. Markiza, Moreta'ning „yengiltak“ida Perikola ijro etgan donya Leonorani ham tomosha qilishga qaror qildi. Uning bu tashrifi qiziga yuboriladigan keyingi xatiga yangi mavzu bo'lishi mumkin edi. Teatrda u Pepita bilan birga bordi, bu qiz haqida biz hali keyinchalik batafsilroq to'xtalamiz. donya Mariya bu qizni Santa Mariya-Rosa de las Rosas ibodatxonasidan yordamchilikka so'rab olgandi. Markiza teatrdagi o'ziga tegishli ayvonchada, so'na boshlagan nigohlari bilan chiroqlardan charog'on sahnani kuzatib o'tirardi. Perikolaning tanaffusda mahorat bilan ijro etayotgan rolidan chalg'ib, parda oldida bir nechta dolzarb qo'shiqlar aytadigan odati bor edi. Qitmir aktrisaning ko'zi markizaga tushib qolib, shu yerning o'zidayoq uning tashqi ko'rinishi, xasisligi, mastligi, hatto qizining undan qochib ketganligiga shama qilib qo'shiqlar to'qib tashladi. Bu bilan u butun tomoshabinlar e'tiborini kampirga qaratgan edi. Kulgi orasida tomoshabinlarning ijirg'anishlari yaqqol sezilib turardi. Markiza esa tomosha qilganlarining ta'sirida bo'shliqqa tikilganicha Ispaniya haqida xayol surar, ashulachini esa deyarli sezmasdi. Aktrisa tobora berilib ashula aytardi, tomoshabinlar nigohi esa markizaga nafrat hissi bilan to'lib-toshgandi. Nihoyat, Pepita markizaning yengidan tortib, ketdik, dedi pichirlab. Ular o'rinlarini tark etayotganida tomoshabinlar oyoqqa turib guvullar edi. Perikola zavqi toshganidan raqsga tushib ketdi, chunki oxirgi qatorda teatr direktori o'tirganini ko'rdi, bu uning maoshi yanada oshadi, degani edi. Markiza esa hali ham hech narsadan bexabar, o'z xayollari bilan band, butun tomosha davomida bir necha xil yangi, buning ustiga (kim biladi yana?) shunday ajabtovur jumlar o'ylab topgan-

---

<sup>1</sup> A. Moreta – XVI asrda yashagan ispan dramaturgi. (tarj.)

diki, balki, ularni o'qib, nihoyat, qizining yuzida tabassum paydo bo'lar va u ham oxiri tan berib: „Yo'q, baribir onajonim ajoyib-da“, – deb qo'yar.

Tez orada qirol noibi janoblariga – teatrdagi, hamma-ning o'rtasida oliy nasabli bir xonim ustidan kulishdi, dagan xabarni yetkazishdi. Qirol noibi janoblari Perikolani huzuriga chorlab, markizaning oldiga borib uzr so'rashga buyruq berdi. Borganda ham oyoqyalang va qora ko'ylakda borishi lozim edi.

Kamila Perikola shuncha bahslashib, qaysarlik qilsa ham, oxir-oqibat bir juft oyoq kiyimi undirishga muvaffaq bo'ldi, xolos. Qirol noibi janoblari o'z talabida qat'iy turishining uchta sababi bor edi: Birinchidan, ashulachi uning saroyiga aloqasi bor odamning ustidan kulishga jur'at etgan. Yetkazgan xabarlar ta'sirli bo'lishi uchun g'iybatchilar don Andresga ma'lumotlarni shunchalik bo'rttirib yubordiki, bu har qanday odamning sochini tikka qilmay qolmasdi. Oliy nasablilar tabaqasidan bo'lmish markizaga otilgan tosh bu, albatta, noib janoblariga ham tegmay qolmasdi-da. Demakki, markizani haqoratlash bilan ular, o'z navbatida, uni ham haqoratlagan hisoblanardi. Ikkinchidan, donya Mariyaning Ispaniyadagi kuyovining obro'si kundan kun ortib borar va unga har qanday yo'l bilan tazyiq o'tkazishi, undan ham yomoni, hatto joyini ham olib qo'yishi mumkin edi. Graf Visente de Abuire bilan nina-ning uchidek ham muammo chiqishini istamasdi – hattoki, shu tentak qaynonasi vajidan ham.

Nihoyat, qirol noibi janoblari aktrisa xonimni kamsitishga bahona topilganidan xursand, chunki u Perikolaning matador bilanmi yoki qaysidir artist bilanmi don olishayotganidan, unga xiyonat qilayotganidan shubhasi bor edi. O'sha xabarni eshitgan kuni laganbardorlarning tilyog'lamalıkları-yu kasalning zo'ri bilan gap nimadaligini yax-

shi anglay olmay qolgandi. Harholda, uning kim ekanligi qo'shiqchi xonimning xotirasidan ko'tarilib qolibdi, shekilli.

O'ziga tekkizib aytilgan qo'shiqni diqqat bilan tinglamaganidan tashqari Perikolaning kelishiga markizaning tayyormasligida boshqa sabab bor edi. Bir narsani aytib o'tish kerakki, qizi jo'nab ketganidan keyin donya Mariya bir odat chiqardi – ichkilikka ruju qo'ydi. Peruda hamma chichi<sup>1</sup> ichardi, mabodo bayram munosabati bilan siz chichidan bo'kib ichib mast bo'lib qolsangiz, bu unchalik uyat hisoblanmasdi. Xayolida to'xtovsiz davom etadigan suhbatlar va bahslar sabab donya Mariya kechasi bilan uxlay olmasligini sezgan edi. Bir kun uyqudan oldin bir qadahcha chichi ichib ko'rdi. Uning ta'siridagi holat shunchalik yoqimli ediki, bundan keyin ichimlikning miqdorini oshirib bordi. Ichkilikning o'ziga ko'rsatayotgan ta'sirini berkitish uchun markiza Pepitaga, xuddi madorim qurib, so'nib borayotganday bo'lyapman, derdi. Bora-bora odob saqlashni ham tashladi. Ispaniyaga uning xatlarini tashiydigan kemalar bir oyda bir marta jo'nab ketardi. Kema-larning jo'nab ketishidan bir hafta oldin kampir qat'iy kun tartibi asosida hayot kechirar, yangi ma'lumotlar to'plagan jamiyat hayotiga sho'ng'ib ketardi. Kema jo'nab ketishidan bir kun oldin u kechasi bilan o'tirib xat yozib chiqib, tongga yaqin uni muhrlardi-da, kemaga olib borgan Pepitaga qoldirardi. Quyosh chiqishi bilan o'z xonasiga bekinib olardi-da, necha haftalab ichkilikka mukasidan ketardi. Oxiri farog'at dunyosidan qalqib chiqib, keyingi xat uchun ma'lumot yig'ishga tayyorgarlik ko'ra boshlardi. Ana shunday ahvolda teatrdagi to'polondan keyin u o'zining yigirma ikkinchi xatini yozib tugatib, grafinini ko'targancha yotog'iga kirib ketgandi.

---

<sup>1</sup>Chichi – makkajo'xori va ananasdan tayyorlanadigan spirtli ichimlik.



Butun kun davomida Pepita xavotir bilan xonada kezib yurdi, karavotda yotgan bu harakatsiz jismni qo'ruv bilan kuzatarkan, kunning ikkinchi yarmida xonaga o'zining to'qish ishlarini olib keldi. Markiza katta ochilgan ko'zlarini shiftga qadagancha o'zi bilan o'zi gaplashib yotardi. Shom chog'ida Pepitani xonadan chaqirib olishib, xonimni ko'rish uchun Perikola kelganini aytishdi. Teatrdagi voqeani yaxshi eslab qolgani uchun Pepita, „Markiza aktrisa bilan uchrashishni xohlamayaptilar“, dedi jahl bilan. Xizmatchi buyruqni yetkazish uchun eshikka yo'naldi, lekin tezda dahshatdan rangi o'chib qaytib keldi-da, senora Perikolada qirol noibi janoblarning xati borligini aytdi. Pepita oyoq uchida yurib kelib, o'rnida yotgan markizaga murojaat qildi. Kampirning xira tortgan nigohi qizaloqqa kelib to'xtadi. Pepita markizani yengil silkib qo'ydi. Donya Mariya unga nima haqda gapirishayotganini tushunish uchun bor kuchi bilan xayolini jamlashga harakat qilardi. Buning uddasidan chiqa olmay nochor holda ikki marta yostiqqa shilq etib tushdi, nihoyat, (yomg'irli tunda tarqab ketgan askarini yig'ayotgan general kabi) u e'tiborini, xotirasida qolgan-qutgan barcha sifatlarini bir joyga jamladi, yuzini ayanchli tirishtirib, qo'li bilan peshonasini siqqancha idishda qor keltirishlarini so'radi. Qorni keltirishganda uni hovuchlab qovoqlariga va yuzlariga bosdi, shoshmasdan o'rnidan turdi, karavotga suyandi-da, tuflisiga tikilgancha uzoq turib qoldi. Nihoyat, qat'iylik bilan boshini tik ko'tardi, so'ngra to'rtli bosh kiyimini va girdi mo'ynali yopinchi'ini so'radi. Kiyinib bo'lib, hashamdor qilib bezatilgan mehmonxonada kutib turgan aktrisa tomon yurdi.

Kamila o'zini bepisandroq tutishga, iloji bo'lsa qo'rsroq bo'lishga ahd qilgandi, lekin qari xonimning havasini ko'rib lol qoldi.

Manufakturachining qizi kerak joyida o'zini haqiqiy oliynasab Montemayorlarga xos tutishni bilar, mastligida esa Gekuba'ga xos ulug'vorlik namoyish etardi. Yarim osilgan qovoqlari ostidagi ko'zlarida esa hukmdorlikdan toliqqan nigohlar aks etganini ko'rib, Kamila Perikola o'zini hatto biroz yo'qotib qo'ydi.

– Xonim, bu yerga kelishimdan maqsad, tashrifingiz bilan bizga marhamat ko'rsatib, kecha tomoshamizga kelganingizda, mening so'zlarimni boshqacha tushunmaganligingizga ishonch hosil qilmoqchi edim.

– Boshqacha? Qanaqa boshqacha? – takrorladi markiza.

– Muhtarama oliyalari so'zlarimni noto'g'ri tushungan bo'lsalar, sizga nisbatan hurmatsizlik qilgandek tuyulishi mumkin.

– Menga nisbatan?

– Muhtarama oliyalari itoatkor cho'rilaridan xafa bo'lmadilarmi? Sizdek marhamatli xonim tushunarsiz deb o'ylayman, bizdek bechora artistlar xohishlaridan qat'i nazar, chegaradan chiqishlari mumkin... nega deganda bu murakkab... nega deganda hammasi...

– Afv etasiz meni, senora, nimaga xafa bo'lishim kerak edi? Sizning ijrongiz juda ajoyib edi. Esimda qolgani shu, xolos. Siz buyuk aktrisasiz. Siz juda baxtlisiz, baxtlisiz. Dastro'molcha, Pepita... – Bu so'zlarni markiza tez aytganidan biroz tushunarsiz edi, lekin Perikola esankirab qoldi. U azbaroyi uyalganidan qizarib ketdi. Nihoyat, bir amallab g'udrandi:

– Bu tanaffus chog'ida aytiladigan komediya ashulalaridan edi. Qo'rqqanim shundaki, siz muhtarama oliyalari...

– Ha, ha, endi esimga tushdi. Men barvaqt ketgandim. Pepita, biz ertaroq ketdik-ku, to'g'rimi? Lekin bizni ma'zur

---

<sup>1</sup> *Gekuba* – yunon afsonalaridagi Troya podshosi Priamaning xotini. (tarj.)

tuting, senora, biz sal erta turib ketdik, yana shunday ajoyib tomoshaning yarmidan. Hah, esim qursin-a, nimaga ketuvdik? Pepita... ha, biroz tobim qochib qoluvdi.

Ammo bu qo'shiqlarning kimga qarata aytilganini tushunmagan bironta ham tomoshabin qolmagandi. Kamila o'zicha, balki, markiza ertaklardagi oliyjanoblikni ataylab namoyon etmoqchi, degan taxminga borishi mumkin edi. U yig'lamoqdan beri bo'lib dedi:

– Siz shunchalik mehribonsizki, mening bolalarcha sho'xligimga e'tibor ham qilmagansiz, senora. Meni kichiring, muhtarama oliyalari. Agar bilganimda... Agar bilganimda edi sizning qanchalik mehribonligingizni. Senora, ijizat bering, qo'lingizni o'pay.

donya Mariya hayron bo'lib qo'lini uzatdi. Anchadan beri hali hech kim unga bunday samimiy iltifot ko'rsatmagan edi. Na qo'shnilari, na savdogarlar, na xizmatchilar, hatto Pepita ham undan o'zini olib qochardi, qizi ham hech qachon unga bunday muomala qilmagan. Bularning bari uning ruhiyatiga boshqacha ta'sir etdi, yana ham aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, u juda ham ta'sirlanib ketganidan, sergap bo'lib qoldi.

– Xafa bo'lish, xafa... Sizdan-a?.. Mening ajoyib, mening iste'dodli bolajonim. Miyasi suyulgan bir kampir sizdan xafa bo'ladimi? Qizalog'im, menga shunday tuyuldi, go'yo men, shoirlarimiz aytgandek, bulutlar ortidan farishtalar suhbatini tinglagandek bo'ldim. Ovozingiz hayotimizda yangi xazina ochib berdi. Mana bu satrlarni qanday ajoyib kuyladingiz:

*Don Xuan, modomiki muhabbatim qadriga yetarkansiz,*

*To'la ishonchni ahmoqlik deb o'ylash ne hojat?*

*Bordi-yu xavotirlarim sizga yoqmayotgan bo'lsa,*

*Qo'polligimni yuzimga solishning ham keragi yo'q...*

va hakoza.

Bu qanday soʻzlar ekanligini bilasizmi? Birinchi aktning oxirida qanday ishora qildingiz? Esingizdami, qoʻlingiz bilan – mana bunday. Bu ishora muqaddas Bibi Maryamga tegishli. U Gavriildan izoh talab qilayotgan payt: qanday qilib men farzand kutmogʻim kerak? Yoʻq, yoʻq, mendan, balki, jahlingiz ham chiqar... lekin men sizga bir ishora haqida gapirmoqchiman, istasangiz eslab qolib, qachondir foydalanarsiz. Ha, bu oʻsha don Xuan de Larani kechirayotgan sahna koʻrinishiga juda mos tushardi. Sizdan bekitmoqchi emasman, bu ishorani men bir marta qizimda koʻrgan edim. Mening qizim juda chiroyli... bu hammaning fikri. Siz... siz qizimni, donya Klarani bilarmidingiz, senora?

– Muhtarama oliyalari bizga lutf koʻrsatib, teatrimizga tez-tez tashrif buyurib turardilar. Men grafinyani yaxshi bilardim.

– Tiz choʻkishni bas qiling, bolajonim. Pepita, tezda Xenaritoga ayting, mehmonimizga pechene keltirishsin. Tasavvur qiling-a, bir gal biz tortishib qoldik, negaligi esimda yoʻq. Bunga ajablanmasa boʻladi, biz onalar hammamiz ham, baʼzan... Sizdan iltimos, menga yaqinroq oʻtiring. Siz goʻyo qizimning menga nisbatan beparvolik qilayotgani haqidagi mish-mishlarga ishonmassiz deb oʻylayman. Siz buyuk ayolsiz, ajoyib qalb sohibasisiz, aminmanki, bunday ishlarda boshqalardan koʻra uzoqroqni koʻra bilasiz. Siz bilan suhbatlashish naqadar yoqimli. Sochlaringiz qanday ajoyib! Qanday ajoyib sochlar! Qizim jizzakilik va badjahlilik nimaligini bilmaydi, salohiyat va nazokatda tengsiz. Oʻrtadagi tushunmovchiliklar uchun, albatta, men aybdorman. Meni tezda kechirib yuborishi, hayron qolgudek moʻjiza emasmi. Oʻsha kuni ham bizda xuddi shunday kichkina bir anglashilmovchilik roʻy bergandi. Ikkalamiz ham oʻylamay gapirib qoʻyib, har birimiz oʻz xonamizga qamalib olgandik. Keyin esa ikkalamiz



ham qaytib kelib bir-birimizdan kechirim so'radik. Faqat o'rtadagi eshik bizga g'ov bo'lib turar edi, ikkalamiz uni ikki tomonga qarab tortqildik. Keyin u mening yuzimni shunday ushladiki... mana bunday, o'zining oppoq qo'lchalari bilan, mana bunday! Qarang-a!

Markiza kreslodan tushib ketgudek bo'lib oldinga engashdi-da, ko'zlaridan quvonch yoshlari to'kib:

– Farishtalarga xos bo'lgan harakatni qilib ko'rsatdi. Men buni ilohiy ishora desam ham bo'lardi, chunki bular bari xuddi bir tushdek edi. Men xursandman kelganingizdan, – davom etib dedi u, – chunki, ba'zi birovlar gapirgandek, qizim menga nisbatan yomon munosabatda bo'lmaganini endi o'z og'zimdand eshitdingiz. Ishoning, senora, hamma ayb menda edi. Menga qarang. Menga yaxshilab qarang. Bu qanday bema'ni tasodifki, shunday ajoyib qizning onasi menday bir kaltabin bo'lishi. Men fe'li og'ir odamman. Tinkani quritadigan. Siz va u buyuk ayolsizlar. Yo'q, mening so'zimni bo'lmay turing, sizlar noyob ayolsizlar. Men esa bor-yo'g'i asablari charchagan, o'ylamay ish qiladigan ahmoq ayolman. Ijzat bering, oyoqlaringizni o'pay. Men toqat qilib bo'lmaydigan odamman, ha, toqat qilib bo'lmaydigan...

Shu payt qari xonim rosmanasiga oromkursidan tushib ketdi, Pepita uni ko'tarib olib karavotiga yotqizdi. Perikola esa o'zini yo'qotib uyiga yo'l oldi, kelib, ko'zgu oldida cho'kdi-da, o'z ko'zlariga tikilgan va yuzlarini qo'llari orasiga olgan holda uzoq o'tirdi.

Pepita markizaning bunday og'ir holatlariga tez-tez guvoh bo'lib turardi. U yetimcha edi, uni Limaning g'alati dahosi – murabbiya Mariya del Pilar tarbiyalagandi. Peruning ikki buyuk ayolining yakka-yu yagona uchrashuvi (tarixda ularni shunday atashgan) o'sha kuni bo'lib o'tgandi, ya'ni donya Mariya Santa Mariya-Rosi de las Rosas

ibodatxonasiga kelib, murabbiyaning huzurida bu yerga qarashli yetimxonadan biror-bir farosatli qizni o'ziga yordamchilikka olmoqchi ekanligini bildirdi. Rohibalar murabbiyasi ro'parasidagi hazilkash rassomlar chizgan surat ko'rinishidagi bu kampirga diqqat bilan tikilib qoldi. Dunyodagi eng donishmand odamlarda ham bitta kamchilik bo'ladi. Murabbiya Mariya del Pilar har qanday to'pori va kaltabin bo'lib ko'ringan insonlarning ham baxtsiz qalbini tushunadigan insonlar toifasidan edi. Lekin markiza de Montemayorga kelganda, u ojizlik qildi. Markizaga ko'plab savollar berdi, so'ngra chuqur xayolga cho'mib, sukut saqladi. U Pepitaga oliy nasablarga xos tarbiya berishni o'ylardi, yana u bu qari xonimdan o'z manfaatlari yo'lida foydalanishni istardi. Shu vajdan ham u xayolidagi savollar iskanjasidan toqatsizlanib, ro'parasidagi Peruning eng boy, lekin eng so'qir ayoliga tikilib qolgandi.

Murabbiya hayoti tarix belgilagan vaqtdan bir necha asr ilgari ketgan g'oyaga muhabbat bilan to'lib-toshgan insonlar sirasiga kirardi. U o'z davrining qotib qolgan qarashlari bilan kurashdan charchamas, atrofidagi ayollarning qanday bo'lmasin qadriga yetishga harakat qilardi. Yarim kechasi xo'jalik hisob-kitoblarini tugatib, u shu zayl aqlga sig'maydigan orzular ummoniga sho'ng'ir, ayollar ayollarni himoya qilgani oyoqqa turadigan kun haqida, yo'lga chiqqan ayollar, xizmatdagi ayollar, qari va kasalmand ayollar, Potsi shaxtalarida ko'rgan ayollar, to'quvchilik ustaxonasidagi ayollar; yomg'irli kechalarda eshik tagidan topib olingan qizaloqlar va hokazolar haqida o'y surardi. Lekin ertasiga boshlangan yangi kun haqiqatga tik boqishga majbur qilardi. Peru ayollari, hatto rohibalar ham ikki tushuncha bilan yashashardi. Ularning avvalboshdagi va kelajakdagi baxtsizliklarining birinchisi, – ular erkakni o'ziga bog'lab, suyanchiq qilib olish darajasida jozibador

emasliklarida bo'lsa, ikkinchisi erkaklarning bir bora erkalatishlari barcha qiyinchiliklarni yuvib ketishi edi.

Murabbiya Limaning yon-atrofidan boshqa joylarni bilmas, shuning uchun bu yerdagi buzuqliklarni odatdagi holat deb o'ylardi. Biz hozirgi davrdan uning zamonasigacha bo'lgan hayotga nazar tashlar ekanmiz, uning barcha umidlari ro'yobga chiqmaydigan xomxayol ekanligini yaxshi bilamiz. Uning darajasidagi yigirmata ayol ham o'sha zamon odamlarining dunyoqarashiga hech qanday yangilik kirita olmasdi. Shunday bo'lsa ham, u tinmay mehnat qilar, bu harakatlari bilan masaldagi ming yilda bitta bug'doy keltirib, oyga qadar xirmon uymoqchi bo'lgan qaldirg'ochni eslatardi. Bu toifa odamlar esa har bir davrda ham topilib turadi; donlarini o'jarlik bilan tashishda davom etishar ekan, atrofdagilarning istehzolari ularni hatto zavqlantiradi. „Kiygan kiyimini qaranglar! – qichqiramiz biz. – Kiygan kiyimini qaranglar!“

Uning barkashdek qizg'ish yuzi katta mehribonlikni, undan-da ko'proq haqgo'ylikni ifoda etardi yoki hamma-sidan ko'ra ko'proq boshliq ekanligini ko'rsatayotgandek bo'lardi. Uning barcha ishlari: kasalxonalar, yetimxonalar, ibodatxona, hojatbarorlik yurishlari – barchasi-barchasi pulga borib taqalar edi. Hech kim uningchalik ezgulikdan samimiy zavqlana olmasdi, lekin u o'zining barcha harakatlari, mehnatlari, hatto e'tiqodi bilan ham idoradagi to'rachilikka qarshi kurashar, ibodatxonalar boshqaruvi boshlig'idan haq talab qilib charchamasdi. Limaning buzrugi – keyinchalik biz uning ijobiy tomonlari bilan ham tanishamiz, – ibodatxona murabbiyasini ko'rgani ko'zi, otgani o'qi yo'q deb aytsak ham haqimiz ketadi. Ba'zan buzruk ota hayot va o'lim haqidagi mulohazalari chog'ida, ajal bir kuni bu serqatnov kampirning ham qadamini uzi-shini o'ylab, ko'ngli ancha halovat topardi.

Bir kuni murabbiya faqat yuzida namoyon bo'layotgan qarilik alomatini emas, balki undan ham xavfliroq bo'lgan bir ogohlantirish ekinini sezgandek bo'ldi. Ana shunda u birinchi marta qo'rquvdan muzlab ketdi: o'zi uchun emas, ishi uchun. Peruda yana kim ham uning uchun muhim bo'lgan narsalarning qadriga yetardi? Shularni o'ylab, o'sha kuni tong saharda o'rnidan turib ibodatxonani, kasalxonalarni, yetimxonalarni aylanar ekan, o'miga qoldirishi mumkin bo'lgan odamni izlay boshladi. U bir ma'nosiz bo'sh nigohdan ikkinchisiga, undan uchinchisiga shoshib ko'z yugurtirardi, kamdan kam hollarda ulardan birida to'xtalar, shunda ham ishonchdan ko'ra ko'proq umid bilan tikilardi. U yetimxona hovlisida kir yuvayotgan bir to'p qizlarga duch kelib qoldi. Uning e'tiborini o'n ikki yoshlar chamasidagi bir qiz o'ziga jalb etdi. U tog'orani to'ldirib kir yuvayotgan dugonalarning ishini boshqarar va ayni bir vaqtda avliyo Rosa Limsning hayotidagi qiziq voqealar va u ko'rsatgan karomatlar haqida zavq bilan gapirib berardi. Shu tariqa murabbiyaning izlanishlari Pepitada to'xtadi. Ulug' ishlar uchun tarbiyalanuvchilarni har doim ulkan mashaqqatlar kutadi. Ustiga-ustak sezgir, hissiyotli va rashkchi rohibalar orasida bu ishni amalga oshirish yanada ham ko'proq ehtiyotkorlikni talab etardi.

Pepitani eng yoqimsiz ishlar bilan ko'mib tashlashdi, evaziga unga ibodatxona ish boshqaruvi bilan bog'liq barcha jarayonlar bilan tanishib chiqish imkoniyatini yaratib berishdi. U murabbiya borishi kerak bo'lgan barcha joylarga doimiy hamroh edi, bunday safarlarda qanday vazifani ado etishi muhim emasdi, tuxum va sabzavotlarga qarab tursa ham uning yonida bo'lsa, shu bas edi. Goho shunday bo'lardiki, tuyqusdan paydo bo'lib qolgan murabbiya u bilan uzundan uzoq suhbatlar qurardi, bu suhbatlarning mavzusi faqat rohibalar hayoti to'g'risida bo'lmay, balki



ayollarni qanday boshqarish haqida, yuqumli kasalliklar bilan og‘riganlarning chodirini qanday joylashtirish va qanday qilib ehson yig‘ish kerakligi xususida bo‘lardi. Pepita donya Mariyaga dastyorlikka yuborilib, uning aql bovar qilmas yumushlarga kirishishi uning buyuklik pillapoyasi sari qo‘yilgan qadamlaridan biri edi. Pepita ikki yilcha markizaning uyiga ahyon-ahyonda kelib turdi, kelganda ham qiyom bo‘lar-bo‘lmas qaytib ketardi. Keyin u bu qasrga butunlay ko‘chib keldi. U hayotdan qulay sharoitni yoki baxtni kutishga o‘rgatilmaganligi sabab, yangi joydagi dahshatlarni hisobga olmaganida bu yerdagi hayot o‘n to‘rt yoshli qizaloq uchun u darajada yomon emasdi. Murabbiyaning uni doim zohiran kuzatib turishi xayoliga ham kelmasdi. Tirishqoqlik bilan qilayotgan xizmatlari, ortiqcha majburiyatlar chiniqtirishdan ko‘ra zarar bermasligini nazorat qilib borish murabbiyaning majburiyati hisoblanadi.

Pepitaning chekiga tushgan sinovlar faqat qismangina jismoniy mehnat edi; masalan, xizmatchilar donya Mariyaning kasalligidan foydalanib, qasming yotoqxona eshiklarini o‘z qarindoshlari uchun ochib berishar va ular xohlagan narsalarini tortinmay, berkitmay shilib ketaverishardi. Bu holga faqatgina Pepita qarshilik ko‘rsatgani sabab, aksar noqulay ahvolga tushib qolardi, xizmatchilar uning ustidan kulib, piching qilishar, u esa bunga chidashiga to‘g‘ri kelardi. Lekin bekaning bular bilan ishi yo‘q, uydagi bu charxlangan aqlning ham o‘ziga yarashadardi bor edi. U donya Mariyaga shahar bo‘ylab qilgan sayrlarida hamrohlik qilarkan, ba‘zan sharti ketib parti qolgan xonimning ko‘ngillari birdan cherkovga kirishni tusab qolardi, u o‘zining yo‘qotgan e‘tiqodi o‘rmini tobora ko‘proq irim-sirimlar bilan to‘ldirib bormoqda edi.

– Shu yerda quyoshda toblanib tur, bolajonim, men birrov...

Shunday deb ketgan donya Mariya mehrob oldida, orzular og'ushida barcha narsani unutar va cherkovning boshqa eshigidan chiqib ketardi.

Pepita murabbiyaning tarbiyasida o'ta itoatkorlikka o'rgatilgani uchun ham ancha soatlardan keyin o'zida jur'at topib, cherkovga kirgan chog'ida ham u yerda xonimni ko'rmas, shunda ham yana qaytib kelib, qorong'i tushguncha burchakda turaverardi. Ana shu ahvolda hammaning ko'z o'ngida u bolalik tortinchoqligining barcha azobli sinovlaridan o'tishiga to'g'ri kelardi. U hali ham yetimxona kiyimini kiyib yurar (ularni boshqa kiyimga almashtirishga donya Mariyaning bir daqiqalik e'tibori yetarli bo'lardi), ba'zan unga shunday tuyulardiki, faqat tuyulibgina qolmasdi, – erkaklar unga boshdan oyoq nazar tashlab, o'zaro pichirlashib o'tib ketishardi. Uning qalbi ham kam azoblanayotgani yo'q. Shunday kunlar ham bo'lardiki, donya Mariya birdaniga uning borligini eslab qolar, ochilib-sochilishib suhbatlashar, maktublardagi nozikta'b, dilkash insonga aylanib qolardi-da, so'ngra yana o'zi bilan o'zi bo'lib, qo'pol yoki qattiq gapirma ham, hech kim bilan gaplashmay, xayol dunyosiga g'arq bo'lardi. Markiza bilan bir-biriga suyanchiq bo'lib yashash haqidagi umid gullari Pepitaning yuragida ochilmasdan so'lib yo'q bo'ldi. U qasr bo'ylab oyoq uchida jimgina odimlar ekan, suyanchiqni faqat o'z burchiga sodiqlikdan va uni bu yerga yuborgan murabbiyaga sadoqatdan qidirardi.

Yana bir narsa oydinlashdiki, bu narsa markiza va uning yordamchisi hayotiga jiddiy ta'sir etmay qolmadi. „*Qadrdon onajonim, – deb yozgan edi grafinya, – ob-havo toqat qilib bo'lmaydigan darajada og'ir, ustiga ustak bog'lardagi o'simliklarning gullashi bu betoqatligimni yanada oshirmoqda. Agar hidi bo'lmaganda gullarga chidash mumkin edi. Shu tufayli ham sizga odatdan tashqari*

*qisqaroq xat yozishga ijozat so'rayman. Xatni jo'natish paytigacha Visente vaqt topib ulgursa, rohat bilan ushbu sahifaning qolganini to'ldirar, sizga shunchalik quvonch bag'ishlaydigan mening zerikarli hayotimni ikir-chikirlarigacha yoritib berar. Bu yil kuzda niyat qilganimdek, Grinyan-an-Provansga bormayman, chunki oktabr oyi boshlarida farzand kutuyapman".*

Qanaqa farzand? Markiza devorga suyanib qoldi. donya Klara lov etib alangaga aylanuvchi, bezor qiluvchi g'amxo'rlikni oldindan ko'ra bilgani uchun, buning oldini olish maqsadida, eng muhim yangilik haqida shunchaki gap orasida qistirib o'tgan edi. Lekin bu hiyla baribir ish bermadi. Bu yangilikka javob tariqasida mashhur yigirma uchinchi xat yozilgan edi.

Nihoyat markizaning bezovta bo'lishi uchun bahona topildi: uning qizi ona bo'lyapti. donya Klara uchun zerikarli hayotning boshlanishi bo'lgan bu yangilik markizaning tuyg'ulari dunyosida yangi qirralarni ochib berdi. Avvalambor, u tibbiyot fanining va foydali maslahatlarning koniga aylandi. U shahardagi barcha tabiblarni va doylarni surishtirib chiqdi, Yangi Dunyo yeridagilarini ham xalq tabobati donishmandligining maslahatlari bilan to'ldirib tashladi. U andishani unutib, irim-sirimlarga berilib ketdi. Bolasini har qanday yomonliklardan saqlash uchun vahshiylashib borardi. U man etilgan narsalar ro'yxatini tuzib chiqdi. Uyda bironta ham tugun bog'lash mumkin bo'lmay, xizmatkorlarga soch o'rish ham man etildi. O'zining hamma yog'iga tug'uruqni osonlashtiruvchi kulgili tumorlar osib tashladi. Zinalarning juft sonli pillapoyalari qizil bo'r bilan belgilab chiqildi, xizmatkorlardan birontasi tasodif bilan, juft sonli pillapoyaga oyoq bosgudek bo'lsa, tavba qilib yig'lashlariga quloq solmay, uydan haydab solishardi. donya Klara xohlagan paytida o'zi istagan bolalaridan biri

bilan istagan hazilini qilishi mumkin bo'lgan yovuz Tabiatning qo'liga tushib qolgandi. Uning qahrini yumshatuvchi bir qator qonun-qoidalari bor ediki, qadim-qadimdan dehqonlarning ayollari bu qoidalardan o'ziga himoya topib kelishgan. Ko'psonli guvohlar safi bu ishlarda qandaydir haqiqat bor ekanligini ko'rsatib turardi. Bulardan foyda bo'lsa borki, zarar tegmasdi. Lekin markiza faqatgina urf-odatlar bilan cheklanib qolmay, nasroniylarning bu masalaga oid barcha yozma aqidalarini ham o'rganib chiqdi. U kallayi saharlab turib, tonggi ibodat marosimiga oshiqar, mehrob oldidagi panjarani jazavaga tushgudek bo'lib siqar, go'yo shu bilan bu rang-barang haykalchalardan loqal biron-bir belgi, deylik, tabassurning soyasimi, yo sirli tarzda bosh silki bo'yishmi, undirmoqchi bo'lardi. Hammasi yaxshi o'tib ketarmikan? Ey Xudoyim, hammasi yaxshi o'tib ketarmikan?

Ba'zan kun bo'yi ibodat qilaverganidan ichida bir nima uzilgandek bo'lardi. Tabiat kar. Tangri befarq. Inson esa hayot jarayonida biron nimani o'zgartirishga ojiz. Shunday paytlarda u biror-bir muyulishda karaxtlanib turib qolar, umidsizlikdan boshi g'ovlab borar, devorga suyangan holda ma'nisiz bu dunyodan bosh olib ketgisi kelib qolardi. Lekin ko'p o'tmay yuragidagi Yaratganing qudratiga bo'lgan ishonch bosh ko'tarib, qizining karavoti tepasiga yoqib qo'yilgan shamni almashtirgani uyga chopar edi.

Nihoyat, bunday voqeaga tayyorgarlik ko'rayotgan perulik oilalarning eng oliy marosimlarini ado etish payti keldi: ular Santa de Kluksambukva ziyoratgohiga yo'lga o'tlanishdi. Umuman, urf-odatlar qandaydir ta'sir kuchiga ega bo'lsa, bu ziyoratgoh – birinchi galda edi. Bu yer uch xil dindagi e'tiqod egalari tomonidan obod qilingan bo'lib, qadim zamonlardayoq inklarning mushkul ahvol-



ga tushib qolganlari, toshni quchib, o'zlarini qamchi bilan savalab samodagilarga iltijolarini yetkazishgan. Markiza taxtiravonda aynan ana shu tomonlarga qarab yo'l oldi. Avliyo qirol Lyudovik ko'prigidan o'tilsa, u yog'i qo'l uzatgudek joy. Bu ayollar to'ladan kelgan, filxirom yurishlari va mayin tabassumlari bilan kishi havasini keltiradigan, havosi tiniq, suvi muzday, behisob favvoralari otilib turgan, yoqimli musiqaday ohang taratuvchi qo'ng'iroqlar shahri edi.

Agar Kluksambukva shahrida baxtsizlik yuz bersa ham uning zahrini baland And<sup>1</sup> tog'lari, shahar ko'chalarini to'ldirgan yengil havo o'ziga oladigandek edi go'yo. Uzoqdan shaharning oq devorlari, cho'k tushib bukchaygan tog'lari ko'rinishi bilan markiza qo'lidagi tasbehni o'girishdan to'xtadi, xavotir aralash o'qiyotgan duolari ham labida qotib qoldi.

U kelib tushgan musofirxona hovlisida o'tirmadi ham, joylashish masalasini o'zing hal qil deb Pepitani qoldirdi-da, to'g'ri cherkovga yo'l oldi. Markiza cherkovda cho'k tushib, kaftini kaftiga sekin-sekin urgancha uzoq turib qoldi. U qalbiga quyilib kelayotgan g'ayriodatiy itoatkorlik tuyg'usiga quloq tutardi. Kim bilsin, issig'ida Tangri va qizining o'z ishlarini qilishga qo'yib bergan ma'quldir? Shu yerda paxtali ko'ylak kiygan, tumorlar va shamlar sotib o'tirib, ertadan kechgacha faqat pul haqida gaplashuvchi kampirlarning pichirlashishlari ham uning asabiga tegmasdi. Ehson undirish niyatida, atrofida aylanib bezor qilayotgan, so'ngra alamidan polni tuzatish bahonasida o'tirgani qo'ymay hadeb turg'izib yuborayotgan usta ham uni fikridan chalg'ita olmasdi. Nihoyat, u yorug'likka chiqib favvora pillapoyasiga o'tirdi. Bog'lar

<sup>1</sup> And – Janubiy Amerika tog'lari. (tarj.)

atrofini bosib ketgan, saf tortib yurgan nogironlarga qaradi. Osmonda doira yasab uchib yurgan uchta lochinga tikildi. Bir vaqt favvora yonida o'ynab yurgan bolakayning ko'zi unga tushdi-yu baqrayib qoldi, so'ng qo'rqqanidan tiraqaylab qochib qoldi, shu atrofda yurgan lama<sup>1</sup> (qalin mo'ynasi o'ziga ham og'irdek tuyulgan bo'yni uzun muloyim nigohli urg'ochi) pillapoyalardan asta-asta qadam tashlab, xonimning yoniga tushib keldi-da, silab qo'ying degandek baxmal tukli qabariq burnini cho'zdi. Lamalar odamlardan hurkmasdi, hatto o'zini shulardan biri deb tasavvur qilsa ham ajabmas, ba'zan suhbatlashib turgan davraga boshini suqib, go'yo hozir u ham o'zining tushkun, lekin aqlli fikr-mulohazalarini bildiradigandek bo'lib turadi. Ko'p o'tmay donya Mariyani bunaqa opa-singillardan yana bir nechtasi kelib o'rab oldi. Ularning nigohi go'yo, xonim nega chapak chalyapsiz yoki bosh kiyimingizdagi to'rning narxi qancha deb so'rayotgandek edi.

donya Mariya Ispaniyadan kelgan xatlarni qayerda bo'lmasin zudlik bilan keltirib berishlarini aytdi. U sekin yurib maydonga kelib o'tirgan ham ediki, qo'rg'ondagi xizmatkor bolalardan biri yugurib kelib, uning qo'liga muhr-langani katta xatjildni tutqizdi. donya Mariya shoshmasdan xatni ochdi. O'zini bosib olgan holda oldin kuyovining hazil-mutoyibaga, mehr-muhabbatga to'la xatini, so'ngra qizining yo'llagan maktubini o'qib chiqdi. Ikkinchisi ataylab markizaning dilini og'ritish uchun o'ylab topilganday, turli-tuman pichinglarga to'lib-toshgandi. Xatdagi har bir gapni markiza ko'zlari ila shimib olar, so'ngra esa ularni tushunish va kechirish qobig'iga o'rab yuragiga jo etardi. Oxiri u o'midan turdi-da, ko'ngil so'rab turgan lamalarni ohista chetga surib, cherkovdan qaytdi.

<sup>1</sup> Lama – janubiy Amerika tuyasi. (tarj.)

Donya Mariya cherkovda va maydonda kunni kech qilguncha, Pepita joylashgan xonalarini tartibga keltirdi. Hammollarga katta savatlarni qayerga qo'yishni ko'rsatib, o'rog'liq turgan mehrob, o'choq, shohi choyshablarni va donya Klaraning portretini chiqazib qo'ydi. Oshxonaga tushib, oshpazga markiza uchun pishiriladigan bo'tqani qanday tayyorlashni tayinladi. So'ng xonaga qaytib kelib, kuta boshladi. Xiyol o'tib, ustoziga xat yozishga qaror qildi. U patqalamni qo'lida tutgancha uzoqlarga tikildi-da, lablari titray boshladi. Murabbiya Mariya del Pilarning qizarib, tozalik ufurib turgan yuzlari va ajoyib tim qora ko'zlarini ko'rganday bo'ldi. Hatto murabbiyaning ovozi qulog'iga chalingandek tuyuldi: kechki ovqatdan keyin (Yetimchalar yerga qarab, qo'l qovushtirib o'tirishardi), kun bo'yi qilingan ishlar yakunini chiqaradi yoki shamlar yog'dusida kasalxona karavotlari orasida turib, tungi mulohaza uchun mavzu e'lon qiladi. Lekin hammadan ham ko'proq qizaloq kutilmagan suhbatlarni esladi. Murabbiya (qizaloqning yoshi ulg'ayishini ham kutib o'tirmay) o'z majburiyatlari haqida o'rtoqlashganda, Pepita bilan o'z tengiday suhbatlashardi. Bu xildagi suhbatlar farosatli bolani hayratga va xavotirga solib qo'yishi aniq edi, Mariya del Pilar esa buni suiste'mol qilardi. U Pepitaning dunyoqarashini kengaytirib borish bilan birga yoshiga to'g'ri kelmaydigan mas'uliyatni singdirib bormoqda edi. Shu tariqa o'zi ham o'ylamagan holda u Pepitaning ko'z oldida yondirib, kul qilib yuborgudek qudratga ega shaxs sifatida gavdalanardi, go'yo Semela oldida Zevs o'zining ilohiy qudrati bilan namoyon bo'lgandek. Bunday paytda Pepita o'zini nochor, foydasiz odam his qilib qo'rqqanidan xilvatda yig'lab ham olardi. Keyin murabbiya yosh bolani uzoq muddatli yolg'izlik sinoviga mahkum qildi. Shuning uchun ham Pepita o'zining tashlandiq ekani haqidagi xa-

yollar bilan kurashib yashashiga to'g'ri kelardi. Mana endi hech kim uni tanimaydigan qahvaxona mehmonxonasida, balandligi sabab boshni aylantiruvchi yot tog'larda Pepita o'ziga qadrli bo'lgan, qalbiga eng yaqin odamnigina qo'msab sog'inardi.

U uzuq-yuluq jumalardan iborat, siyohlari chaplashgan xat yozdi. Keyin bo'tqaning ta'mini tekshirish va yana o'tin so'rash uchun pastga tushib ketdi.

Xonaga markiza kirib keldi-da, stolga o'tirdi. „Men ortiq hech narsa qila olmayman. Nima bo'lsa bo'lar“, – pichirlab dedi xonim. U bo'ynida osig'liq har xil irim tumorlarini yechdi-da, o'choqdagi yonib turgan olovga irg'itdi. Uni g'alati hissiyot chulg'ab olgandi, to'xtovsiz qilingan ibodati bilan Tangrini o'ziga qarshi qilib qo'ygandek edi go'yo. Shu vajdan ham Unga hasrat qilib: „Oxir-oqibat hammasi birovning qo'lida. Men endi boshqa hech narsaga ta'magirlik qilmayman, nima bo'lsa bo'lar“, – dedi. U qo'llarini chakkasiga tirab, zaharli xayollar surgancha ancha o'tirdi. Bir vaqt ko'zi Pepitaning xatiga tushdi va beixtiyor xatni ochib o'qiy boshladi. Lekin xatdagi so'zlarning ma'nosini anglaguncha xatning yarmidan ko'pini o'qib bo'lgan edi: „...ammo bularning barchasi men uchun ahamiyatsiz, agar Siz meni yaxshi ko'rsangiz, meni u bilan qolishimni istasangiz... Men bu haqda Sizga aytishim kerak emasdi, lekin ba'zan yaramas xizmatkorlar meni xonamda qulflab qo'yib, narsalarni o'g'irlashadi, muhtarama xonim esa bu ishni meni qildi deb o'ylashlari ham mumkin. Umid qilamanki, bunday bo'lmaydi. Umid qilamanki, Siz sog'-salomatsiz, shifoxonada va boshqa joydagi ishlaringizda ham hammasi yaxshi ketyapti deb o'ylayman. Sizni umuman ko'rmayotgan bo'lsam ham, men doim Siz haqingizda o'ylayman va eslayman. Aytgan gaplaringizni mulohaza qilaman, mening



*qadrdon murabbiyam. Men faqat Siz xohlagan ishlarnigina qilishni xohlardim, lekin menga bir necha kunga ibodatxonaga qaytishimga ijozat berarmikansiz? Mumkin bo'lmasa, kerak emas. Men bu yerda yolg'izman va hech kim bilan gaplashmayman ham. Bilmadim, balkim, siz meni unutib ham yuborgandirsiz. Agar siz menga ikki enlik xat yozishga bir necha daqiqa vaqt topa olsangiz, men uni ko'z qorachig'imdek asrardim, lekin men bila-man, sizning qanchalik band ekanligingizni..“*

donya Mariya xatning u yog'ini o'qib o'tirmadi, buklab nariga surib qo'ydi. U bir necha soniya hasad olovida yondi. U ham onaxon singari o'ziga yaqin bo'lgan insonning qalbiga yakka hokim bo'lishni juda istardi. Undan ham ko'proq u mana shunday oddiy tuyg'ularni his qilishni, muhabbatini bo'g'ib turgan takabburlik va manmanlik yukini olib tashlashni xohlardi. O'zida bo'layotga bu alg'ov-dalg'ovliklarni yengish uchun ibodat kitobin qo'lga olib, undagi mavzularga fikrini jamlashga urindi. Biroq, bir daqiqadan keyinoq xatni oxirigacha o'qib chiqish xohishi ustun chiqib, uddalay olsa, bunday lazzat sirining tagiga yetishga qaror qildi.

Pepita xizmatkor bilan kechki ovqatni keltirdi. donya Mariya kitobi osha unga tikilar ekan, endi unga osmondan tushgan farishtaga qaragandek qarar, har bir harakatini e'tibor bilan kuzatardi. Pepita esa xonada ovoz chiqarmay yurar, dasturxon tuzab, xizmatkorga pichirlab ko'rsatmalar berardi.

– Xonim, ovqat tayyor, – dedi u, nihoyat.

– Sen-chi, bolajonim, men bilan birga ovqatlanmaysanmi? – Odatda, Pepita Limada markiza bilan bir dasturxonada o'tirardi.

– Sizni charchagan bo'lsangiz kerak deb o'ylab, pastda ovqatlanib olgan edim, xonim.

„Uning men bilan ovqatlangisi kelmayapti, – deb o‘yladi markiza. – U mening qanaqa ekanligimni bilib, mendan yuz o‘girdi“.

– Xonim, ovqatingizni yeb bo‘lguncha kitobni ovoz chiqarib o‘qib turaymi?– deb so‘radi Pepita, xatoga yo‘l qo‘yganini tushunib.

– Yo‘q, xohlasang dam olishing mumkin.

– Rahmat, xonim.

donya Mariya o‘rnidan turib stolga yaqinlashdi. U qo‘lini stol suyanchig‘iga qo‘yib dudmallanibroq dedi:

– Bolajonim, men ertalab Limaga xat jo‘natyapman, istasang, xating bo‘lsa, menikiga qo‘shib jo‘natishing mumkin.

– Yo‘q, menda xat yo‘q, – dedi Pepita. Keyin shoshib qo‘shimcha qildi: – Men pastga tushib, sizga o‘tin olib kelishim kerak.

– Axir sen murabbiya Mariya del Pilarga xat yozdingku, chirog‘im?.. Yo jo‘natmoqchi emasmisan?..

Pepita o‘zini o‘choq bilan ovoradek ko‘rsatdi.

– Yo‘q, men uni jo‘natmayman, – dedi u va markiza unga hayrat bilan qarab turganini sezib sukutga cho‘mdi. – Men bu fikrimdan qaytdim.

– Sendan xat olib murabbiyaning boshi ko‘kka yetishi aniq. U juda ham xursand bo‘lib ketadi. Meni aytdi dersan.

Pepita duvva qizarib ketdi. Shunday bo‘lsa-da, ovozini balandlatib dedi:

– Xo‘jayin kechga siz uchun yana o‘tin tayyorlab qo‘yishga va‘da berdi. Men hoziroq keltirishlarini so‘rayman.

U ko‘z qiri bilan kampir tomonga qaradi va uning g‘amgin ko‘zlarini katta-katta ochgancha hamon sinchkovlik bilan tikilib turganini ko‘rdi. Pepitaga bunday narsalar haqida gapirish nojoyizday tuyulardi, lekin mana bu g‘alati xonim bularni barini yuragiga yaqin olganini ko‘rib, ochiq aytishga jazm qildi:

– Yo‘q, bu bo‘limg‘ur xat edi. Bu xat yaxshi emas edi. donya Mariyaning taajjubi badtar ortdi.

– Nima deyapsan, jon qizim, menimcha, xat juda ajoyib yozilgan edi. Menga ishonaver, men buni bilaman. Yo‘q, yo‘q, nima sababdan u yomon bo‘lishi kerak ekan?

Pepita bu mavzuga yakun yasash uchun so‘z qidirib, chimirildi.

– Xat unchalik emas... u unchalik... kuchli emas edi, – dedi u. Shu bilan boshqa churq etmadi. Qizaloq xatni xonasiga olib ketdi va o‘sha tomondan xatning yirtib tashlangani eshitildi. So‘ng u o‘z o‘miga kirib yotdi. Qorong‘i burchakka tikilar ekan, qilib qo‘ygan barcha ishlaridan xijolat torta boshladi. Hayratdan dong qotgan donya Mariya esa stolga kelib o‘tirdi.

U hech qachon mardona bo‘lishga harakat qilmagan: na hayotda, na sevgida. Hozir u o‘zining tumorini, tasbehlarini va mast-alast paytdagi holatlarini o‘yladi... u qizini o‘yladi. U qizi bilan o‘zining munosabatlarini, o‘tib ketgan gaplarni kavlashtirib, ezmalik bilan o‘pkalashlarini, o‘rinsiz ginalarini, qizini e‘tiborsizlikda va to‘porilikda ayblashlarini (o‘sha kuni aqli xira tortib, stolni mushti bilan urgani esida) – barchasini xayolidan o‘tkazdi.

– Lekin bularda mening aybim yo‘q, – yig‘lardi u. – Shundayligim uchun men aybdor emasman-ku. Hayotimiz shunaqa. Meni shunday tarbiyalashgan. Ertaga men hayotimni yangidan boshlayman. Faqat biroz sabr qil, bolajonim, hademay o‘zing ko‘rasan, ha, ko‘rasan.

So‘ng stolni yig‘ishtirdi-da, o‘zining Birinchi deb atagan xatini yozishga kirishdi, – mardlikning birinchi, egri-bugri, chalasavod tajribasi.

U oldin yozgan xatlarida qizidan uni qanchalik yaxshi ko‘rishini, juda ham yaxshi ko‘radimi yoki unchalik emasmi ekanini o‘smoqchilaganini eslab o‘zidan uyalib ketdi.

Yaqinda donya Klaradan olgan maktubidagi bir-ikki og'iz iliq gaplarni xotirasida tiklab, ularni xasislarcha zamzama qila boshladi. donya Mariya xatda nimalar yozilganini to'la eslolmadi, lekin endigi xati butunlay boshqacha bo'ladi. Hammasi ochiq-oydin yozilgan, buyuk qalb sohibining birinchi maktubi bo'ladi. Hech kim ularni no'noq deb hisoblamaydi. Bu o'sha qomuschilarimiz tomonidan korinfliklarga yuborilgan ikkinchi noma deb nom olgan mashhur ellik to'rtinchi xat edi. Mangulikka yuz tutgan sevgi haqidagi xat bunday boshlanardi: „*Minglab insonlar orasida, bizning hayot yo'limizda uchraydiganlari, bola-jonim...*“ va hokazo. U xatni yozib bo'lganida, tong yorisha boshlagandi. Ayvon eshigini ochib, And uzra charaqlab turgan cheksiz yulduzlarga tikildi. Hammaga ham eshitish nasib etmagan bo'lsa ham, bugun butun oqshom yulduzlar jo'r bo'lib kuylashdi. So'ng u shamlarni boshqa xonaga ko'chirdi, uxlayotgan Pepitaning ustiga engashib, uning namiqqan soch tolalarini yuzidan surib qo'ydi.

– Menga endi yashashga ijozat ber, jon qizim, – pi-chirladi u. – Hammasini boshqatdan boshlay.

Ikki kundan so'ng ular orqaga qaytishdi. Avliyo qirol Lyudovik ko'prigidan o'tishayotganda esa bizga ma'lum bo'lgan baxtsizlikka duch keldi.



## UCHINCHI QISM

### Esteban

Bir kun ertalab Santa-Mariya-Rosa de las Rosas ibodatxonasi eshigi tagidan savatchaga solingan ikkita tashlandiq chaqaloqni topib olishdi, chaqaloqlarning ikkovi ham o'g'il edi. Ularga emizikli ayolni topib kelguncha ham kutib o'tirmay ism qo'yishdi. Lekin bu ismlardan ularga hech qanday naf yo'q edi, chunki bolalarni hech kim va hech qachon bir-biridan farqlay olmasdi. Ularning ota-onasi kim, buni aniqlashning iloji bo'lmadi. Bolalar ulg'ayishgani sari shaharning g'iybatchi xotinlari kamgapliklari, xo'mrayib, gerdayib yurishlaridan ularni kastiliyaliklar deb e'lon qilishdi va navbatma-navbat barcha aslzoda xonadonlarni gunohkor qilib chiqishdi. Bu dunyoda ular uchun najot farishtasidek bo'lgan odam ham topildi. Bu — cherkov murabbiyasi Mariya del Pilar edi. U erkak zotini ko'rgani ko'zi yo'q bo'lishi mumkindir, lekin Manuel va Estebanlar bundan mustasno edi. Ba'zan shunday bo'lardiki, onaxon kun oxirida bolakaylarni o'z devonxonasiga chaqirib olib, ularni oshxonadan shirinlik olib kelgani yuborar, so'ngra Sida haqida, Iuda Makkaveya, Arlekino'ning 36 baxtsizligi haqidagi hikoyalarni aytishga tushib ketardi. Onaxon ularni yaxshi ko'rib qolgandi. Ularning xo'mraygan ko'zlariga tikilib qarab, ulg'ayishning bilinar-bilinmas alomatlarini kuzatar ekan, atrofini o'rab turgan hayotdagi

<sup>1</sup> *Arlekino* — o'rta asr asarlaridagi saroy fitna va sarguzashtlar rivojida ishtirok etuvchi an'anaviy qahramon. (*tarj.*)

irkit va loqaydlar safi kengayayotganini o'zi ham bir necha bor sezgandi.

Egizaklar ibodatxonada rohibalarning e'tiborini tortib, xayolini bo'lmaydigan davrlarigacha o'sib-ulg'ayishdi. Biroz payt ular ibodatxona tashqarisida: shahardagi diniy marosimlarda qatnashish, ibodatxona atrofidagi buta devorlarga qaychilab shakl solish, mehrobni ta'mirlash, ibodatxona shiftlarini yilda bir marta ho'l latta bilan artib chiqish kabi yumushlarni bajarib yurishdi. Limaliklar ularni yaxshi tanishardi, rohiblardan birontasi muborak ehson bilan bemor yo'qlagani ketayotgan bo'lsa, orqaroqda ashqol-dashqollarni sudrab, Manuel yoki Esteban ham kelayotgan bo'lardi. Biroq ulg'ayib voyaga yetgach, ular o'z hayotlarini cherkov bilan bog'lashni istashmadi. Borib-borib ular xattotlik hunarini egallashdi. Butun boshli Yangi Olam dunyosida bor-yo'g'i bir necha dona bosmaxona uskunalari bor edi. Bolakaylar teatr uchun komediya matnlari nusxasini ko'chirib berish, tomashabinlar uchun ertaklar-u afsonalar, savdogarlar uchun e'lonlar yozib berish bilan pul ishlab topa boshlashdi. Hammadan ham xor jamoasi uchun Morales va Vittorio'larning motetalaridan<sup>2</sup> sonsiz nusxalar ko'paytirib berishlari ularga ko'proq daromad keltirardi.

Ular oilasiz o'sgani, egizak bo'lgani va nihoyat, ularni ayol kishi tarbiyalagani sabab juda kamgap edilar. Ikki tomchi suvdek o'xshashliklaridan uyalishar, o'zlari yashayotgan muhit uchun bu narsa o'ziga xos kulgiga sabab bo'lardi. Bir-biriga o'xshashning hech qanday kulgili joyi yo'qligini tushunishsa-da, odamlarning bunday munosabatlariga chidashlariga to'g'ri kelardi. Egizaklar

---

<sup>1</sup> *Morales Kristobal va Vittorio* – XIV asrlarda yashagan ispan kompozitorlari va kapellachilari. (tarj.)

<sup>2</sup> *Moteta* – ko'p ovozli musiqa janri. (tarj.)

tili chiqayotgan palladayoq o'zlarining sirli, na lug'aviy va na tuzilishi jihatidan ispanchaga o'xshamaydigan o'z tillarini ixtiro qilishdi. O'zlari xoli qolganda va kamdan kam hollardagina boshqa birovlar oldida pichirlab, bu tildan foydalanishardi. Limaning buzruk otasi tilshunos edi; u shevalarni solishtirib, ermak qilishni yoqtirar, hatto lotinchadan ispanchaga, ispanchadan ispancha-hindichaga tarjima qilinganda o'zgaradigan ega-kesimlar jadvalini ham tuzib chiqqandi. Unda tilning ajoyibot va g'aroyibotlari bilan to'ldirilgan bir necha yon daftarlari bor edi. O'zining qarilik davrini Segoviya yaqinida o'tkazishni niyat qilib, tillar bilan bog'liq mashg'ulotlarini esa qariganida o'ziga ermak qilishni o'ylardi. Shu tufayli egizaklarning sirli tili haqidagi gap qulog'iga chalindi-yu yozish uchun bir necha patni yo'nib tayyorlab qo'ydi va bolakaylarga odam yubordi.

Mana, ichidan ezilgan bolalar qimmatbaho gilamlar to'shalgan buzruk otaning xonasida turishibdi. Suhbatdoshlari egizaklardan ularning „noni“, „gullar“ini, ularning „ko'ryapsanmi“, „ko'ryapman“ so'zlarini tarjimasini sug'urgandek chiqarib olarkan, egizaklar bu suhbat nima uchun o'zlariga og'ir azob bo'layotganini tushunolmay qiynalishardi. Buzruk otaning har bir savolidan keyin uzoq jimlik hukm surar, shundan keyingina bolalardan bittasi to'ng'illab javob qaytarardi.

Oldiniga ruhoniy egizaklarning o'zlarini bunday tutishlariga sabab o'zining salobati-yu xonaning juda serhasham qilib bezatilgani ta'siri deb o'yladi. Nihoyat, ularning ichindagini top toifasidagi odamoviliklarining sababi u o'ylagandan chuqurroq ekanini angladi-da, xomush tortib ularni qo'yib yubordi.

Bu til egizaklarning bir tan-u bir jon ekanliklari ramzi edi, zero markiza de Montemayordagi Kluksambukva

shahri qahvaxonasida sodir bo'lgan ma'naviy o'sishni birgina itoatkorlik so'zi bilan ifodalab bo'lmaganidek, muhabbat so'zi bilan ham tortinchoq egizaklarning jipsligini tushuntirib bo'lmazdi. Bu qanday qondoshlik rishtasiki, bor-yo'g'i ikki og'iz so'z bilan suhbatlashilsa, bu ham taom, kiyim va ish haqida, xolos; ikki kishi bir-biriga g'ala-ti tarzda xushlamaygina qarab tursa; ikkalasi bir paytning o'zida odamlar ko'ziga ko'rinmaslik borasida so'zsiz kelishib olsa-yu, bir xil topshiriq bilan har biri boshqa-boshqa ko'chadan ketsa? Lekin shu bilan birga ular bir-biriga qattiq muhtojlik sezardi, bu shunday ulkan muhtojlik edi-ki, diqqinapas havodan chaqmoq kelib chiqqandek, u ham tabiiy ravishda mo'jizalar yaratardi go'yo. Egizaklarning o'zlari bu narsani uncha anglab yetmasdilar, lekin bir-birlarini uzoqdanoq savqi tabiiy ila his etish ular uchun oddiy hol edi. Mabodo ulardan biri uyga qaytayotgan bo'lsa, ikkinchisi buni bir necha chaqirim naridan bilardi.

Nima bo'ldi-yu, bir kuni ular xatbozlik qilish jonlariga tekkanini tushunib yetishdi. Hindilar bilan yonma-yon turib ishlashdan or qilmay, daryoga tushib hammollik qila boshlashdi. Qishloqlarda aravakashlik qilishdi, meva terishdi, daryoda sol haydab, tajriba orttirishdi. Lekin ular doim sukut saqlashardi. Jismoniy mehnat ularning xo'mraygan yuzlarida mardonalik alomati bilan birga lo'lilarga xos ko'rinish ham paydo qilgandi. Ular sochlarini kamdan kam oldirishar, quyuyq sochlar tagidan doim hayratga to'la o'qraygan ko'zlar tikilib turardi. O'zaro munosabatlaridan tashqari bu cheksiz olamdagi hamma narsa aka-ukalarga yot va shafqatsiz tuyulardi.

Nihoyat, ularning munosabatlariga ko'z tegdi – jipsliklari darz keta boshladi. Bunga ayol kishiga bo'lgan sevgi sababchi bo'lgandi.

Ular poytaxtga qaytib kelib, yana teatr uchun rol nusxa-



lari ko'chirib, xattotlik qila boshlashdi. Ana shunday ajoyib kechalarning birida teatr xo'jayini zal tomoshabinlarga to'lmasligini oldindan sezib, egizaklarni tekin tomoshaga taklif qildi. Aka-ukalarga tomosha yoqmasdi. Sahnadagi to'xtovsiz suhbatlarni, jon kuydirib tushuntirishlarni sabr bilan kuzatishdi. Aqlni zo'riqtiradigan she'riy tildagi so'zlar ular uchun tushunarsiz edi. Burch, mardlik, o'tashin muhabbat haqida eslatmalar, yana qushlar, Axilles<sup>1</sup> va qimmatbaho toshlar bilan bog'liq tashbehlar bularni bari ularni toliqtirib qo'ygandi. Adabiyot dunyosi goho it ko'zida yitillagan g'ira-shira zakovatni uyg'otardi; ammo ular tishlarini tishlariga qo'yib o'tirishar va bu yerdagi rang-barang kiyimlarni va charog'on shamlarnigina qiziqib tomosha qilishardi. Tanaffus payti Perikola vaqtincha o'z rolini qo'yib, kiyimini almashtirib chiqdi-da, sahna pardasi oldida raqs tusha boshladi. Nusxa ko'chirishi kerak bo'lgan ishlari tugamaganini bahona qilib, Esteban barvaqt ketdi. Manuel esa qoldi. Perikolaning kapron pappoqlari, tuflisi unga o'zgacha ta'sir etgandi.

Egizaklar qo'llarida qo'lyozmalari bilan chang bosgan sahna ortidagi zinadan necha bora tushib-chiqishgan. Bir gal ichki kiyimda ko'zgu oldida turib, shoshib pappog'ini tikayotgan qizga ko'zlari tushdi. Pyesadagi rolini yod oldirish uchun teatr sahnalashtiruvchisi unga ovoz chiqarib matnni o'qirdi. Avvaliga bolakaylarni ko'rib Perikolaning shahlo ko'zlari g'azabdan yondi, biroq ularni egizaklar ekanini tanib, quvnab ketdi. Ularni darhol o'z xonasiga sudrab kirib, o'zi bilan yonma-yon qo'ydi. So'ng egizaklarning yuziga diqqat bilan tikilib, kula-kula ularni yuzini o'rganib chiqarkan, qo'lini Estebanning yelkasiga qo'yib: „Bu kichkinasi!“ – dedi. Bu voqea bir

<sup>1</sup> *Axilles* – Yunon afsonalaridagi Troya urushining qahramoni. (*tarj.*)

necha yil oldin bo'lib o'tgandi, aka-ukalar buni eslaridan chiqarib yuborishgandi. Lekin o'shandan beri Manuelning yo'li har doim teatr binosi oldidan tushadigan bo'lib qolgan edi. U yarim kechalari ham xonimchaning kiyinish xonasi derazasi tagida – daraxtlar orasida aylanib yurardi. Bu Manuelning birinchi marta ayol kishini yoqtirib qolishi emas edi (ikkala aka-uka avval ham ayollar bilan yaqin aloqada bo'lishgan, ayniqsa, portda ishlagan paytlari bu munosabatlar haqiqiy lotin amerikaliklarga xos tarzda sodir bo'lgandi), ammo chin yurakdan, bor vujudi ila muhtalolikni endi his qilishi edi. Oddiy kishilarga xos bo'lgan sevish va lazzatlanishni ayri ko'rish xususiyatidan mahrum bo'lgandi. Lazzatlanish uning uchun taom yeyish kabi oddiy narsa bo'lmay qolgandi, balki sevgi tufayli murakkab tuyg'uga aylangandi. Manuel faqat sevgilisi haqidagi g'amgin o'ylardan tashqari, barcha narsadan voz kechgudek darajada ahmoqona tarzda o'zini yo'qotib boshlagandi. O't-olov bo'lib borayotgan uning ichki dunyosi va butun fikri-zikri Perikolaga qaratilgan bo'lib agar xonimchaning o'zi bu haqda bilib qolsa bormi, qattiq darg'azab bo'lgan bo'lardi. Manuel adabiyotga taqlidan sevish qolgani yo'q edi. Shuning uchun ham Fransiyaning eng tili o'tkir odamlaridan biri Fransua de Laroshfukoning, oshiqlar sevgi haqidagi gaplarni ko'p tinglamaganlarida hech qachon sevish qolishmasdi, degan so'zlarining ayniqsa Manuelga dahli yo'q edi. Manuel juda kam kitob o'qirdi, teatrda ham bor-yo'g'i bir marta bo'lgan (go'yoki sevgi bu vafo degan afsona ham, asosan, mana shu yerda hukmrondek). Qovoqxonalaridagi perulik ashulachilarning qo'shiqlarida esa ispaniyaliklarnikidan farqli o'laroq, ayollar go'zalligini madh etish, uni ulug'lash kuchli emas, romantikaga moyillik ham yo'q edi.

Sevgilisining go'zalligi, boyligi, g'oyat hozirjavobli-

gi va qirol noibi janoblarning jazmani ekanini Manuel o'zicha takror-takror o'ylar, o'zining unga teng emasligi yaqqol ko'rinib turganiga qaramay, vujudini qamrab olgan yoqimli iliq va notanish tuyg'ulardan voz kecha olmasdi. Mana, u qorong'i kechada daraxtga suyanib, suyaklari bo'rtiq barmoqlarini tishlagan cha yuragining tepishiga qu-loq tutardi.

Esteban uchun o'zining hayoti to'kis edi. Bu uning yuragi Manuelnikidan kichkinaroq ekanligidan emas, shunchaki uning yurak to'qimalari oddiyroq edi. Endi u o'zi uchun haqiqatni topganday bo'ldi, buni eshitganlar dong qotib qolishi turgan gap: eng mukammal sevgida ham bittasi ikkinchisidan ko'proq sevadi. Ikkalasi ham birdek mehribon, birdek to'kis, birdek chiroyli bo'lishi mumkin, lekin hech qachon ikki inson bir-birini birdek kuchli seva olmaydi. Mana, Esteban xonada erib ketgan sham oldida o'tirar ekan, barmoqlarining bo'rtib chiqqan suyaklarini tishlab: „Nima sababdan Manuel bunchalik o'zgarib qoldi, nima sababdan hayotimizda hech qanday ma'no qolmadi?“ – deb o'ziga o'zi savol berardi.

Bir kuni kechki payt ko'chada bir bolakay Manuelni to'xtatdi-da, uni Perikola zudlik bilan huzuriga chorlayotganini aytdi. Manuel ketayotgan yo'lidan qaytib, teatrga yo'l oldi. G'o'daygan, xo'mraygan, his-hayajondan asar ham ko'rinmaydigan turqi bilan u aktrisaning xonasiga kirib keldi va sukut saqlab turdi. Kamila undan bir narsani iltimos qilmoqchi edi. U oldidagi stolda turgan yasama oq sochni tarashdan to'xtamay, avval uni o'ziga rom etish uchun noz bilan dedi:

– Sen odamlarga xatlarini yozib berasan-a, to'g'rimi? Sendan iltimos, menga ham xat yozib ber. Qani, yaqinroq kel!

Manuel oldinga ikki qadam tashladi.

– Ikkala aka-uka hech meni yo‘qlamaysiz. Bu umuman ispaniyaliklarga xos bo‘lmagan narsa (u bu hurmat-sizlik ekanini nazarda tutdi). Sen kimsan? Manuelmi yoki Estebanmi?

– Manuel.

– Farqi yo‘q. Ikkalangiz ham menga nisbatan befarqsizlar. Hech meni yo‘qlamaysizlar. Men kun bo‘yi bu yerga qamalib olib, ahmoqona she‘rlar yodlash bilan bandman, xonamga esa xizmatkorlardan boshqa hech kim qadam bosmaydi. Bunga sabab mening aktrisa ekanim to‘g‘rimi?

Gapning kirish qismi nazokati bilan ajralib turmasa-da, Manuel uchun bularning bari g‘oyat murakkab ko‘rindi. U uzun sochlari tagidan ro‘parasidagi xonimchaga tikilib turar ekan, unga o‘z ijrosini nihoyasiga yetkazishiga xalaqit bermadi.

– Men senga ishongandim, shuning uchun menga maxfiy xat yozib bersang degandim. Lekin endi ko‘ryapmanki, sen meni umuman sevmas ekansan, bunday iltimos bilan senga murojaat qilishim, bu xatni har bir qovoqxonada ovoz chiqarib o‘qib berishni so‘rash bilan barobar ekan. Sening bu nigohing nimani anglatishi mumkin, Manuel? Sen menga do‘stmisan?

– Ha, senora.

– Jo‘na. Oldimga Estebanni yubor. Sen hatto „Ha, senora“ so‘zini ham do‘stga o‘xshab aytmayapsan.

Oraga jimlik cho‘kdi. Nihoyat, aktrisa boshini ko‘tardi.

– Sen hali ham shu yerdamisan, tarbiyasiz?

– Ha, senora... menga har qanday ishni ishonishingiz mumkin, menga ishonishingiz mumkin...

– Agar men sendan bitta xat yozib berishni iltimos qil-sam, yo‘q, ikkita xat yozib berishni so‘rasam, u yerda nima haqda yozilganini yoki umuman, xat yozganing to‘g‘risida hech kimga aytmalikka so‘z berasanmi?



– Ha, senora.

– Nima bilan qasam ichasan? Bibi Maryam nomi bilanmi?

– Ha, senora.

– Muqaddas Rosa Limskiy yuragi bilan hammi?

– Ha, senora.

– Barcha avliyolar haqi, Manuel, sening ho‘kizdan farqing yo‘q ekan. Manuel, sendan ko‘nglim qoldi. Sen, aslida, ahmoq emassan. Sen, umuman, ahmoqqa o‘xshamaysan. Iltimos, „Ha, senora“ deb ta‘kidlayverishni bas qil. O‘zingni ahmoqona tutishni bas qil, bo‘lmasa Estebanga odam yuboraman. Senga nima bo‘lgan o‘zi?

Birdan Manuel haqiqiy ispaniyaliklarga xos qizishib ketdi:

– Bibi Maryam va avliyo Rosa Limskiy yuragi bilan qasam ichaman – maktubga aloqador hamma narsani maxfiy tutaman.

– Hatto Estebandan ham, – eslatdi Perikola.

– Hatto Estebandan ham.

– Allaqachon shunday deyish kerak edi, – dedi u imo bilan xat yozishga barcha narsalar taxt qilib qo‘yilgan stolni ko‘rsatib. Xatni aytib turib yozdirar ekan, o‘zi qoshini chimirgancha sollarib xonada u yoqdan bu yoqqa borib kela boshladi. So‘ng stolga tiranib, g‘alati bir harakat bilan yelkasiga shalini tortdi.

„Kamila Perikola qirol noibi janoblarining qo‘lidan o‘pib deydi...“ Yo‘q, boshqa varaq ol-da, hammasini boshqatdan boshla. – „Aktrisa senora Mikayela Vilegas, siz qirol noibi janoblarining qo‘lini o‘pib shuni ma‘lum qiladiki, hasadgo‘y va yolg‘onchi do‘stlarning qurboni bo‘lgani holda, ular sizning bag‘oyat mehriftonligingizdan foydalanishyapti, men endi sizning shubhalingiz va rashklaringizga boshqa toqat qila olmayman. Janobi oliylari, xizmat-

koringiz siz bilan do'stligimizni doim baland qadrlagan, hatto bu do'stligimizga nomunosib xatti-harakat qilish xayolimga kelmagan. Lekin mana bu bo'lmag'ur, siz ishonib yurgan g'iybatlar dastidan adoyi tamom bo'ldim. Shuning uchun, Perikola deb ataluvchi aktrisa senora Vilegas, ushbu maktub bilan birga siz qirol noibi janoblarining ehsonlarini ham qaytarib berishga qaror qildim. O'rtada ishonch yo'qligi tufayli qirol noibi janoblarining bu in'omlari ham tatimaydi kishiga“.

Bir necha daqiqa Kamila o'z xayoli bilan band bo'lib, xonada borib-kelishda davom etdi. Nihoyat, kotibiga qiyo ham boqmay buyurdi:

– Boshqa varaq ol. „Esingni yeb qo'ydingmi? Yana bir bor buqalar jangini menga bag'ishlashni o'ylay ko'rma! Uning dastidan bizda katta janjal ketyapti. Samolarning o'zi seni asrasin, toychog'im. Juma kuni kechasi, o'sha joyda va o'sha paytda. Men biroz kech qolishim mumkin, chunki tulki hali mudramayapti!“ Bo'ldi.

Manuel o'rnidan turdi.

– Hech qanday xato qilmaganing haqida qasam ichasanmi?

– Ha, qasam ichaman.

– Mana sening haqing.

Manuel haqini oldi.

– Vaqti-vaqti bilan menga xat yozib berib turishing kerak bo'ladi. Odatda, mening xatlarimni Pio amakim yozib berardi; lekin men uning bu haqda bilishini istamayman. Xayrli tun. Xudo yor bo'lsin.

– Xudo yor bo'lsin.

Manuel zinadan pastga tushib, hech narsa haqida o'ylagisi ham kelmay, daraxtlar tagida uzoq turdi.

Esteban akasining fikr-u zikri faqat Perikolada ekani ni bilardi, lekin ularning uchrashishlarini xayoliga ham

keltirmasdi. Mana, ikki oydan oshdiki, uning oldiga bir bolakay yugurib kelib, uning kimligini surishtirar, uning Esteban ekanini bilgach, Manuelni teatrga chaqirishyapti, derdi. Esteban akasini teatrga xat yozgani chaqirishayotgan bo'lsa kerak deb o'ylardi, shuning uchun ham kechki mehmonning uylarida to'satdan paydo bo'lishi uning uchun kutilmagan hodisa bo'ldi.

Tun yarimlab qolgan edi. Esteban to'shakda yotar ekan, ko'rpasi tagidan ishlab o'tirgan akasining oldidagi shamga tikilardi. Kimdir eshikni sekin taqillatdi. Manuel borib eshikni ochgan edi, yuziga qalin to'r tashlagan harsillab betoqat bo'layotgan xonimcha ichkariga kirib keldi. U shartta sharfini oldi-da, besabrlilik bilan dedi:

– Tez bo'l, siyoh va qog'oz ol. Sen – Manuelsan-a? Menga xat yozib berishing kerak, hoziroq.

Birdan ko'zi karavotning boshi tomonidan unga jahl bilan qarab turgan ko'zlarga tushdi-da, ming'illadi:

– E... sen meni afv et. Bilaman, vaqt allamahol bo'lib qoldi. Lekin menga juda zarur. Keyinga surib bo'lmaydi. – So'ng, Manuel tomonga o'girilib, uning qulog'iga pichirladi: – Yoz: „Men, Perikola, uchrashuvlarda kutishga odatlanmaganman“. Oxirigacha yozdingmi? „Sen faqat bor-yo'g'i cholo<sup>1</sup>, sendan ham yaxshi matadorlar bor, hatto Limada ham. Mening tomirlarimda oqayotgan qonning yarmi kastiliyaliklarniki, bu olamda mendan zo'r aktrisa yo'q. Senda endi boshqa imkoniyat bo'lmaydi“, – ulgurypsanmi? – Meni kuttirib qo'yishsa-ya, cholo, men albatta oxirgi bo'lib kulaman, chunki hatto aktrisa ham to-rerodek tez qarimaydi“.

Qorong'i burchakdan turib ularni kuzatayotgan Esteban, Kamilani akasining qo'li uzra egilib qulog'iga

<sup>1</sup> Cholo → metis. (Isp.)

pichirlayotganiga guvoh bo'lgandan keyin, unga hech qachon nasib etmaydigan jipslik yuzaga kelganiga uzil-kesil amin bo'ldi. U go'yo bu bo'shliqda yolg'izlanib, tanho o'zi qolgandek edi, o'zini keraksizdek his etdi. Sevgi sahnasiga oxirgi bor nazar tashladi-da, so'ng devor tomon o'girilib oldi, endi bu jannat eshigi uning uchun yopilgan edi.

Kamila yozilgan xatni yulqib oldi-da, stolga tanga uloqtirdi, to'rli kiyimlarini to'lqinlantirib, taqinchoqlarini shildiratib o'zicha nimalarnidir pichirlaganicha, shoshib chiqib ketdi. Manuel qo'lida sham bilan qaytib kelib, cho'k tushdi, kaftlari bilan quloqlarini siqdi. U telbalaricha sevib qolgandi. Qayta-qayta o'ziga o'zi uni qanchalik sevishini pichirlar, xuddi zikr aytayotgandek, boshqa fikrlarga umuman yo'l bergisi kelmasdi.

U miyasidagi barcha fikrlarni uloqtirib, faqat qalbidagi sevgi nolasiga quloq tutarkan, hosil bo'lgan bo'shliq Estebanning ichki holatini his qilishga imkon berdi. U bami-soli qorong'ilik ichidan kelayotgan ovozni eshitganday bo'ldi: "Uning izidan bor, Manuel".

Bu yerda turma. Sen baxtli bo'lasan. Hammamiz uchun ham bu dunyoda joy yetarli". So'ng uning ichki sezgisi yanada kuchayib borarkan, ko'ziga ukasining qayerlargadir uzoq-uzoqlarga ketib borayotgani va qaytaqayta unga „Alvido“ degani ko'rinib ketdi. Birdaniga Manuelni dahshat chulg'ab oldi, bu dahshatning yog'dusida hayotdagi barcha rishtalar shunchaki bir soyadek yoki isitma ta'sirida ko'zga ko'rinadigan ro'yodek tuyuldi, bundan na murabbiya Mariya del Pilar, hatto Perikola ham mustasno emasligini anglab yetdi. Manuel nima uchun ukasining iztiroblari ukasi bilan Perikola o'rtasida ikki yo'ldan birini tanlashga majbur qilishini tushunib yetmasdi, lekin ukasining iztirob chekayotganini tushunardi. U shu zahotiyuq ukasi uchun hammasini



qurbon qildi – umuman olganda biz nimanidir qurbon qilishga qodir bo'lsak, yetib bo'lmas narsalardan voz kechish qo'limizdan kelsa, qalbimiz aytganday, malol kelayotgan ortiqcha tashvishlardan xalos bo'lgan bo'lardik. Tabiiyki, Estebanning shikoyat uchun hech qanday asosi yo'q edi. U rashk qilishni bilmasdi. Ularning oldingi sarguzashtlarida bir-biriga bo'lgan sodiqliklariga putur yetayotgani haqidagi fikr xayoliga ham kelmagandi. Shunchaki ulardan birining qalbida shoirona nozik hissiyot paydo bo'lgan bo'lsa, ikkinchisida bu narsalar yo'q edi. Manuel bularni oxirigacha tushunib yetmasdi. O'zining aybsiz aybdor bo'lib qolayotganini sezsa-da, Estebanning ham iztirob chekayotganini tushunardi. Tahlikali holatda u uzoqlashib borayotgan ukasini ushlab qolish uchun biror chora qidirdi. Shunda bor iroda kuchini ishga solib, nima bo'lsa bo'lar dedi-da, qalbini tubidan Perikolani sug'urib tashladi.

U shamni puflab o'chirdi-da, o'miga yotdi. Vujudni titroq bosdi. O'zini zo'r-bazo'r beparvodek tutib dedi „Yetar, men bu ayol uchun boshqa hech narsa yozmayma Kerak bo'lsa, o'ziga boshqa qo'shmachini izlab topsin. Mabodo u yana kelsa yoki odam yuborsa, men bo'lmagan taqdirimda ham mana shu gapni ayt. Xuddi shunday deb ayt. Men u bilan umuman aloqa qilishni istamayman.“ – U kechki ibodatga berildi. Duoning endi „Kunduz kuni otiladigan kamon o'qlari“ ga yetganda Estebanning o'rnidan turib, sham yoqayotganini ko'rdi.

– Nima gap? – so'radi u.

– Sayr qilib kelmoqchiman, – dedi qovog'ini uyib Esteban, kamarini taqarkan. Keyin jahli chiqqandek qo'shib qo'ydi: – Bularni gapirishning keragi yo'q edi... hozir aytganlaringni... uning xatlarini yozasanmi yoki yo'qmi, men uchun farqi yo'q. Meni deb hech narsani o'zgartirishning keragi yo'q. Bu narsalar bilan mening nima ishim bor?

– Yotib uxlasang-chi, ahmoq! Xudo haqqi, Esteban, g'irt ahmoqsan! Bularni go'yo seni deb gapirayotganini qayerdan olding? U bilan munosabatlarimizga chek qo'ydim desam ishonmasang kerak. Yana uning iflos xatlarini yozgisi, shu bilan uning pullarini olgisi kelyapti, deb o'ylayapsanmi?

– Hammasi to'g'ri. Sen uni sevasan. Meni deb hech nimaning o'zgartirishining keragi yo'q.

– Sevaman? Esingni yeb qo'yibsan, Esteban. Men qanday qilib uni sevishim mumkin? Bu sevgidan nima baraka topardim? Agar baraka topadigan bo'lganimda, u menga bu xatlarni yozdirarmidi, xo'sh? Tushunyapsanmi o'zi? Har gal shunaqa chaqalarini otib ketarmidi? Sen esingni yeb qo'yibsan, Esteban, boshqa gap yo'q.

Oraga uzoq jimlik cho'kdi. Esteban yotishni o'ylamasdi. U xona o'rtasida sham yorug'ida o'tirarkan, barmoqlari bilan stolni chertardi.

– Yota qolsang-chi, tentak! – qichqirdi Manuel, tirsagida ko'tarilib. U o'zlarining sirli tilida gapirar, yuragidagi noma'lum og'riqdan esa uning yasama jahli ham ishonchli chiqayotgandi. – Mendan xavotir olma!

– Yotgim yo'q. Aylanib kelaman, – dedi Esteban yomg'irpo'shini olib.

– Qayerga borasan? Soat tungi ikki. Yomg'ir yo g'yapti. Shunday havoda aylanib bo'larkanmi? Menga qara, Esteban, qasam ichib aytamanki, hammasi tugadi. Men uni sevmayman. Ha, ilgari sevardim.

Esteban qorong'i yo'lakka chiqib bo'lgandi. Hayotdagi eng muhim yangilikni e'lon qiladigan tabiiy bo'lmagan ovozda to'ng'illab dedi:

– Men sening yo'lingga to'g'anoq bo'ldim. – Keyin shart burilib yo'lga tushdi.

Manuel yotgan joyidan sakrab turdi. Uning miyasi g'u-

vullar, qandaydir ovoz, Esteban ketib qolyapti, seni tashlab ketyapti, deganday bo'laverdi.

– Xudo haqqi, Xudo haqqi, Esteban, qayt!

Esteban qaytib kelib o'rniga yotdi va ular boshqa bu mavzuda bir necha oygacha gaplashmadilar. Bu voqeaning ertasi kuni kechqurun Manuelga qarorining qat'iyiligini tasdiqlash uchun imkoniyat tug'ildi. Perikola yuborgan yugurdak bolaga Manuel bundan buyon aktrisa uchun xat yozmasligini aytdi.

Bir kuni kechqurun Manuel tizzasini o'tkir temirga urib, yorib oldi. Ikkala aka-uka ham butun hayotlari davomida biron marta kasal bo'lmagandi. Mana endi Manuel shishib borayotgan oyog'iga angrayib qarab turar ekan, og'riq a'zoyi badaniga tarqalayotganini sezdi. Esteban akasining oldida o'tirib, uning yuziga tikilib qarar ekan, og'riqdan akasining qanchalik azob chekayotganini his qilib turardi. Yarim kechasi Manuel shahardagi sartarosh va tish shifokori o'zini tajribali sartarosh va jarroh sifatida xizmatlarini taklif etgan e'loni esiga tushdi. Esteban o'shani izlab ketdi. Uyini topib, eshigini rosa taqqillatdi. Oxiri derazadan bir ayol mo'ralab, eri faqat ertalabga yaqin kelishini aytdi. Qo'rqinchli kутish soatlarida ular bir-birlariga shifokor kelsa hammasi joyida bo'ladi, u oyoqni ko'rib biron nima qiladi-da keyin, ikki-uch kunda yoki bir kundan keyin Manuel hech narsa ko'rmagandek bo'lib ketadi deb bir-biriga tasalli berib o'tirdi.

Shifokor kelib har xil damlama va surtma dorilar yozib berdi. Estebanga har soatda akasining oyog'iga muzdek ho'l latta bosib turishni tayinladi. Shifokor ketdi. Aka-ukalar og'riq bosilishini kuta boshlashdi. Bir-biriga tikilib o'tirisharkan, mo'jiza o'rniga og'riq badtar kuchaydi. Esteban qayta-qayta akasining oldiga ho'l sochiq ko'tarib

kelardi: eng qo'rqinchli joyi bu ho'l sochiqni bosish edi. Har qancha chidamliligiga qaramay, Manuel baqirib yubor-rar, o'zini har yoqqa ura boshlar edi. Kech tushdi, Esteban esa bir maromda ishini qilaverdi. To'qqiz, o'n, o'n bir. Har gal sochiqni almashtirish paytida (vaqt ham qo'ng'iroqlarini chalib tez o'tib borardi). Manuel Estebandan bunday qilmasligini o'tinib so'rar edi. U og'riq yo'q deb aldasha ham harakat qildi. Ammo Esteban yuragiga tosh bosib, yig'lab yuborishdan o'zini zo'rg'a tiyib, ko'rpani shartta ko'tarib tashlardi-da, hafsala bilan ho'l sochiqni yarador oyoqqa o'rardi. Bora-bora Manuel hushdan keta boshladi. Muzdek lattani bosgan payti og'riqning zo'ridan alahsirar, boshqa paytlari og'zidan chiqmagan gaplar bilan so'kinardi. Kechasi soat ikkilarda azbaroyi qiynalganidan ustidagi ko'rpani jahl bilan otib yubordi-da, o'zini polga tashlab, baqira ketdi:

– Iloyo, u dunyoda joying do'zaxdan bo'lsin. Shaytonlar joningni sug'urib olsin, Esteban! Eshityapsanmi? Bir umr qarg'ishdan boshing chiqmasin!

Esteban o'zini yo'qotib qo'ydi; dahlizga chiqib, ko'zlarini va og'zini katta ochgancha eshikka tikilib serrayib turib qoldi. Ichkaridan esa qarg'ish va la'natlar paydar-pay yog'ilardi:

– Ha, Esteban, toshday yuragingni bir umrga qarg'ish ursin, eshityapsanmi? Bizning oramizga to'g'anoq bo'lganing uchun! Meniki edi u, eshityapsanmi? U meniki edi, sening nima haqing bor edi... – alahsirashlar orasida Manuel Perikolaning barcha sifatlarini ta'riflay ketdi.

Alahsirashlar har soatda takrorlanaverdi. Bunday paytda akasining hushi joyida bo'lmasligini Esteban hadeganda tushunib yetmadi. Avvaliga dovdirab nima qilishini bilmay qoldi-da, diniy tarbiyasi kuchlilik qilib, ichidan kechirar,



qaytib kelib yana o'z vazifasini sidqidildan ado etishga kirishardi.

Tongga yaqin akasi tinchlandi. (Insonning qaysi dardini tong oz bo'lsa ham yengillatmagan.) Ana shunday xotirjam paytlardan birida bemor Estebanga dedi:

– Iso haqqi! Sal yengil tortdim, Esteban. Bu ho'l lat-talarning nafi tegyapti har qalay. Ko'rasan, men ertaga oyoqqa turib ketaman. Necha kundan beri uxlamayapsan! Ko'rasan, endi men seni tashvishga qo'yamayman, Esteban.

– Qanaqa tashvish, ahmoq.

– Muzdek sochiq qo'yma deb urishganimda, mendan xafa bo'lma.

Oraga uzoq jimlik cho'kdi. Nihoyat, Esteban bazo'r eshitiladigan qilib dedi:

– Mening fikrimcha... nima deb o'ylaysan, ehtimol, Perikolani chaqirsakmikan? U birpasga oldingga kelib-ket-sa... Aytmoqchi edimki...

– Perikolani? Sen hali ham o'shani o'ylayapsanmi? Uni ko'rgani ko'zim yo'q. Yo'q! Zinhor!

Lekin Esteban akasining bu gapiga ishonmadi. Yura-gidan chiqarib, u yana gap qotdi:

– Manuel, senga shunday tuyulyapti. To'g'rimi? Men sizlarning orangizga to'g'anoq bo'lib turibman. Balki, ayt-gan gaplarim esingda yo'qdir: mendan tashvishlanma. Qa-sam ichib aytaman, agar sen u bilan ketsang, men faqat xursand bo'lardim...

– Sen yana eski gapni qo'zg'ayapsanmi Esteban? Ayt-yapman-ku senga, Xudo haqqi, men uni umuman o'ylayot-ganim yo'q. Men uchun endi u yo'q. Sen buni qachon esing-dan chiqarasan, Esteban? Senga qancha gapirish mumkin, hammasi qanday bo'lsa shundayligicha qolganidan xur-sandman. Menga qara, agar sen doim shuni gapiraversang, jahlim chiqishi mumkin.

– Manuel, men buni gapirmasdim, lekin sochiqni ho‘l-lab bosganimda, jahling chiqib, sen shu to‘g‘rida gapirding, sen...

– Tushunsang-chi, nima deyayotganimni o‘zim bilmasam. Oyog‘imning ahvolini ko‘rib turibsan-ku...

– Demak, sen menga uni deb la‘nat o‘qiyotganing yo‘q ekan-da... go‘yoki men sen bilan Perikolaning orasiga to‘lg‘anoq bo‘lganday?

– La‘nat o‘qidim... senga? Nega bunday deyapsan? Esingni yedingni, Esteban? yoki hushing joyida emasmi? Esteban, qachondan beri uxlamayapsan. Men seni qiynab yubordim, meni deb sog‘lig‘ingdan ajralyapsan. Mana ko‘rasan, endi senga boshqa tashvish keltirmayman. Qanday jilib seni la‘natlashim mumkin? Esteban, mening sendan boshqa hech kimim bo‘lmasa? Tushunyapsanmi gap nima-da, muzdek sochiq tegishi bilan o‘zimni butunlay yo‘qotib qo‘yaman. O‘ylasang-chi! E‘tibor berma. Sochiqni almashtirish payti bo‘ldi. Churq etib og‘iz ochmayman.

– Yo‘q, Manuel, bu galgisini o‘tkazib yuboraman. Buning ziyoni yo‘q, bir gal o‘tkazib yuborganim bo‘lsin.

– Men tuzalishim kerak. Tezroq oyoqqa turishim kerak. Qo‘yaver. Faqat bir daqiqa to‘xtab tur, menga xochni ber. Iso haqqi, uning joni va tani bilan qasam ichaman, Estebanga qarshi biron narsa desam, u mening gapim emas, bu shunchaki og‘riqning zo‘ridan alahsirab aytilgan ahmoqona so‘zlar. Tangrim, tezroq dardimga shifo ber, ovmin. Kel, sochiqni bosaver! Mana! Men tayyorman!

– Quloq sol, Manuel, ziyoni tegmaydi bir marta o‘tkazib yuborilsa. Qaytanga ortiqcha harakat qilmay tinch yotsang, senga yaxshiroq bo‘ladi.

– Yo‘q, men tuzalishim kerak. Shifokor aytdi, shunday qilish kerak deb. Men bir og‘iz ham so‘z aytmayman, Esteban.

Shundan yana hammasi boshidan boshlandi.

Keyingi tunda qo'shni xonadagi fohisha ayol, eshitilgan qo'pol so'zlarni o'ziga olib, devorni ura boshladi. Ro'paradagi xonada istiqomat qiluvchi ruhoniylar kelib esa eshikni taqillatdi. Yaqin atrofda turadiganlarning hammalari baqir-chaqirdan bezor bo'lib, ularning xonasi oldiga kelib to'plandi. Uy egasi zinadan sekin chiqib keldi-da, barcha ijarachilar eshitadigan qilib, baland ovozda tong oti-shi bilan aka-ukalarni ko'chaga haydashga so'z berdi. Esteban qo'lida sham bilan yo'lakka chiqar va qo'shnilarning og'izlaridan chiqayotgan nafrat o'qlariga ko'ksini qalqon qilardi; shundan keyin u eng og'ir daqiqalarda akasining og'zini kafti bilan bekitadigan bo'ldi. Manuel esa battar unga la'nat yog'dirar va tuni bilan alahsirab chiqardi.

Uchinchi tunda Esteban ruhoniylarga odam yubordi, ruhoniylar oldida bir amallab cho'qindi-da, Manuel jon berdi.

Shu soatdan boshlab Esteban uyga yaqin borishga yuragi betlamay yurdi. U uzoqlarga ketib qolar, so'ngra yana ortiga qaytib kelib, daraxtga suyangan ko'yi, akasi yotgan yerdan ancha uzoqdagi yo'lovchilarni kuzatardi. Uy egasi undan biron natija chiqmasligini tushunib, egizaklarning Santa Mariya-Rosa de las Rosas cherkovida tarbiyalangani esiga tushdi-da, u yerga odam yubordi.

Murabbiya birpasda barcha ishlar bo'yicha qat'iy va aniq ko'rsatmalar berdi, so'ng uydan chiqib, burchakda turgan Esteban bilan gaplashishga qaror qildi. Esteban murabbiyani nigohi bilan kuzatar ekan, qalbida unga nisbatan moyillik bilan birga ishonchsizlik kurashi borardi. Murabbiya yaqin kelganida esa u bir yonga o'girilib, chetga qaray boshladi.

– Menga yordam bersang bo'lardi. Akang bilan vido-lashgani uyga kirib-chiqmaysanmi? Men bilan birga borib, qarashib yubormaysanmi?

– Yo'q.

– Menga yordam berishni istamaysanmi?

Uzoq jimlik cho‘kdi. Nima chora ko‘rarini bilmay turgan murabbiyaning esiga bundan ancha yil oldingi voqea tushdi: egizaklar o‘n besh yoshlar atrofida, uning poyida o‘tirishar va u bolalarga Golgaf<sup>1</sup> haqida hikoya aytardi. Ular katta va jiddiy ko‘zlarini uning og‘zidan uzishmasdi. Qo‘qqisdan Manuel baland ovozda: „Agar biz Esteban bilan o‘sha yerda bo‘lganimizda, bunga yo‘l qo‘ymasdik“, – dedi.

– Mayli, menga yordam berishni istamas ekansan, hech bo‘lmasa kimligingni aytarsan, ayt, kimsan?

– Manuel, – dedi Esteban.

– Manuel, bu yoqqa yur, men bilan ozgina o‘tir.

Uzoq jimlikdan so‘ng qisqa javob eshitildi:

– Yo‘q.

– Axir, Manuel, azizim Manuel, nahotki esingdan chiqqan bo‘lsa, kichkinaligingizda, yoshgina bola paytlaringizda men uchun qancha ishlar qilgansizlar? Arzimagan yumushni deb shaharning u boshidan bu boshiga erinmay borib kelar edinglar. Men kasal bo‘lib yotib qolganimda-chi, oshpazimizdan ovqatni o‘z qo‘llaringiz bilan keltirib berish uchun ruxsat so‘ragansizlar (Boshqa ayol bo‘lganda „Esingdami, men sizlar uchun qancha ishlar qilgandim“, degan bo‘lardi).

– Ha.

– Menda ham, Manuel, yo‘qotish bo‘lgan. Menda ham... qachonlardir. Lekin Tangri uni rahmatiga olgan bo‘lsin deb sabr qilamiz...

Lekin bu gaplarning nafi bo‘lmadi. Esteban parishon holda o‘girildi-da, keta boshladi. Chamasi, yigirma qadamlar yurib muyulishga yetganda to‘xtadi, xuddi qochib

---

<sup>1</sup> *Golgaf* – Iso payg‘ambarning xochga tortilgan joyi (Quddusi Sharifning shimoli-g‘arbidagi bosh chanog‘ini eslatuvchi tepalik. (*tarj.*)



ketmoqchi bo'lyapti-yu, lekin orqasidan chaqirayotgan egasini xafa qilib qo'yishdan qo'rqayotgan laychadek qarab qo'ydi.

Undan ortiq hech qanday javob olib bo'lmadi. Shahar bo'ylab dafn marosimi payti qora kiyganlar, kunduz kuni bo'lishiga qaramay, yoqilgan shamlar, ko'zga yoqimsiz ko'rinib turgan bosh chanoqlari va dafn marosimida aytilyotgan psalma'lar – bari dahshatli manzara paydo qilardi. Esteban yonma-yon ko'chadan ketib borarkan, barini xuddi yovvoyi odamdek uzoqdan kuzatib turdi.

Egizaklardagi judolik bironta ham Limalikni befarq qoldirmadi. Bekalar ayvonga gilamlarini yoyishar ekan, bu haqda rahmlari kelib pichirlashar, erkaklar esa qovoqxonalarda shundan gap ochilib qolsa, boshlarini chayqashar, tamakilarini ichlariga tortib, uzoq sukut saqlab qolishardi.

Dengizdan ancha uzoq joydan kelganlar Estebanning qurib qolgan daryo irmoqlarida yoki bo'lmasa qadimgi tashlandiq shahar xarobalarida yurgani, ko'zlari bir juft lahcha cho'g'day ekanini gapirishsa, cho'ponlar uni balanc tepalikda yulduzlar tagida qirovdan ho'l bo'lib ketgan, uyqusizlikdanmi, charchoqdanmi hushini yo'qotgudek ahvolda uchratishganini aytishardi. Baliqchilar og'zidan uning qirg'oqdan ancha uzoqlarga suzib ketgani haqidagi xabarlar ham eshilib qolardi. Goho u o'ziga ish topib, cho'ponlarga yordamchi bo'lib yollanar, qo'y-sigirlarni daradan daraga haydab o'tishlarida yordamlashar, so'ng yana bir necha oy ko'rinmay ketardi. Lekin u har gal yana Lima-ga qaytib kelardi. Bir marta u Perikolaning kiyinish xonasi oldida paydo bo'lib qolib, go'yo u bilan gaplashmoqchi bo'lganday, unga tikilib turdi-da, so'ng yana g'oyib bo'ldi.

<sup>1</sup> *Psalma* – asosini psaltir, ya'ni muqaddas kitob matni tashkil etadi, ibodatning qo'shiq shakli. (*tarj.*)

Bir kun murabbiya Mariya del Pilarning xonasiga rohiba yugurib kirib, cherkov devoriga suyanib turgan Estebanni (hamma uni Manuel deb atardi) ko'rganini aytdi. Murabbiya ko'chaga shoshildi. Mana, necha oydirki u qanday qilib esini yo'qotgan bu bolani bag'rimga qaytarsam ekan, deb o'ziga o'zi savol berardi. U bazo'r o'zini qo'lga olib, xotirjam ko'rinishga harakat qilib, cherkov darvozasi oldigacha yetib keldi, yigitga qarab turib, asta: „Do'stim“, – dedi. Titrab turgan Estebanning ko'zlari o'tgan galgidek hamon unga mehr va ishonchsizlik ila javob qaytardi. Murabbiya yana: „Do'stim“, – deb pichirladi va oldinga bir qadam tashladi. Birdan Esteban shart orqasiga burildi-da, bir zumda ko'zdan g'oyib bo'ldi. Murabbiya qoqila-suqila xonasiga kirib, o'zini ish stoliga tashladi, so'ng cho'k tushib, zorlana boshladi: „Sendan hikmat so'ragan edim, Sen esa menga uni bermading. Mendan shugina narsani darig' tutding-a. Men bor-yo'g'i farroshlikka yarayman...“

Noshukrlik qilib, gunohi azimga yo'l qo'ygani uchun onaxon o'ziga o'zi jazo majburiyatini yuklagach, birdan miyasiga kapitan Alvaradoga odam yuborish kerak, degan o'y keldi. Oradan uch hafta o'tib, u kapitan bilan o'n daqiqalik suhbat qurdi. Ertasi kuni kapitan Kuskoga qarab yo'l oldi, mish-mishlarga qaraganda, Esteban u yerda Universitet uchun xattotlik qilayotgan ekan.

O'sha yillari Peruda g'alati va oliyjanob shaxs yashayotgan edi – sayohatchi kapitan Alvarado. Uni dunyoning barcha noqulay ob-havolari savalab, „pishirib“ bo'lgan edi. U katta maydonda go'yo bo'ron chog'i turgandek oyoqlarini ikki tomonga keng ochib tik turardi. Yaqinni ko'rishga odatlanmagan ko'zlari ham g'alati boqardi. Uning odamoviligi sababini sayohatlarda uzoq yurishlari bilan bog'lashsa-da, lekin Markiza de Montemayor buning tagida nima gap borligini anglab yetgandi. „Ushbu maktubni senga ka-

pitan Alvaradoning shaxsan o'zi eltib beradi, — deb yozgan edi u xatlaridan birida qiziga. — Uni o'zingning jug'rofiyachi do'stlaring bilan tanishtirib qo'y, tillo qizim, lekin meni xavotirga soladigani bu inson samimiylilik timsoli. Do'stlaring hech qachon bu qadar uzoqlarga sayohat qilgan insonni uchratmagandirlar. Kecha kechqurun u menga o'z sayohatlari haqida so'zlab bergan edi. Tasavvur qilgin-a, uning kemasi qalin o't-o'lanlarni yorib o'tishini, g'ujg'on bo'lib yotgan baliqlar galasini yozgi ninachilardek cho'chitib tarqatib yuborishini, muz orolchalar orasidan sirg'alib yurishlari, eh-he, bular ham mayli, u yana Xitoyda ham bo'lgan, Afrika daryolarida ham suzgan. Lekin u shunchaki sarguzasht ishtiyoqmandi emas, yangi joylarni kashf qilgani bilan ham g'ururlanmaydigandek tuyuldi menga, u oddiy savdogar ham emas. Bir gal men undan surishtirib, nima sababdan hayotda bunday yo'lni tanlaganini bilib oldim, lekin u gapni boshqa tomonga burib, javob bergisi kelmasdi. Men uning bir joyda o'tirolmaydigan bo'lib qolishi sababini qo'limda ishlaydigan kirchi ayoldan eshitib qoldim: bolajonim, uning ham farzandi bo'lgan ekan, qizim, uning ham qizi bo'lgan ekan. U endigina otasiga dam olish kunlari biror shirin taom qilib beradigan yoki kiyimining so'kilgan joyiga qatim tortib bera oladigan yoshga qadam qo'ygan ekan. O'sha paytlari u faqat Meksika bilan Peru oralig'idagi masofada suzib yurardi, qizi esa yuzlab marotaba otasini kuzatib yoki kutib olib, qo'l silkitib qolgan bo'lsa kerak. Bizning umuman gapirishga haqimiz yo'q, uning qizi boshqa qizlardan aqlliroq bo'lganmi, go'zalroq bo'lganmi, bu muhim emas, muhimi, bu uning farzandi edi. Kap-katta odamning bitta qizchani deb, bu dunyoda qorong'i uyda ninasini izlab topolmayotgan ko'r odamday timirskilanishi senga, balki, g'alati tuyular. Yo'q-yo'q, bularni sen tushuna olmaysan, azizim, men bilaman, buning nima ekanini his etib, yuraklarim zirqirab

ketadi. Kecha kechqurun u men bilan o'tirib, qizi haqida suhbatlashdi. Qo'lini iyagiga tirab, yonayotgan olovdan ko'zini uzmay dedi: „Menga ba'zan u qayergadir sayohatga yo'l olgan-u, men uni yana ko'radiganday bo'lib tuyuladi. Menimcha, qizim Angliyada bo'lsa kerak“. Ustimdan kulishing mumkin, lekin menimcha, u o'zining uzoq sayohatlari bahona, buguni bilan qarilik o'rtasidagi vaqtini tezlatmoqchi bo'lsa kerak, hoynahoy“.

Egizaklar kapitan Alvaradoga nisbatan chuqur hurmat bilan munosabatda bo'lishardi. Aka-ukalar uning qo'l ostida ishlashganida uchala kamgapning sukutidan yon-atrofdagi mahmadonalar, o'zini oqlaguvchilar va ezmalari dunyosiga qarshi o'ziga xos ma'no va mazmunning asosi yaralardi. Shuning uchun ham buyuk sayohatchi nim qorong'i oshxonaga kirib kelganida, Esteban o'rindig'ini qorong'i burchakka tortib o'tirsa-da, ichidan suyunib ketdi. Kapitan uni taniganini yoki ko'rganini ham sezdirmay, ovqatini oxirigacha yeb oldi. Esteban esa allaqachon ovqatlanib bo'lgan bo'lsa ham, hech kim bilan gaplashgisi kelmagani uchun kapitanning oshxonadan chiqib ketishini poylay boshladi. Nihoyat, kapitan uning oldiga yaqinlashib:

– Sen Estebanmisan yoki Manuelmi? Bir marta kemamda ishlagansan. Men kapitan Alvaradoman, – dedi.

– Ha, – dedi Esteban.

– Ahvollaring qanaqa?

Esteban bir nima deb ming'irladi.

– Yangi sayohat uchun baquvvat yigitlarni izlayapman. – Oraga jimlik cho'kdi. – Men bilan borasanmi? – Jimlik sal cho'zildi. – Angliyaga va Rossiyaga. Og'ir ish. Ish haqiga yaxshi to'layman. Perudan uzoqlarda. Qalay?

Esteban go'yo hech nimani eshitmayotganday edi. U stolga tikilib o'tirardi. Nihoyat, kapitan kar odamga gapirganday baland ovozda so'radi:



– Sendan, men bilan dengizda suzishni xohlaysanmi, deb so'rayapman?

– Ha, xohlayman, – birdan javob berdi Esteban.

– Yaxshi. Juda yaxshi. Akang ham menga kerak.

– Yo'q.

– Nega? U xohlamaydimi?

Esteban chetga qarab nimadir deb g'o'ldiradi. Keyin o'rnidan turayotib dedi:

– Men boray. Bir ish yuzasidan bir odamni ko'rishim kerak.

– Kel bo'lmasa, akang bilan o'zim gaplasha qolay. U qayerda?

– O'lgan, – dedi Esteban.

– Nima... Men bilmagandim. Bilmagandim. Kechir.

– Ha, – dedi Esteban. – Men borishim kerak.

– Ha-a. Sen qaysi birisan? Ismingni ayt?

– Esteban.

– Manuel... qachon o'ldi?

– Bir necha hafta bo'ldi. Tizzasini yorib oldi va... Bor-yo'g'i bir necha hafta bo'ldi.

Ikkovi ham yerga tikildi.

– Yoshing nechada, Esteban?

– Yigirma ikkida.

– Bo'ldi, kelishdik, men bilan ketasan-a?

– Ha.

– Sen, balki, sovuqqa o'rganmagandirsan.

– Yo'q. Men o'rganganman. Men borishim kerak. Men shaharga borib bir ish yuzasidan bir odamni uchratishim kerak.

– Mayli, Esteban. Bu yerga kechki ovqat payti kelsang, sayohat haqida suhbatlashamiz. Kelsang, sen bilan vino ichamiz. Kelasanmi?

– Ha, kelaman.

– Xudo yor bo'lsin.

– Xudo yor bo'lsin.

Kechki ovqatni yeb bo'lib, ular ertaga ertalab Lima-ga qaytishga kelishishdi. Kapitan unga bo'ktirib ichki-lik ichirdi. Oldiniga biri olib, biri qo'yib jimgina quyib ichaverishdi. So'ng kapitan kemalari va ularning yuradi-gan yo'llari haqida gapirdi. U Estebanga kemanding kanop va sim arqonli yuk ko'taradigan moslamasi haqida, yo'lchi yulduzlar haqida savollar berdi. So'ng Esteban boshqa narsalar haqida gapira ketdi, gapirganida ham juda baland ovozda gapirdi.

– Men doim ish bilan band bo'lishim uchun kemada ko'p ish buyuring. Men hammasini qilaman. Men machta-ning eng baland joylariga chiqib, arqonlarni tortaman, ke-chasi bilan vaxtada turib qorovullik qilaman, nega degan-da, bilasizmi, men baribir uxlay olmayman. Yana, kapitan Alvarado, kemada siz o'zingizni meni tanimaganlikka oli-shingiz kerak, go'yo meni bilmaydigandek. Meni ko'rgani ko'zingiz yo'q odamday ishga ko'mib tashlashingiz kerak. Men ortiq stolda o'tirib matn ko'chirish bilan shug'ullana olmayman. Men haqimda boshqalarga gapirmang... ya'ni, bu haqda...

– Eshitishimcha, sen yonib turgan uyga kirib, kimnidir qutqarib qolganmishsan, Esteban?

– Ha. Menga jin ham urmadi. Bilasizmi, – baqira ketdi Esteban stol ustiga butun gavgasi bilan egilib, – bizda o'z joniga qasd qilish mumkin emas. Buni hamma biladi. Le-kin birovni qutqarish uchun yonib turgan olovga o'zingni otsang, bu joningga qasd qilganga kirmaydi. Matadorlik kasbini qilib, seni buqa suzsa, bu ham o'z joningga qasd qilgan hisoblanmaydi. Sen suzsiz deb buqaga o'zingni tutib berishing kerakmas. Siz hatto ilojsiz qolgan payt-larida ham hayvonlarning o'z jonlariga qasd qilganini

ko'rganmisiz? Ular chorasiz qolgan taqdirda ham hech qachon daryoga yoki boshqa joyga o'zlarini tashlamaydilar. Ba'zilar otlar o'zini yonib turgan olovga tashlaydi, deb gapirishadi. Shu rostmi?

– Yo'q, men buni rost deb o'ylamayman.

– Men ham buni rost deb o'ylamayman. Bizning bir kuchugimiz bo'lardi. Ha mayli, men bu haqda o'ylamasligim kerak. Kapitan Alvarado, siz murabbiya Mariya del Pilarni taniysizmi?

– Ha.

– Men ketadigan paytimizgacha unga sovg'a bermoqchi edim. Kapitan Alvarado, men ish haqimni oldindan olmoqchiman, menga hech qayerda, baribir, pul kerak bo'lmaydi, unga hoziroq sovg'a sotib olmoqchiman. Bu sovg'a yolg'iz o'zimdanda emas. Ular biz uchun...biz uchun... – Shu joyda Esteban akasining ismini aytmoqchi bo'lgandi, lekin ayta olmadi. Buning o'miga ovozini pastlatib dedi: – Ancha oldin unda qandaydir... unda katta yo'qotish bo'lgan ekan. Buni menga o'zi aytdi. Bilmayman, kim edi u, men unga sovg'a bermoqchiman. Ayollar bunday narsalarni bizdan ko'ra yomonroq kechirishadi.

Kapitan ertaga ertalab u bilan biron nima izlab topishga so'z berdi. Esteban bu haqda anchagacha gapirdi. Oxiri uning stol tagiga sirg'alib tushganini ko'rib, kapitan o'midan turdi-da, qovoqxona oldidagi sahnaga chiqdi. U And tog'larining cho'qqilariga, osmondagi abadiy nur sochib turuvchi son-sanoqsiz yulduzlarga qaradi. Qayerdadir havoda ruh suzib yurar va unga tabassum qilib, o'zining kumushday jarangdor ovozida necha minginchi marta takrorlagan singari derdi: „Uzoq qolib ketma. Sen kelguningcha kap-katta bo'lib qolaman-a“. Kapitan qaytib kelib, Estebanni ko'tarib xonasiga olib keldi, o'miga yotqizib qo'yib, anchagacha unga tikilib o'tirdi.

Tong bilan Esteban xonasidan chiqqanida, pastdagi zina oldida kapitan Alvarado uni poylab turardi.

– Narsalaringni joylab, tayyor bo‘lishing bilan yo‘lga tushamiz, – dedi kapitan.

Yigitning ko‘zlari g‘alati chaqnab ketdi.

– Yo‘q, men bormayman. Men baribir bormayman.

– Iye? Esteban? Axir menga boraman deb so‘z berding-ku.

– Buning iloji yo‘q. Men siz bilan ketolmayman, – u shunday dedi-da, orqasiga burilib tepaga ko‘tarila boshladi.

– Bir daqiqaga kel, Esteban, bir daqiqaga.

– Men siz bilan ketolmayman. Men Perudan ketolmayman.

– Senga bir nima aytmoqchiman.

Esteban zinadan pastga tushdi.

– Murabbiya Mariya del Pilarga bermoqchi bo‘lgan sovg‘ang nima bo‘ladi? – so‘radi kapitan ovozi pasaytiribroq. Esteban jimgina tog‘larga tikildi. – Nahotki sen uni sovg‘adan mahrum qilmoqchi bo‘lsang? Bilasanmi... bu narsa uning uchun juda katta ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin.

– Mayli, – g‘o‘ldiradi Esteban, go‘yo bu so‘zlar unga ta‘sir qilganday.

– Shunaqa bo‘lsin. Bundan tashqari, Okean Perudan yaxshiroq. Sen Limani, Kuskoni va barcha yo‘llarni bilasan. Bu yerda sen o‘rganishing uchun boshqa hech nima qolmadi. Okean – mana senga nima kerak, tushunyapsanmi? Undan tashqari, kemada har daqiqa ish bilan band bo‘lasan. Bu yog‘ini menga qo‘yib ber. Bor, narsalaringni yig‘ishtir, ketdik.

Esteban biror-bir qarorga kelishga harakat qilardi. Oldinlari hamma narsani Manuel hal qilardi, lekin u ham bunday jiddiy ishga duch kelmagandi. Esteban asta te-



paga ko'tarildi. Kapitan uni kutib turdi, uni shunchalik uzoq kutdiki, oxiri sabri chidamay zinalarning yarmigacha ko'tarildi-da, ichkariga quloq tutdi. Oldiniga jimjitlik edi, keyin qandaydir tovush eshitila boshladi. Kapitan gap nimada ekanini darhol angladi. Esteban to'sin ustidagi suvoqni ko'chirib tashlab, arqon bog'layotgandi. Kapitan qaltiragancha zinada turarkan, „Balkim, shunisi ma'quldir, – dedi o'ziga o'zi. – Balkim, unga xalaqit bermaslik kerakdir. Balkim, bu uning uchun oxirgi choradir“. So'ng yana yangi ovozni eshitib, eshikdan o'qday otilib ichkariga kirdi-da, yigitni ushlab qoldi.

– Ket, – baqirardi Esteban. – Meni o'z holimga qo'y. Aralashma – Esteban yuztuban polga yiqilib tushdi. – Men yolg'izman, yolg'iz, yolg'iz, – baqirardi u.

Kapitan uning tepasida turarkan, xunuk basharasi ichki darddan ko'kimtir tusga kirdi: uning dardi yana yangilanib, oldingi qayg'usini boshidan kechirayotgandek edi. Dengizchilikka aloqasi bo'lmagan ishlardan tashqari barcha mavzuda u dunyodagi eng no'noq ma'ruzachi edi, lekin ba'zan lo'nda gapirish odamdan yuksak mardlik talab qiladi. Hozir ham u polda yotgan Estebanning uning so'zlarini eshitayotganiga ishonchi komil bo'lmasa-da, dedi:

– Biz qo'limizdan kelganча harakat qilamiz. Kuchimiz yetganча tirmashib harakat qilaveramiz. Lekin bu ko'pga cho'zilmaydi. Vaqt o'taveradi. Hali uning qanchalik tez o'tib ketganidan hayron ham qolarsan.

Ular Limaga yo'l olishdi. Avliyo Lyudovik ko'prigiga yetganida, kapitan kechuvdan o'tadigan yuklarni tekshirish uchun pastga tushib ketdi, Esteban esa ko'prikdan o'ta turib, u bilan birga jarlikka quladi.

## TO'RTINCHI QISM

### Pio amaki: don Xaime

O'zining yozgan xatlaridan birida (XXIX) markiza de Montemayor, bizning qari Arlekin, deb Pio amakidan olgan taassurotlari bilan o'rtoqlasharkan:

„Ertalabdan beri men yashillikka burkangan ayvonda senga xona shippagi tikib o'tirgandim. Zar iplar bilan to'qiyotgan ishim meni uncha band qilmagani uchun qirchumolilar to'dasining devor tagidagi harakatlarini kuzatib o'tirdim. Qayerdadir to'sin ortida uyimni sabr-toqat bilan yemirgancha ular har uch daqiqada paydo bo'lar, taxta qipiqlarini yerga tashlashardi, so'ng menga mo'ylovini silkitib, juda ish bilan band odamdek, shosha-pisha sirli tarzda g'oyib bo'lishardi. Bu orada uning ko'p sonli aka-singillari o'z yo'lida u yoqdan bu yoqqa yurishda davom etib, yo'l bo'yi bir-birining boshini uqalab o'tib ketishar, agar biror-bir muhim xabar bilan shoshilib ketayotgan bo'lishsa, uqalashdan yoki uqalatishdan jahl bilan bosh tortishardi. Men darrov Pio amakini esladim. Nima uchun? O'tib ketayotgan abbatni yoki xizmatchini ilintirib, keyin o'z qurbonining qulog'iga nimalardir deb pichirlayotganini undan tashqari yana kimda ko'rish mumkin? Haqiqatan bugun ham, hali peshin bo'lmay turib, men uni sirli ish bilan qayoqqadir shoshib ketayotganini ko'rdim.

Eng tentak, eng qiziquvchan ayol sifatida Pepitaga bir bo'lak non olib keltirib, uni chumolilar yo'lga joyladim. Xuddi shu tarzda Pizarro qahvaxonasiga odam yuborib, agar Pio amaki quyosh botgunga qadar o'sha yerda pay-

do bo'lib qolsa, mening oldimga yuborishsin deb ayttirib yubordim. Men unga qiyshayib qolgan feruza toshli sanchqini beraman, u esa menga yangi qo'shiqlar ro'yxatini keltirib beradi, bu yerda uni hamma kuylayapti. Bolajonim, eng yaxshi narsaga sen hammadan birinchi bo'lib egalik qilishing kerak".

Undan keyingi maktubida bunday yozgandi:

„Mening suyukli dilbandim, sening eringni hisoblama-ganda Pio amaki yer yuzidagi eng ajoyib erkak... yer yuzidagi eng ajoyib erkak ikkita bo'lsa, biri shu. Suhbatlari ma'nili. U haqdagi bo'lmag'ur mish-mishlar urchib yurmanida, uni kotiblikka ishga yollagan bo'lardim. U mening barcha maktublarimni yozib berardi, ularni o'qigan kelgusi avlod esa g'oyat teran fikrli jummalarni o'qib menga qoyil qolishardi. Afsuski, u xastaligi hamda bema'ni og'aynilari bilan ko'p vaqtini behuda o'tkazishi sababli shunchalik aftodahol bo'lib qolganki, uni botgan botqog'ida qoldirishdan o'zga choramiz yo'q. Uni nafaqat chumolilarga, balki, o'zi o'ynaydigan mog'or qartalar to'plamiga o'xshatdim. Fikrimcha, bu odamni tozalab, oldingi holiga keltirish uchun Tinch Okeanining suvi ham yetmasa kerak. Lekin uning ispancha gapirishini bir eshitsayding. Mana senga teatrni jon-dili bilan sevishning va Kalderon<sup>1</sup> suhbatidan boshqa narsa eshitishni istamaslikning oqibati. Afsus! Bu dunyoga nimadir bo'lgan, shunday insonga bu qadar shafqatsizlik. Uning ko'zlariga boqsang, go'yo o'ninchi buzoqchasidan ham ayrilgan sigirday g'amgin“.

Eng avval bilishingiz kerak bo'lgan narsa: Pio amaki Perikolaning oqsochi, ashuladan saboq bergan ustozi hamda sartaroshi, uqalovchisi-yu ovoz sozlovchisi, yugurdagi, hisobchisi, yana mish-mishlarga qaraganda otasi ham

<sup>1</sup> Kalderon – Pedro Kalderon XVII asr ispan dramaturgi. (tarj.)

ekan. Pio amaki Kamilaga barcha rollarni yodlatishga yordam beradi. Shaharda go'yo Kamila yozishni ham, o'qishni ham biladi degan gap-so'zlar yuradi. Bu maqto'vlar o'rinsiz bo'lib, Pio amaki uning uchun ham o'qiydi, ham yozadi. Mavsum avjida teatr guruhi haftasiga ikki-uchta pyesa ko'rsatgan paytlari, albatta, ularning har birida Perikola uchun salmoqli rollarning bo'lishi tabiiy bo'lganidan, bu rollarni yodlashning o'zi hazilakam gap emas edi. Ellik yil ichida Peru qoloq davlatdan rivojlanayotgan davlatga aylanib bormoqda edi. Musiqaga va teatr san'atiga bo'lgan qiziqishlari g'oyat ulkan. Bayramlarni nishonlayotgan Lima ertalablari Tomas Luis<sup>1</sup> messalari<sup>2</sup> bilan uyg'onsa, kechqurunlari porlayotgan Kalderon she'riyatiga oshno bo'lardi. To'g'ri, limaliklarning eng ajoyib komediyalarga ham bema'ni ashula tiqishtiradigan odatlari, og'irroq kuylarni g'amginlik bilan bezaydigan qiliqlari qolmagan bo'lsa-da, har holda ular hech qachon zo'rma-zo'raki hurmat saqlab zerikishmasdi. Ularga komediyaning qahramonlari yoqmasa o'ylab-netib o'tirmay, uylarida qolaverishadi; ibodatxonadagi ko'p ovozli kuyga toqatlari bo'lmasa, sahardagi ibodat marosimiga borishlariga hech kim xalaqit bera olmasdi.

Ispaniyaga qilgan qisqa safaridan keyin buzruk otaga butun Lima bitta savolni berardi: „Nima olib keldingiz?“ Nihoyat uni Palestrina<sup>3</sup>, Morales va Vittoriolarning messalar to'plami bilan birga Tirso de Molina, Ruisa de Alarkonning va Moretalar<sup>4</sup>ning o'ttiz beshga yaqin pyesalarini

---

<sup>1</sup> *Tomas Luis* – O'rta asr kompozitori. (tarj.)

<sup>2</sup> *Messa* – ibodatning kuyga solingan janri. (tarj.)

<sup>3</sup> *Palestrina* – Djovanni Per Luidji da Palestrina (1525–94) italiyalik kompozitor. (tarj.)

<sup>4</sup> *Tirso de Molina* (haqiqiy ismi Gabriel Teles), Ruis de Alarkon-i-Mendoza Xuan, A. Moreto ispaniyalik dramaturg yozuvchilar. (tarj.)



olib kelganligi haqidagi xabar tarqaldi. Buning sharafiga bayram tashkil qilindi. Cherkov xor jamoasining maktabi va teatrning komediyalar zali ehson qilingan sabzavot va bug'doylar bilan to'ldi. Shu yerlik aholining hammasi bunday go'zallik elchilarini boqishni istardi.

Kamila Perikola shon-shuhrat cho'qqisiga ko'tarilayotgan paytda teatrga munosabat mana shunday ahvolda edi. Repertuar shunchalik boy, suflyorlar shu qadar ishonchli edilarki, kamdan kam pyesalar mavsumda to'rt kundan ortiq namoyish etilardi. XVII asr ispan dramaturgiyasining butun durdonasi teatr direktorining ish stolida bo'lib, ular orasida hatto bizning kunlarga yetib kelmaganlari ham bor edi. Perikola faqat Lope de Vega'ning yuzdan oshiq asarlarida rol ijro etardi. O'sha paytlari Limada yaxshi aktrisalar ko'p bo'lsa ham, lekin Kamiladan kuchlirog'i yo'q edi. Ispaniya bilan oradagi masofa uzoqligi bois, hamyurtlari uni Ispaniya dunyosida ham birinchi aktrisa ekanligini bilishmasdi. Ular Madrid yulduzlarini loqal birrovgina ko'rishni orzu qilib xo'rsinishar, hech qachon ko'rmagan bo'lishsa ham ularning sharaflini ko'klarga ko'tarishardi.

Perikolaning buyuk aktrisa ekanini faqat bitta odam juda yaxshi bilardi, bu uning ustozlari Pio amaki edi. Pio amaki aslzoda kastiliyaliklar avlodidan bo'lsa-da, noqonuniy tug'ilgandi. O'n yoshida dadasining mulkiga qarashli xo'jalikni tark etib, Madridga qochib ketdi, hech kim uni astoydil qidirishga bel bog'lamadi. Shu davrdan boshlab uning muttahamlik va firibgarlikka to'la hayoti boshlandi. Xotirasi odamlarnig yuzi va ismlarini yaxshi eslab qolishi bilan birga o'z ismini tez-tez o'zgartirib turish odati, tilni tez o'zlashtira olish qobiliyati, yangi narsalar o'ylab

<sup>1</sup> *Lope de Vega* (1562–1635) ispan dramaturgi. (*tarj.*)

topishga ustasi farangligi, sir saqlay bilish uquvi, begona odamlar bilan tezda til topib keta olish layoqati, u sog'in sigir qilib olgan yalqov boyvachchalarning pulini shilishda vijdoni qiynalmasligi kabi firibgarliklarni suv qilib simirib olgandi. O'n yoshidan o'n besh yoshiga qadar savdogarlarning reklama qo'g'ozlarini tarqatdi, „maxfiy ish“ bilan band bo'lgan aslzodalarning otlariga poyloqchilik qildi, maxfiy topshiriqlarni bajardi. O'n besh yoshidan yigirma yoshgacha sirkda ayiqlar, ilonlar o'rgatuvchisi bo'ldi, punsh<sup>1</sup> tayyorladi, qimmat tamaddixonalarda gap poylab, ularni kerakli odamlarga pinhona yetkazib turdi. Masalan, bironta aslzoda oila majburlikdan oshxonasi-ning kumush jihozlarini sotib, undan foiz to'lashni chetlab o'tmoqchi, shunga o'xshagan, arzimagan gaplarni ham shular sirasiga kiritish mumkin. U shahardagi barcha teatr a'zolari bilan chiqishib olgan, kerak bo'lganda ular uchun o'nlab odamlarning o'rnida olqishlab qarsak chala olardi. U mish-mishlar tarqalayotgani haqida mish-mish tarqatib ham pul ishlardi. Hosildorlik haqida, aynan shu yerning juda serunum ekanligi haqida gap tarqatib ham aqcha topardi. Yigirma yoshidan o'ttiz yoshigacha bo'lgan eng yuqori tabaqa vakillari ham uning xizmatiga murojaat qila boshladilar. Hukumat tog'dagi qo'zg'olonchilar orasida mish-mish tarqatib, ig'vo solish, so'ng o'zlari borib qo'zg'oloni ayovsiz bostirishlari uchun Pio amakini yollashardi. U shunchalik ehtiyotkor ediki, bir vaqtning o'zida ham Avstriya, ham Fransiya partiyalari uchun xizmat qila olardi. U malika dez Yursen<sup>2</sup> bilan uzundan uzoq suhbatlarda bo'lardi. Bu suhbatlar uchun u orqa eshikdan

<sup>1</sup> *Punsh* – qaynoq vino. (*tarj.*)

<sup>2</sup> Dez Yursen xonim Lyudovik XIV tomonidan Ispaniya qiroli Filipp V ning fransuz rafiqasi yoniga Fransiya qirolligining manfaatlari yo'lida xizmat qilishi uchun ataylab jo'natilgan.

kelib, o'sha yoqdan chiqib ketardi. Mana shu bosqichga yetganida uning janoblar ko'nglini xushlashiga yoki tuhmatning harom mevalaridan bahramand bo'lishiga zarurat qolmagandi.

Bironta daromadli ish topilib qolganda ham o'sha ishda ikki haftadan ortiq qololmasdi. U sirkda xo'jayin, teatrdan direktor, noyob qadimiy antiqa narsalarni yig'uvchi, Italiyadan shoyi mato keltiruvchi savdogar, qirol saroyi yoki ibodatxona kotibi, oziq-ovqat ta'minotchisi, ko'chmas mulk chayqovchisi, ko'ngilxushlik qiluvchilarga yaxshi kayfiyat sotuvchi tijoratchi kabi hech kimning yetti uxlab tushiga kirmagan kasb-hunarlarini egallagan edi. Yoshlikdagi hayot tarzimi yoki boshqa sababmi, uning fe'l-atvori shunday shakllangan ediki, bu uning bironta ishga ham, bironta mashg'ulotga ham bog'lanib qolmasligini ta'minlardi. Bu narsa uni o'g'ri bo'lib ketishidan ham asradi. U bir necha marta o'g'irlik qilib ko'rdi, lekin topgan foydasi panjara ortiga tushib qolish qo'rquvini yengolmadi. Uning ustasi farangligi har qanday mirshabning qulog'iga lag'mon ilib ketishga yarardi-yu, lekin dushmanlarining chaqma-chaqarliligi oldida u ham tob tashlab yuborgandi. Bir paytlar u inkvizitorlarga ishga yollangan edi. Qurbonlarini uning ko'zi oldida boshiga qora niqob kiydirib olib ketishganini ko'rib, tashlaydigan qadamini oldindan bilib bo'lmaydigan mahkamaning odamlari bilan aralashib qolganini tushundi-yu, bu ishdan ham qo'lini yuvib, qo'ltig'iga urdi.

Yigirma yoshida Pio amaki shuni tushunib yetdiki, uning hayotda uchta maqsadi bor ekan. Birinchi navbatda u hech kimga qaram bo'lmay erkin yashashni istardi, uning bu istagi ham hech kimnikiga o'xshamagan bo'lib, har tomonlama rivojlangan, har narsadan boxabar, sirli inson bo'lish. Qani edi odamlarning ichidagi gaplarni g'oyibdan ko'rib tursa, kuzatuvchisi haqida o'zidan ham ko'proq

ma'lumotga ega ekanini his qilsa, bu ma'lumotlarni ishga solib, alohida odamlarning va davlat ishidagilarning hojatini chiqarib, ularning ishonchini qozonsa, buning uchun u mamnuniyat bilan jamiyatning barcha ehtiromidan voz kechgan bo'lardi. Ikkinchidan, u har doim go'zal ayollar yonida bo'lishni istardi, ularga xushomad qilishdan charchamadi. Ayollar yonida bo'lish unga suv va havodek zarur edi. Uning hammaning ko'z oldida go'zallar chiroyidan bahra olishi doim kulgiga sabab bo'lardi. Ammo teatr, saroy va ko'ngilxushlik uylari ayollari uning bu xislatini qadrlashar edi. Ular unga azob berishar, haqoratlashar, undan maslahat olishar va uning itday sodiqligidan huzurlanar edilar. U tantiq ayollarning jazavaga tushib baqirishlari-yu pastkashliklariga sabr ila chidar, ko'zyoshi to'kib qilgan hasratlariga quloq tutar, evaziga esa onda-sonda oldilariga kelib turar, ular uchun xatlar yozib berar, esiyo'q kuchukchaday uylari ichida ivirsib yurishga ruxsat olardi, xolos. Uning go'zal ayollar ichki dunyosi va yurak sirlariga bo'lgan qiziqishi cheksiz edi. U hech qachon ulardan sevgi kutgan emas, buning uchun u shaharning eng shubhali mavzellarida pullarini xo'p sovurib bo'lgan. Uning siyrak soqoli va mo'ylovi, g'amgin boquvchi ko'zlari biroz kulgili edi. U o'ziga yaqin ayollar uchun shamolni ham ravo ko'rmaydigan himoya devori edi. Aynan ular unga Pio amaki deb laqab qo'yishgan, ba'zi bir toifa ayollarga ularning omadsiz kunlarida u o'zining sodiq do'st ekanligini namoyon qila olgan edi. Bu ayollar xushtorlarining marhamatidan mahrum bo'lganlarida, Pio amaki ularni pul bilan ta'minlab turardi; kasal bo'lib yotib qolganlarida bezor bo'lib sovib ketgan xushtorlari va serzarda xizmatkorlardan ko'ra ko'proq o'z sadoqatini namoyish etardi. Yoshlari o'tib yoki xastalik tufayli sharti ketib parti qolganlar bo'lsa avvalgi chiroylari haqi-hurmati ularga ham



xizmat qilaverardi; vafot etib qolsalar, astoydil qayg'urib, so'nggi manzilga kuzatib qo'yardi.

Uchinchidan, u ispan adabiyotini, uning durdonalarini sevadiganlarga yaqinroq bo'lishni istardi, ayniqsa, teatrda. Bu xazinalarning barini u o'zi uchun o'zi kashf qilgan. Bu asarlarni u puldor tanishlarining kutubxonalaridan so'rab yoki o'g'irlab olib, palapartish hayot sahnasi ortida hammadan yashirincha mutolaa qilardi.

Pio amaki suhbatdoshining Kalderon va Servantes' asarlariga qiziqishi yo'qligini sezsa, asardagi jumlar mo'jizasidan hayratga tushganini his etmasa, ming ziyoli, tarbiyali va xushmuomala bo'lmasin, uning oldida bu odam hurmatini yo'qotardi. O'zi ham she'r yozishni orzu qilardi. Uning komediyalar uchun yozgan ko'plab hajviy qo'shiqlari xalq orasida og'izdan og'izga ko'chib, mashhur bo'lib ketganidan o'zi bexabar edi.

Fohishaxonalarda urish chiqib turishi tabiiy hol, ana shunday janjallardan biri natijasida uning hayoti tang ahvolga tushib, Peruga ko'chib o'tishiga to'g'ri keldi. Lekin Perulik Pio amaki yevropalik Pio amakidan ko'ra ancha uddaburon chiqib qoldi. Bu yerda ham u ko'chmas mulk, sirkda faoliyat yurgizish, ko'ngilxushlik ishlari, qo'zg'olonlar uyushtirish, antiqa buyumlar yig'ish bilan shug'ullandi. Xitoy mollari orilgan kemalar karvoni Amerika qirg'oqlariga kelganida chinni idishlar joylashgan qutilardagi to'q qizil chinni idishlarni noyob buyum to'plovchilarga sotdi. U inklarning mo'jizakor giyohlari haqida so'rab-surishtirib, ular asosida dori-darmonlar tayyorlab, bu savdoni ham yurgizib yubordi. To'rt oydan keyin u Limadagi deyarli barchani taniydigan bo'ldi. Keyinroq u tanishlar safini yana ham kengaytira borib, shahar

---

<sup>1</sup> *Servantes Saavedra Migel de (1547-1616)* – ispan yozuvchisi. (tarj.)

atrofidagi o'nlab shaharchalarga, chekka qishloqlarga ham kirib bordi. Barcha narsadan boxabarlik sifati o'zini oqlay boshladi. Qirol noibi janoblari Pio amakining boy dunyoqarashiga qoyil qolib, uning xizmatidan bir necha bora foydalandi. Aql-hushining tubi ko'rinib qolganiga qaramay, don Andres o'zining bitta noyob iste'dodini saqlab qolgandi – u o'zi ishongan odamlar bilan muomala qilish mahoratiga ega edi. Pio amaki bilan u g'oyat xushmuomalalik bilan munosabatda bo'lib, hurmatini joyiga qo'yardi. Shu bilan birga bu odamga har qanday topshiriqni berish durust emasligini, uning doimo yangi-yangi odamlar bilan muloqotda bo'lib turishiga muhtojligi borligini ham tushunardi. O'z o'rnida Pio amaki ham undan doim hayratda edi. Davlat ishida ishlab turib ham o'z mavqeyidan foydalanmaydigan, o'z manfaati yo'lida lavozimini suiiste'mol qilmaydigan, o'zgalar taqdiriga befarq qaramaydigan bu qanaqa odam o'zi? Lekin xizmatkor o'z xo'jayinini yaxshi ko'rardi; Servantes asarlarining istagan joyidan parcha o'qib bera olgani, ustiga-ustak u jozibador o'tkir kastil tilini saqlab qolgani uchun uni yaxshi ko'rardi. Necha martalab Pio amaki ertalablari saroyning maxsus eshigidan, ruhoniy va yollangan barzangini uchratishi mumkin bo'lgan alohida yo'lakdan kirib, qirol noibi janoblari bilan ertalabki shokoladli ichimlikni birga baham ko'rishgan.

Shunchalik ishbilarmonligiga qaramay, Pio amaki bari-bir boyib ketmadi. Ba'zan korxonasi yaxshi daromad keltirishi mumkin bo'lgan paytda uni ataylab tashlab yubor-ganday ko'rinardi. Bu haqda deyarli hech kim bilmasa-da, uning o'z uyi bor edi. U yer itlarga to'la bo'lib, vaqt o'tgan sari ularning soni oshib borardi, uyning tepa qismi esa qushlarga ajratilgandi. Lekin o'zining bu saltanatida ham u baribir yolg'iz edi. Go'yo bu hayot tarzi uni barchadan ustun ekanligini ko'rsatadigandek o'zining yolg'izligidan

mag'rur edi. Nihoyat, uning chekiga sarguzasht tushdi, samolarning bu in'omi hayotidagi uchta maqsadi: o'zgalar hayotini kuzatishga bo'lgan katta qiziqishini, go'zal ayollarning chiroyiga sig'inishini, ispan adabiyoti durdonalaridan zavqlanishini umumlashtirdi. U Kamila Perikolani kashf qildi. Uning haqiqiy ismi Mikayela Vilegas edi. O'n ikki yoshidan beri qahvaxonalarda qo'shiqchilik qilardi. Pio amaki shahardagi barcha qahvaxonalarning eng yaxshi mijoz bo'lib, o'zining navbatdagi tashriflaridan birida, gitarachi oshnalarining orasida o'tirarkan, ko'zi qo'shiq aytayotgan ozg'ingina qizchaga tushdi, uning mahoratli qo'shiqchilarga taqlidan kuylashini ko'rib, miyasida Pigmalionni takrorlash g'oyasi tug'ildi. U qizchani sotib oldi. Yerto'lada, musallas soladigan idishlar ustida uxlash o'rniga, qizaloq yangi uyda o'zining karavotiga ega bo'ldi. Pio amaki uning uchun qo'shiqlar yozib berib, ovozinang ohangiga quloq solish mahoratini o'rgatdi, yangi ko'ylak olib berdi. Avvalambor qizcha issiq sho'rva-yu yaxshi muomala, boz ustiga nimanidir o'rganish ajoyib narsa ekanligini anglab yetdi. Lekin eng ko'p hayratga tushgan odam Pio amakining o'zi bo'ldi. Uning shunchaki ermak uchun qilgan tajribasi kutilgandan ham ortiq natija berdi. Doim kamgap, xo'mrayib yuruvchi o'n ikki yoshli bu qizaloq birdan ochilib, zo'r ishtiyok bilan ishga kirishib ketdi. Qizchaga aktyorlik mahoratidan dars berdi, qo'shiqning ichki holatini anglata olishdan mashqlar o'tkazdi, teatrga borishganida u yerdagi narsalarni ipidan ignasigacha o'rganishni talab qildi. Hammadan Kamila uni ayol sifatida hayratga soldi. Qo'llari uzun va ozg'in qizcha qaddi-qomati kelishgan ko'rkam ayolga aylanib, murdadek yuzi chiroy ocha boshladi. Uning butun borlig'i mayinlik, sirlilik va sermulohazalilik kasb eta boshladi – endi butun e'tibor unga qaratilgan edi. Qizaloq tarbiyachisida birona ham kam-

chilik ko'rmas va unga butun borlig'i bilan sodiq edi. Ular bir-birini juda yaxshi ko'rishardi, ammo bu tamasiz sevgi edi. Ba'zan Pio amaki qizga juda yaqin kelib qolgan paytlari uning nigohidagi yengil asabiylashishni ilg'ab, buni hurmat qilardi. Aynan shunday tiyqlikdan latiflik tug'ildi – bu shunday ehtiros soyasiki, bu soya ostida eng kutilmagan juftliklarning butun hayoti yoqimli tushday o'tib ketgani sezilmay qoladi.

Ular juda ko'p sayohat qilishdi, yangi taverna'lar qidirishdi, chunki qovoqxona ashulachilarining qadr-qimmatini ularning yangi ekanligida hisoblanadi. Bo'g'chalarini orqalagancha Meksikaga borishdi, duch kelgan joylarda, hatto okean qirg'oqlarida ham tunashdi, Panamada ularni qamchi bilan savalashdi, Tinch Okeanining qushlar axlatiga to'lib ketgan urvoqdekkin o'rolchalariga tushib qolishdi. Ilonlar va har xil hasharotlarga to'lib-toshgan changalzorlardan yurib o'tishdi. Zarurat bo'lganda hatto supurib-sidirish ishlari-ga ham yollanishdi. Ularni hech narsa hayratga sola olmasdi.

So'ngra qizcha uchun yanada murakkabroq sinov boshlandi, bu sinov o'zining og'irligi bilan xuddi akrobatchilarning tayyorlov mashqiga o'xshardi. Mashg'ulotlar murakkablashuvining sababi shundaki, Perikola juda tez shon-shuhratga erishdi, bu olqishlar esa uning o'z mahoratidan erta qoniqish hosil qilish xavfini keltirib chiqarardi. Pio amaki qizni kaltaklashga kaltaklamadi-yu, lekin mahoratini kamsitib, yerga ura boshladi, bu esa Kamila uchun yaxshigina jazo edi. Shunday kunlar bo'lardiki, tomoshadan keyin Perikola o'zining kiyinish xonasiga kirib kelarkan, burchakda hushtak chalib o'tirgan Pio amakiga duch kelardi. Hushtagining ovozidan uning kayfiyatini tushungan Perikola jahl bilan baqira boshlardi:

---

<sup>1</sup> Taverna – kichik qovoqxona. (tarj.)



– Tag'in nima bo'ldi? Yo Tangrim, yo Tangrim! Tag'in nima bo'ldi?

– Hech nima bo'lgani yo'q, mittigina durdonam. Hech nima, tengi yo'q malagim.

– Senga nimadir yoqmadi. Xudo bezor taviya, endi bildingmi kimligingni? Qani gapir endi, nima bo'ldi? Qu-log'im senda!

– Yo'q, tilla baliqcham. Tonggi yulduzcham, menimcha, sen qo'lingdan kelgancha harakat qilding.

Mahoratining imkoniyatlari cheklanganiga va qandaydir yuksaklik yo'llari uning uchun berkligiga qilingan shamalar har gal Kamilani jazavaga solardi. U ko'zyoshlarini selday oqizib derdi:

– Seni hech qachon tanimaslik uchun qancha haq so'rashsa ham to'lashga tayyor edim! Butun hayotimni zahariyapsan. Qachon qaramay, yomon o'ynading deb tura-verasan. Jig'imga tegishni yaxshi ko'rasan. Shunaqa ekan, gapirmay qo'ya qol.

Pio amaki esa hushtak chalishda davom etardi.

– Sensiz ham bilaman ijroyim bo'sh chiqqanini, shuning uchun menga bu to'g'rida gapirishning hojati yo'q! Mana shunaqa! Endi jo'na bu yerdan! Men seni ko'rishni istamayman! Rol o'zi shundog'am og'ir, buning ustiga bu kayfiyatda kutib olishing yetmay turuvdi.

Pio amaki birdan u tomon engashib, jiddiy ohangda so'rardi:

– Nega mahbusga aytgan so'zlaring tezlashib ketdi?

Perikola yana ko'zyoshi to'ka boshlardi:

– Ey, Xudoyim, hech bo'lmasa tinchgina o'lishimga qo'yib ber! Bugun tez gapir deysan, ertaga sekinroq. Bari-bir bir yoki ikki yildan keyin aqldan ozishim aniq, o'shanda bularning hech qanday ahamiyati qolmaydi.

Javoban yana hushtak chalinardi.

– Buning ustiga hali hech qachon bo‘lmagan olqishlar bo‘ldi. Eshityapsanmi? Gulduros qarsaklar! Mana shunaqa! Tez gapiramanmi, sekinmi – ularga baribir. Ular qancha yig‘lashdi. Men beqiyos edim. Mana menga nima muhim. Umuman ovozing chiqmasin! Umuman!

Pio amaki ovozin chiqarmaydi.

– Sochlarimni tarashing mumkin, lekin bir og‘iz so‘z aytasang, sahnani tashlab ketaman! O‘zingga boshqa qizcha qidirishing mumkin! Mana shunaqa!

Shundan keyin Pio amaki uning sochlarini yana o‘n daqiqacha tarab turarkan, Kamilaning qiynalib ketgan jussasi yig‘idan titrayotganini ko‘rib, o‘zini sezmayotganga olardi. Birdan Kamila uning soch tarayotgan qo‘llaridan ushlab, qayta-qayta o‘parkan:

– Pio amaki, nahotki mening ijrom shunchalik yomon chiqqan bo‘lsa? Ijroyimdan uyaldingmi? Sen hatto teatrdan chiqib ketding, nahotki rolni shunchalik yomon o‘ynagan bo‘lsam? – dedi.

Uzoq jimlikdan so‘ng Pio amaki eslay boshladi:

– Kemadagi sahna ijrosi yaxshi o‘tdi.

– Lekin bundan ham yaxshi ijro etgan paytlarim bo‘lgan edi-ku, Pio amaki. Esingdami o‘sha kecha, sen Kuskodan qaytganingda?

– Final ham yomon emas.

– Rostdanmi?

– Lekin, mening gulg‘uncham, mening javharim, mahbusga qarata aytgan so‘zlaringga nima bo‘ldi?

Shundan so‘ng Perikola alamidan o‘zini bo‘yoqlar to‘la stolga tashlardi. Faqat mukammal ijro bilan, faqat mukammal ijro bilan qoniqish mumkin. Bu esa hozircha yetishib bo‘lmas orzu bo‘lib qolmoqda edi.

Pio amaki shundan keyin soatlab qiz bilan suhbatlashar, pyesani chuqurroq o‘rganib tahlil qilishar, uning har

bir qismini maydalab o'rganib, ovozi, imo-ishorasi, ovoz tezligi ustida ishlashardi. Ba'zan ular ertalabgacha o'tirib olib, Kalderonning buyuk dialoglarini mashq qilishardi.

Bu ikkovi kimni qoyil qilmoqchi? Har holda, Lima tomoshabinlarini emasdir? Ular allaqachon qoyil qolib bo'lishgandi. Biz shunday olamlardan kelamizki, u yerda go'zallikning boshqa o'lchamlari hukmron, o'sha go'zallikni g'ira-shira eslaymiz-u, uni to'la egallay olmagan holda yana o'sha olamga qaytamiz. Pio amaki va Kamila Peruda samoviy teatr me'yorini o'rnatish uchun, o'zlaridan ancha ilgari u yoqlarga ketib bo'lgan Kalderon asarlarini ko'klarga ko'tarish uchun o'zlarini har yoqqa urib, tinkalarini quritishardi. Afsuski, noyob asarlar namoyishiga mo'ljallangan tomoshabinlar bu yerda anqoning urug'i edi.

Bora-bora Kamilaning o'z kasbiga bo'lgan sodiqligi susaya boshladi. Ora-chora aktyorlik kasbidan jirkanishi uni yalqovlashtirib, o'z ishidan sovutdi. Ispan mumtoz dramaturgiyasida ayollar rolga bo'lgan e'tiborsizlikning keng tarqalgani ham unga o'z ta'sirini ko'rsatgan edi. O'sha paytlari Angliya, Fransiya (keyinroq Venetsiyada ham) saroylarida to'plangan dramaturglar, ayollarning rolini hozirjavoblik va jozibadorlik hamda ehtiroslar va jazavalar ila boyitgan bo'lsa-da, ispan yozuvchilari o'zlarining erkak qahramonlaridan ko'z uzishmas, aslzodalarining oriyat, burch va gunohlar orasida arosatda qolayotgan va oxirgi daqiqalarda xoch oldida cho'k tushadigan qahramonlar haqida ko'proq yozishardi. Perikolaning o'z rollariga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun Pio amaki ko'p yillar izlanishdan to'xtamadi. Bir kuni u Peruga Viko de Barerining nevarasi kelgani xabarini olib keldi. Pio amaki Kamilaga buyuk shoirlarga ehtiromni singdirib ulgurgan, shuning uchun ham u buyuk shoirlarni qiroidan-da baland ekaniga, avliyolardan kam emasligiga shubha qilmasdi.

Shu sabab ular katta hayajon bilan buyuk shoirning pye-salaridan birini uning nevarasiga namoyish etish uchun tanlab olishdi. Yuzlab marotalab mashq qilish natijasida o'zlari uchun yangilik kashf qilib quvonishsa, ba'zan tush-kunlikka tushar edilar. Tomosha ko'rsatiladigan kecha Ka-mila sahnaning yopiq pardalari orqasidan tomoshabinlarni kuzatayotganda, Pio amaki unga yoshi o'tib qolgan, kam-bag'allikdan, katta oilaning tashvishidan ezilgan musht-dekkina bir ayolni ko'rsatdi, lekin Kamila uchun go'yo uning oldida butun dunyo go'zalligi va boyligi namoyon bo'lgandek tuyuldi. O'zining rolidan oldin aytiladigan so'zlarni jimgina takrorlar ekan, u hayajondan Pio ama-kining bag'riga bosh qo'yib o'tirar, yuragi esa dukullab urardi. Ko'rinishlar orasidagi tanaffuslarda esa u hech kimga ko'rinmay, chang bosgan sahna burchagidagi par-dalar qatlari orasiga kirib olib, hayajon to'la ko'zlari bilan barchani kuzatardi. Spektakldan so'ng Pio amaki Viko de Barerining nevarasini Kamilaning xonasiga boshlab keldi. Kamila devorga ilig'lik turgan ko'ylaklar orasida turar-kan, hayajon va baxtdan ko'zyosh to'kardi. Keyin u cho'k tushib, yoshi o'tgan bu ayolning qo'llarini o'pa boshladi, ayol esa uning qo'llaridan o'pard; tomoshabinlar tarqalib bo'lgach, mehmon Kamilaga oilalarida bo'lgan kichik-kichik voqealardan – Vikoning ishlari va odatlari haqida u bilmagan narsalardan so'zlab berdi.

Pio amakining eng baxtli kunlari, truppaga yangi aktri-sa qabul qilgan paytlari bo'lardi, yangi iste'dodning paydo bo'lishi Perikolaning o'z ustida yanada ko'proq ishlashiga turtki bo'lardi. Pio amakiga (u zalning oxirida quvonchli tantanadan zavqlanib, kulgidan ikki bukilib qolardi) butun tomosha davomida shunday tuyulardiki, Perikolaning tana-si kuchli nur taratib turgan ohak chiroqqa o'xshab qolardi. Hech qanday sun'iy hayajonni, nayrangni ishga solmasdan,



yangi iste'dodni o'z mahorati soyasida qoldirishga kirishib ketardi. Komediya namoyishi ketayotgan bo'lsa, u hozir-javoblik va hazil-mutoyiba koniga aylanar, drama asar (aksar bo'lgani kabi) namoyishi bo'lsa, xo'rlangan ayol naf-ratining ehtirosidan sahna deyarli tutab, yonib ketgudek bo'lardi. U shu darajada quvvat manbayiga aylanib ketar-diki, unga yaqinlashgan boshqa artistlar ham buni his qili-shar va bu quvvat to'lqini butun zal bo'ylab tarqalib ketardi. Lekin bunday ilhom onlari unda kamdan kam uchraydigan bo'lib bormoqda edi. Mahorati oshib borgani sayin, uning yurakdan chiqarib rol ijro etishiga zarurat kamayib borar-di. Kamilaning hatto parishonxotir holdagi ijrosida ham to-moshabinlar buning farqiga borib o'tirishmas, bundan Pio amaki qayg'urardi, xolos.

Kamila go'zal edi, to'g'rirog'i, u junbisha kelgani-da yanada jozibali bo'lib ketardi. His-hayajonsiz, osuda holatida siz uning burni uzun va ingichka ekanini, og'zi yosh bola og'ziday so'ljayib turishini, ko'zlari ochlar-cha boqishini, xullas, bir kambag'al dehqon qizi ekanini payqab hayron qolgan bo'lardingiz. Go'yo bemaza ashu-lalar aytiladigan qahvaxonadan sug'urib chiqarilgan-u, lekin o'z orzulari, ishtahasi va san'at talablarini zich kun tartibini murosaga keltirolmay ikki o't orasida qolib ket-gan. Bu tashvishlarning har biri butun bir hayotni qamrab olishi mumkin edi, irodasiz, sustroq odamni tez yo'ldan adashtirardi. Guvohi bo'lganimizdek, Perikola rollardan qoniqmasligi barobarida ijro mahoratidan zavqlanishni, lazzatlanishni bilar, vaqti-vaqti bilan uning taftida isinib, bahra olardi. Lekin so'nggi paytlarda ishq tafti uni o'zi-ga ko'proq jalb qila boshladi, bu sarguzashtlari unga baxt va'da qilmasa-da, ular Yupiter<sup>1</sup>ning o'zi unga in'om yubormaguncha davom etdi.

<sup>1</sup> Yupiter – yunon afsonalarida ishq ilohi. (tarj.)

Peruning qirol muovini Don Andres de Riberi ajoyib insonning yonib kul bo'lgan qo'ri edi, mansab bahona bu yerdagi o'n yillik surguni davomida doim o'rindig'ida savlat to'kib o'tiraverib ado bo'lgan inson edi. O'smirlik yillarida Versal va Rim elchixonalarida xizmat qildi, Avstriya urushlarida qatnashdi, Quddusi Sharifni ziyorat qildi. Quchoq yetmas baqaloq boy xotinidan beva qolganida uning farzandi ham yo'q edi; u oz-ozdan tangalarni, musallaslarni, aktrisalarni, ko'krak nishonlarini va jug'rofiy xaritalarni yig'ardi. Kamharakat hayot tarzi unga suyak va bo'g'imlar xastaligi, og'irligi sabab o'yilib ketgan o'rindig'i esa – tomir tortish kasalligi, lavozimi – takabburlikni in'om etdi. Takabburligi bolalarcha beg'ubor bo'lsa-da, shunchalik ulkan ediki, unga qarata aytilgan so'zlarni deyarli eshitmas, o'zining oxiri yo'q ma'ruzalarini esa shiftga qarab gapirardi; surgun uni atrofidagi ummondek ulkan, zerikarli hayot bilan chirmab tashladi. Don Andres diqqinafas holatda uyg'onar, butun kuni shu holatda o'tar, kechasi xobgohida yotganida ham shu holat uni tark etmasdi. Kamilaning umri esa teatrdagi og'ir mehnatda o'tib borar, hayotiga birdan bu bahodir (Don Andres o'zining yuz tuzilishi va tik qomati bilan allaqachon teatrdan afsonaviy qahramonlarni ijro etishi mumkin edi) kirib kelib, uni saroydagi betakror tungi ziyofatlariga hamsuhbat etmaganida, u teatr uchun yozilgan asarlar ustida ter to'kish bilan band bo'lib yuraverardi. Teatrning va davlatning an'analariga zid ravishda Kamila o'zining qari xushtorini yaxshi ko'rar, topgan baxti esa hech qachon tugamaydigandek tuyulardi. Don Andres Kamilaga juda ko'p narsalarni o'rgatdi, uning chanqoq va o'tkir aqli uchun esa bu sevgining eng asosiy tansiq masalliqalaridan biri edi. U Kamilani biroz fransuz tiliga, ozodalik va sarishtalikka rioya qilishga, oqsuyak aslzodalarning mansablarini to'g'ri nom bilan atashga odatlantirdi. Pio

amaki unga hurmatli xonimlar obro'li joylarda o'zlarini qanday tutishi kerakligini o'rgatgan bo'lsa, Don Andres unday xonimlarning qanday hordiq chiqarishlari kerakligi borasida saboq berdi. Pio amaki bilan Kalderon unga jozi-bador ispan tilidan ustozlik qilgan bo'lishsa, Don Andres unga El Buen Retiro<sup>1</sup> oliynasab kiborlar dunyosining o'tkir burro tili bilan tanishtirdi.

Pio amaki saroydan kelgan taklifdan avval-boshda xavotirga tushgandi. Bu Kamilaning dekoratsiyalar bilan to'lib-toshgan omboridagi navbatdagi bema'ni ishqiy sarguzashtlaridan biri bo'lganida, uning ko'ngli xotirjam-roq bo'lgan bo'lardi. Ammo oradan biroz o'tgach, o'zining yaratgan san'at asari yangi qirralar kashf etayotganini ko'rib yengil nafas oldi. U zalning oxirgi qatorida tomoshani kuzatib o'tirarkan, quvonchdan yuragi hapriqib borardi. Perikola zimdan tomoshabinlarga dramaturglar ta'riflaydigan shohona hayotning tez-tez mehmoni bo'lib turishini sezdirib qo'yar, yangi odatlari ko'zga yaqqol tashlana borardi; qadahni barmoqlarida o'ziga xos aylantirishi, yangicha xayrlashish, eshikdan ham boshqacha kirib kelishi – bularning bari o'ziga xos ma'noni anglatardi. Qolgan narsalarning Pio amaki uchun ahamiyati yo'q edi. Bundan ortiq yana nima ham bo'lishi mumkin, ispan adabiyoti durdonalari hurmatini joyiga qo'ya olgan ayoldan ham ajoyibroq yana nima bo'lishi mumkin? Aqlni olgudek qaddi-qomat, go'zallikda tengi yo'q ayolning mahorati yo'g'rilgan nafis ijro, qo'ng'iroqdek chiroyli ovozda aytilgan so'zlar va so'zlar orasida pauza ushlashning o'zi-yoq uning bu hayotda tutgan o'rmini ko'rsatmayaptimi? „Biz deyarli bu mo'jizani Ispaniyaga namoyish etishga

<sup>1</sup> *Buen Retiro* – Ispaniya qirolining shahardan tashqaridagi saroyiga qarashli teatr.

tayyormiz“, – derdi mushukdek miyovlab Pio amaki o‘ziga o‘zi. Spektakldan so‘ng uning kiyinish xonasiga kirib kelar ekan, „Juda yaxshi!“ deb xitob qilardi. Lekin ketish oldidan o‘n bir ming kyolnlik qizlar<sup>1</sup> haqi, u qayerda buncha quruqlanib Excelencia<sup>2</sup> so‘zini talaffuz qilishni o‘rganganini surishtirishni esidan chiqarmasdi.

Qirol noibi janoblari Perikoladan uncha sergap bo‘lmagan mehmonlarni tungi ziyofatlariga taklif qilish to‘g‘risida fikrini so‘radi, buzruk ota bilan tanishuvga qanday qarashiga qiziqdi. Kamila juda quvonib ketdi. Buzruk ota ham quvondi. Ularning uchrashuvlaridan oldin buzruk ota aktrisaga kaftdek katta feruza ko‘zli taqinchoq yubordi.

Lima shahrida siyohrang qizg‘imtir shoyiga o‘raganday yumaloq bir narsa bor ediki, uning ichidan oshirma xamirday yuz va ikkita yaltiroq qo‘l chiqib turardi, bu muhtaram buzruk ota bo‘ladi. Yog‘ bosgan qatlarining orasidan muloyim, mehribon va aql to‘la ikkita qora ko‘z boqib turadi. Bu bir qop yog‘ning ichida juda qiziquvchan va harakatchan ruh bor, lekin yog‘li g‘oz, mazali baliqlardan voz kecholmay, musallasdan yuz o‘girolmay, tanasi qamoqxona-yu, ruhi esa bu tananing mahbusiga aylangan edi. U o‘z ibodatxonasini sevadigan, vazifasini sidqidildan bajaradigan juda Xudojo‘y odam. Ba‘zan o‘zining gavadasiga razm solarkan, o‘ziga juda achinib ketardi. Lekin afsus-nadomatning yuki ro‘za tutishdan yengilroqdek tuyulardi. So‘nggi paytlarda u ba‘zilarning maxfiy maslahatlariga quloq tutish haqida o‘ylay boshladi, masalan, bu qovurdoqning manavi salat bilan to‘g‘ri kelishi yoki to‘g‘ri

<sup>1</sup>O‘rta asr afsonalariga ko‘ra Britaniya malikasi Ursula va 11 000 qiz xunlar tomonidan Kyolnda o‘ldirilgan. (Ammo xunlar haqidagi bu afsona tarixiy asosga ega emas. (tarj.)

<sup>2</sup>Excelencia – Hazrati oliylari. (Isp.).



kelmasligi haqida. Boshqa barcha narsalarda esa u o'rnak bo'lgudek hayot tarzini olib borardi.

U antik davr adabiyotini boshdan oyoq o'qib chiqqan bo'lsa ham, o'sha davr hayoti haqidagi tasavvur va taassurotlaridan tashqari hammasini esidan chiqarib yuborgan. Otalar va Ibodatlarni o'rgangan, u yerdan ham Peruga umuman aloqasi bo'lmagan bahslar haqidagi g'ira-shira taassurotlaridan tashqari hech narsa esida qolmagan. U Italiya va Fransiyaning beadab durdonalarining barchasini o'qib chiqqan va har yili qayta-qayta o'qiyveradi; hatto buyrakdagi toshlarining azob berishiga qaramay ham o'qiyveradi (Santa-Mariya de Kluksambukvadagi buloq suvlarini ichishi sharofati bilan bu toshlar erib yo'q bo'lib ketgan), lekin u yerdan Brantom<sup>1</sup>ning nozik tuyg'ularga yo'g'rilgan hikoyalaridan va ilhombaxsh Aretino<sup>2</sup>dan tashqari ko'ngilga yaqin bo'lgan yaxshiroq hech nima topa olmadi.

U Perudagi deyarli barcha ruhoniylar yolg'onchi ekanligini bilardi. Unga berilgan yuksak darajadagi nozik tarbiyaga ham qaramay, ba'zan bu aldanchilarga qarshi biror chora ko'rishdan o'zini bazo'r tiyib qolar, bu esa undan juda katta kuch talab qilardi. Bunday paytlarda sevimli fikrini o'zicha qayta-qayta takrorlashni yaxshi ko'rardi; nohaqlik va baxtsizliklar bu dunyoda – doimiy; taraqqiyot nazariyasi – o'zini o'zi aldash; baxtni bilmagan kambag'allarga musibatlar ta'sir qilmaydi deb hisoblardi. Barcha boy odamlar singari u ham kambag'allarning chinakamiga iztirob cheka olishiga ishonmasdi (ularning uylariga qarang, ularning ust-boshini ko'ring). Barcha o'qimishlilar singari u ham, faqat madaniyatli odamgina o'zining baxtsiz ekanligini anglashga qodir deb hisoblardi. Bir gal rohiblarning

<sup>1</sup> Brantom – O'rta asr yozuvchi dramaturgi. (tarj.)

<sup>2</sup> Aretino – (haqiqiy familiyasi Bachchi) Petro-italiyalik satirik yozuvchi, dramaturg. (tarj.)

nohaqliklariga uning e'tiborini qaratishganida, ularga qarshi chora ko'rishiga oz qoldi. Peru ruhoniylari o'zboshimchalik bilan me'yor o'rnatib olishgan ekan. Bandalar qilgan gunohlarini afv etishlarini so'rab cherkovga kelishganda, ularning yengilroq gunohlarini kechirish uchun rohiblar ikki miqdor un talab qilishsa, sidqidildan gunohlaridan o'tib berish uchun besh miqdor un so'rashar ekan. U qo'l ostidagilarining bunday kirdikorlari haqida eshitib g'azabdan qaltiragancha, bor zahrini kotibiga sochdi, unga darhol yozadigan qurollarni hozirlashni buyurdi. Bir payt u qahr bilan qo'l ostidagilarning barchasiga noma yozishini e'lon qildi. Afsuski, siyohdonda siyoh yo'q ekan. Aksiga olib, qo'shni xonadan ham topilmadi, zir yugurib butun qasrdan ham siyoh topa olishmadi. Uydagi ahvoldan bu mehribon odamning shunchalik hafsalasi pir bo'lib ketdiki, ikkisi qo'shilib, u yotib qoldi. Shu voqeadan keyin u o'zini darg'azab bo'lishdan ehtiyot qiladigan bo'lib qoldi.

Buzruk otaning kechki ziyofatlarga taklif etilishi uzukka ko'z qo'ygandek bo'ldiki, Don Andres hatto yangi odamlar haqida ham o'ylay boshladi. So'nggi paytlarda u Pio amakiga nisbatan ko'proq muhtojlik sezayotgan bo'lsada, uni saflariga qo'shish taklifini Perikolaning o'zidan kutayotgandi. Ana shunday payt yetib kelganida esa Pio amaki o'zi bilan birga sayohatchi kapitan Alvaradoni boshlab keldi. Odatda, ziyofatlari Perikolaning spektakllardan bo'shab kelishidan bir necha soat oldin boshlanardi. Kamila esa soat birlarga yaqin qimmatbaho taqinchoqlarga va kiyimlarga burkangan, lekin juda charchagan holda kirib kelardi. To'rttala erkak uni qirolichalardek kutib olishardi. Bir soatcha u suhbatga qo'shilishib o'tirar, so'ng Don Andresning yelkasiga boshini qo'yardi-da, nigohini ro'parasidagi ajin bosgan bir kulgili chehradan ikkinchisiga olib, suhbatni tinglashda davom etardi. Ular esa butun tun davo-

mida suhbatlashishar, o'zlariga bunday suhbatlar ilg'or dunyoqarashli ispaniyaliklar ruhiyatiga, an'analariga xos degan fikrni ta'kidlashar, doimo Ispaniyani qo'msaguvchi yuraklariga malham izlashardi. Suhbatlarining mavzusi aksar ruhlar haqida, sirli, ko'rinmas dunyo haqida, yer va uning insonlar paydo bo'lgunga qadar qanday bo'lganligi, sayyoralarning bir-biri bilan to'qnashib ketishi mumkinligi, yana odam jon berganda uning ruhi kabutardek uchib ketsa, buni ko'rish mumkinmi yoki yo'qligi, Iso alayhis-salomning yerga qayta kelganligi haqidagi xabar Quddusi Sharifdan Peruga qadar qancha muddatda kelishi mumkinligi muhokamasiga bag'ishlanardi. Quyosh ufqdan bosh ko'tarsa hamki, ularning urushlar va qirollar, shoirlar va olimlar, uzoq yurtlar haqidagi suhbatlari tugay demasdi. Har bir mehmon o'z bisotidagi ma'noli, lekin g'amgin latifalarni to'kib solar, odamzodning azob-uqubatlari haqidagi quruq gaplardan nariga o'tmasdilar.

Quyoshning zarrin nurlari avval And tog'lari osha katta derazaga tushar, undan stolda uyulib yotgan mevalarga, musallas to'kilgan dasturxonga, so'ngra himoyachisining yelkasiga bosh qo'yib uxlab qolgan Perikola-ning top-toza peshonasiga tushardi. Oraga uzoq jimlik cho'kar, bu orada hech kim birinchi bo'lib qo'zg'alishni istamasdi. Ularning nigohi o'zlari orasida yashayotgan bu g'aroyib qushchaga boqqanda dam olardi. Pio amakining nigohi esa butun kecha davomida uni kuza-tishdan to'xtamasdi, tez-tez harakatlanuvchi, xavotir va muloyimlikka to'lib-toshgan nigohi hayotining buyuk si-riga va mazmuniga qadalgan bo'lardi.

Pio amaki hech qachon Kamilani kuzatishdan char-chamasdi. Bu dunyoda yashovchilarni u ikki toifaga bo'lardi – sevganlar va hech qachon sevmaganlarga. Keyingi toifadagilar dahshatli aslzoda kiborlar, ya'ni sevishdan

mahrum bo'lganlar (to'g'rirog'i, sevgi dardini his qilma-  
ganlar) – ularni jonli deb ham aytib bo'lmasdi. Har holda,  
hayotlari tugagandan keyin ularning qayta tug'ilmasliklari  
aniq edi. Bu o'lik jonlar edi, ular dunyoni ma'nisiz kulgi-  
lari, yig'ilari, quruq gaplari bilan to'ldirishardi, vaqt-soati  
kelib, tutundek nom-nishonsiz g'oyib bo'lishadi. Pio ama-  
kining rang-barang achchiq hayoti ham, sevgi haqidagi  
xulosalari ham, sevgiga munosabati ham boshqa birovni-  
kiga o'xshamasdi. U sevgiga berahm xastalikka qaragan-  
dek qarar edi, Xudo suyganlar kech o'smir davrida bu bi-  
lan xastalanib, uzoq riyozatdan so'ng rangi ketib sillasi  
qurigan bo'lsa ham, hayot yukini ko'tarishga shay holda  
oyoqqa turishlari kerak. Hayotda qilinadigan xatolarning  
katta ro'yxati mavjud (u shunday deb o'ylaydi), dardiga  
malham topganlar esa bulardan ham o'zini asragan bo'la-  
di. Afsuski, shunday bo'lsa ham ularning chekida qator  
kamchiliklar qolib ketadi (ana shunday misollardan birini  
keltirib o'tsak), ular atrofdagilarning yaxshi munosabat-  
larini hayotlarining nizomi deb bilishmaydi, xoh u shoh  
bo'lsin, xoh gado – ularga jonsiz buyumga qaragandek  
qaramaydilar. Pio amaki Kamilani kuzatishdan to'xtama-  
gandi, unga ba'zan shunday tuyulardiki, u o'zining Xudo  
suyganlar safidan joy olganligini anglab yetmadi yoki  
buni qadrlay olmadi. Qirol noibi janoblari bilan bo'lgan  
tanishuvdan keyin Pio amaki qancha oylar nafasini ichiga  
yutib kutdi. U yillab nafasini ichiga yutdi. Kamila qirol  
noibi janoblariga uchta farzand tug'ib berdi, lekin o'zi av-  
valgi holicha qoldi. Unda mahoratning bir qancha yangi  
qirralar ochila borishi dunyoni zabt etishning dastlabki  
alomati ekanini Pio amaki ilg'agan bo'lardi. Pyesalarda  
shunday joylar bor ediki, ularni bir kunmas-bir kun u be-  
malol tomoshabinga yetkazib berishi kerak edi: yetkaz-  
ganda ham sirli quvonch bilan. Nega deganda bularning



bariga u endi qalbida yotgan azaliy donishmandlik bilan yondashmog'i kerak edi. Faqat aynan ana shunday joylarida Perikolaning ijrosi borgan sari yuzaki, deyarli ishonarsiz bo'lib bormoqda edi. Pio amaki tez orada shuni payqadiki, Kamila don Andresdan ham bezgandi, chunki u aktyorlar, matadorlar, savdogarlar bilan yashirincha ishqiy sarguzashtlarini boshlab yuborgandi.

Bora-bora teatr ham ko'ngliga urib, undan zerika boshladi va tekinxo'rlikning yana bir yangi turi uning onigiga joylashib oldi. Endi u xonim bo'lishni istab qoldi. Basavlatlilikka ruju qo'yib, sahnadagi ijrolari haqida ham shunchaki ermak sifatida gapiradigan bo'lib qoldi. U o'ziga duenya<sup>1</sup> va bir necha oqsoch yolladi, cherkovga ham aslzodalar keladigan paytga qarab boradigan odat chiqardi. Universitetda bo'ladigan tantanalarda qatnashadigan, ehson ulashishda esa eng saxiy ehsonchilar bilan musobaqalashadigan bo'ldi. U hatto savodini ham chiqarib oldi. O'ziga nisbatan yengiltak ayollardek muomalada bo'lishlariga jon-jahdi bilan qarshilik ko'rsatardi. U hashamatli hayotga mukkasidan ketish bilan birga aslzoda kiborlar orasidan ham biror mavqega ega bo'lishga ko'z olaytirib, o'z niyatiga yetish yo'lida homiysining hayotini ham dahshatli tarzda murakkablashtirib yubordi. Fe'l-atvoridagi bir sharmandalik yangisi bilan almashinib, oliyanob, oqibatli insonlar qatoriga ham suqulib kira boshladi. U qandaydir ajdodlarni o'ylab topdi, yangi qarindoshlarni to'qib chiqardi. Noqonuniy farzandlarini qonuniylashtirib oldi. Jamiyatda u tavbasiga tayangan hokisor ayol rolini ijro etar, hurmatli xonimlarga belgilanganidek, gunohlarga tavba qilib boriladigan yurishlarda sal g'azablanib

<sup>1</sup> *Duenya* – qari xotin yosh aslzoda ayolni yonida enaga va tarbiyachi sifatida doimo hamrohlik qilib yuradi. (*tarj.*)

gunoh qilganlar qatorida sham ko'tarib yonma-yon borardi. Ha-da, uning gunohlari – bu sahnadagi ijrolari edi, lekin hammaga ham ma'lumki, aktyorlardan ham avliyolar chiqqan, avliyo Gelasiy, avliyo Genesiy, avliyo Margarita Antioxskaya, avliyo Pelagiya.

Santa-Mariya de Kluksambukvadan uncha uzoq bo'lmagan joyda, buloq suvlari bor yerda aslzodalarning dam olish maskani joylashgan. Don Andres Fransiyaga sayohat qilganidan keyin bu yerda ham o'zi uchun kichkinagina shaxsiy Vishisini qurishga qaror qildi, u bu yerda ibodatxona, bir necha mehmonxona, teatr, buqalar jangi uchun maydon va fransuz bog'i barpo ettirdi. Kamilaning sog'lig'i joyida edi, lekin u ham shu yerda o'ziga kichkina qasr qurdirib oldi va soat o'n birda bu bema'na suvdan no'plashni odat qildi. Markiza Montemayor bizga bag'oyat sermazmun tarzda maromiga yetkazib bu jannat manzarasini va uning Xudosini ta'riflab bergandi. Qirol noibi janoblarining fransuz bog'i xiyobonida kasallik ko'rinishini olgan manmanlik bilan sayr qiladigan paytda g'ashiga tegishni yoqtiruvchilar tomonidan hurmat bajo keltirib bukilishlariga royish bildirib yurarkan, donya Mariya bu odamning suratini bizga quyidagicha ta'riflaydi; ulug'vor, lekin toliqqan, bir kechaning o'zida qimorda shunday katta mablag'ni yutqazardiki, bu pullarga butun boshli yangi Eskurial<sup>1</sup> barpo etish mumkin bo'lardi.

Yana uning yonidagi o'g'lining ham suratini chizarkan, yetti yoshli nimjongina don Xaimening ko'rinishini shunday ta'riflaydi; u nafaqat onasining chiroyli ko'zlari va peshonasini, otasining ham qator xastaliklarini o'ziga meros qilib olgan. Don Xaime xastalik azoblarini tili yo'q jonivorlardek o'tkazar, uning alomatlari odam-

<sup>1</sup> *Eskurial* – Ispaniya qirolining yozgi qasri.

lar bor joyda ko'zga tashlanib qolsa, bundan juda ham uyalardi. U shunchalik chiroyli ediki, u haqda rahmi kelib so'zlaguvchilar kishining g'ashini keltirardi. Xastalik azoblarining cho'zilib ketishi va bu haqda yurgiziladigan doimiy mulohazalar uning yuziga hayratlanarli darajada sabr-toqat ifodasini bergandi. Onasi unga qizil baxmal-dan kiyim kiydirgandi, holi yetgan kunlari bolakay onasining orqasidan bir necha qadam orqada ergashib yurar, u bilan suhbatlashmoqchi bo'lgan xonimlardan o'zini chetga tortardi. Kamila hech qachon don Xaimega zarda qilmas va hech qachon hissiyotlariga erk berib, uni erkalatmasdi. Havo ochiq kunlari ularning kimsasiz ayvonda jimgina sayr qilib yurishganini ko'rish mumkin edi. Kamila jamiyatda o'zi istagan mavqega tezroq ega bo'lishni xohlar va o'sha kun haqida mahzun o'ylarga berilardi. Don Xaime esa shunchaki quyoshga quvonar va xavotir bilan paydo bo'lgan bulutlarning masofasini chamalardi. Ko'rgan odamga bu hol shunday tuyulardiki, go'yo ikkalasi bu yerlarga uzoq yurtlardan yoki qadimgi ashulalardan kelib qolishgan-u, hozircha yot joylarning tilini o'rganishga ulgurishmagan, o'zlariga hali do'st ham ortirishmagan.

Sahnani tark etganida Kamilaning yoshi, taxminan, o'ttizlarda edi. Jamiyatda o'z mavqeyiga ega bo'lishi uchun besh yilcha vaqt ketdi. U to'lishgan, lekin aqli yildan yilga charaqlab bormoqda edi. Borgan sari bashang kiyimlarga o'ch bo'lib, mehmonxonalarining pollarida uni aksini ko'rgan odam parlar, sharflar bilan bezab tashlangan ko'p qavatli imoratni ko'rganday bo'lardi. Uning yuzi och havorang upaga belangan, ustidan alvon rangda og'iz yasab qo'yilgandi. Uning har galgidek kurakda turmaydigan qiliqlari, kiborlar dunyosining me'daga teguvchi odatlari bilan yanada boyidi. Aslzodalar dun-

yosida o'z mavqeyiga ega bo'lish uchun qilgan yurishlarining boshidayoq Pio amakiga odamlar oldida uning yoniga kelishini man etgandi; endi esa uning sezdirmay kelib-ketishlari ham Kamilaning asabiga tegar, u bilan juda quruq va xushlab-xushlamaygina muomala qilardi. Kamila nigohi uning nigohiga to'qnash kelib qolishidan qochar va doim janjal uchun bahona izlardi. Lekin baribir Pio amaki bir oyda bir marta uning sabr-toqatini sinovdan o'tkazish uchun o'zida jasorat topar, uchrashuv natijasiz bo'lganda ham tepaga ko'tarilib, uning farzandlari bilan vaqtini o'tkazardi.

Shunday kunlarning birida Pio amaki uning villasida paydo bo'lib, xizmatkorlari orqali uchrashuv haqida ijozat so'radi. JavobanKamilaning u bilan fransuz bog'ida kun botishi oldidan uchrashishini yetkizishdi. U Limadan ichki tuyg'ulariga quloq tutib, entikib yetib keldi. Barcha yolg'iz insonlar kabi u ham do'stlikni ilohiylashtirib, uni anvoyi gullar bilan burkash xususiyatiga ega edi. Uning fikricha, odamlar bir-biri bilan kulib gaplashganida, quchoqlashib xayrlashganida, og'izlari quloqlarida bo'lib birga tushlik qilganlarida, balkim, menga ishonmasligingiz mumkin, lekin unga shunday tuyulardiki, bu yaqinlikdan ular katta qoniqish his qilishar ekan. Mana, u ham Perikolani yana ko'rgisi, uning „Pio amaki“ deyishini eshitib, bir soniyaga bo'lsa-da o'zlarining uzoq sargardonlik yillari quvonchi taftini his etgisi keldi.

Fransuz bog'i shaharning janubida joylashgan bo'lib, uning ortida And tog'lari savlat to'kib turar, u yerdan ancha pastda qirlar va do'ngliklar to'lqin-to'lqin bo'lib, Tinch bahri muhiti sari cho'zilgan manzara ochilardi. Vaqt ham ko'rshapalaklarning juda pastlab uchadigan, jonivorlar esa oyoq tagida cho'chimasdan o'ralashadigan paytga yaqinlashgan edi. Yolg'iz yo'lovchilar bog'da



sayr qilib yurishar, uzoqlarga tikilib, suyangancha xayol surib, qorayib kelayotgan osmonga, adirlarga qarashar ekan, qaysi qishloqda it akillayotganini o'zlaricha taxmin qilishardi. Vaqt ham ota daladan qaytib kelib, hovlidagi it bilan o'ynab, ushlanib qoladigan payt bo'lib qolgandi. It egasiga tashlanadi, egasi esa uning tumshug'idan siqib olib yoki chalqanchasiga yotqizib erkalaydi. Bu paytda qizlar birinchi yulduzlarni izlab topib istaklarini aytar, o'g'il bolalar esa kechki ovqatni besabrlilik bilan kutar, ishi boshidan oshib ketgan ona ham bir daqiqa bo'lsa-da uy yumushlaridan tin olib, tinib-tinchimas oilasini tabasum bilan kuzatar edi.

Pio amaki marmardan bezab yasalgan xarrak yonida yaqinlashayotgan Kamilaga qarab turardi.

– Men kech qoldim, – dedi u. – Kechir. Senga nima kerak?

– Kamila... – gap boshladi Pio amaki.

– Mening ismim donya Mikaela.

– Seni xafa qilmoqchi emasman, donya Mikaela, lekin menga seni yigirma yil mobaynida Kamila deb atashga ijozat berilgandan keyin, o'ylabmanki...

– Uf, nima deb chaqirsang chaqiraver, o'zing bilasan.

– Kamila, gaplarimni eshitishga so'z ber! Birinchi jumladan keyinoq qochib qolmaysanmi!

Kamila to'satdan qizishib uning gapini bo'ldi:

– Pio amaki, bilib qo'y. Agar meni teatrqa qaytarishga urinsang, esingni yeb qo'yibsan. Men u joyni eslasam dahshatga tushaman. Tushunsang-chi. Teatr! O'ylab ko'r, teatr! Pastkash joy, har kuni mukofotiga haqorat eshitasan. Tushun, sen bekorga vaqtingni ketkazyapsan.

Pio amaki muloyimlik bilan inkor etdi.

– Agar sen yangi do'stlaring bilan baxtli yashayotgan bo'lsang, men seni u yerga chaqirmayman.

– E-ha! Hali senga mening yangi do‘stlarim yoqmayptimi? – tez javob berdi Kamila. – Ularning o‘rniga kimni taklif qilishing mumkin menga?

– Kamila, men faqat shuni eslayman...

– Pand-nasihatga toqatim yo‘q. Maslahatingga zor emasman. Hozir sovuq tushib qoladi, men uyga ketishim kerak. Men haqimda qayg‘urma! Meni esingdan chiqar, tamom-vassalom!

– Jahling chiqmasin, qadrdon Kamilam. Sen bilan gaplashishga ijozat ber. Yana o‘n daqiqa sabr qil.

Pio amaki Kamilaning nega yig‘layotganini tushunmasdi. U nima deyishini ham bilmasdi. So‘ng shoshib qolib dedi:

– Sen hatto spektakllarni tomosha qilishga ham kirmaypsan, buni esa hamma sezyapti. Tomoshabinlar ham teatrdan sovub ketishgan. Eski komediyani bor-yo‘g‘i haftasiga ikki marta qo‘yishyapti; qolgan kechalari – yengil-yelpi asarlar, bemani hazillar. Hammasi zerikarli, oddiy va bachkana. Ular ispancha gapirishni ham esdan chiqarib qo‘yishdi. Hatto oddiygina yurishni ayt, shuni ham eplasholmaydi. Isoning bayramida „Valtasarning bazmi“ni<sup>1</sup> qo‘yishgandi. Sening ijrong naqadar ajoyib edi u yerda. Endi esa bu – sharmandalikdan boshqa narsa emas.

Oraga jimlik cho‘kdi. Bulutlarning go‘zal o‘rami qo‘y-qo‘zilar suruviga o‘xshab daryo tomondan do‘ngliklar orqasiga suzib o‘tdi. Kamila birdan uning tizzasiga qo‘lini qo‘ydi, juvonning yuzi xuddi yigirma yil avvalgiday bo‘lib qolgandi.

---

<sup>1</sup> *Valtasar* – muqaddas kitoblarda va yunon mualliflarining asarlarida yozilishicha, forsliklarning g‘alaba sharafiga uyushtirilgan bazmining avjida tushunarsiz so‘zlar sirli tarzda devorda paydo bo‘lib qoladi. Faqatgina donishmand Daniel so‘zlarning ma‘nosini izohlab beradi va bular o‘z tasdig‘ini topadi. Bu voqea ko‘plab dramaturg yozuvchilarning, rassomlarning asarlariga asos bo‘lgan. (*tarj.*)

– Meni kechir, sen bilan qo‘pol muomalada bo‘lganim uchun, Pio amaki. Xaimening mazasi yo‘q. Hech nima qilishning iloji bo‘lmayapti. Uning rangi shunday oqarib ketganki, shunday... hayron qolasan. Yaxshisi, bu haqda o‘ylamagan ma‘qul. Men sahnaga qaytganim bilan hech nima o‘zgormaydi. Tomoshabinlarning yengil-yelpi asarlarga, quruq oldi-qochdi hazillarga qiziqishi ortaveradi. Biz eski komediyani qutqarib qolmoqchi bo‘lganimizda ahmoqlik qilgan ekanmiz. Odamlar xohlasa eski pyesalarni kitoblardan topib o‘qishsin. Olomon bilan olishish befoyda.

– Ajoyib Kamilam, sen sahnada rol ijro etganingda, men nohaqlik qilgan edim. Menda qandaydir ahmoqona takabburlik paydo bo‘lgandi. Men maqtovlarga ziqnalik qildim, sen esa ularga loyiq eding. Kechir meni. Sen doim buyuk aktrisa bo‘lgansan. Agar sen bu odamlarning orasida o‘zingni unchalik baxtli his qilmasang, balkim, Madridga borging kelib qolar. Seni u yerda olamshumul qabul marosimi kutyapti. Sen hali ham yoshsan, go‘zalsan. Hali ulgurasan donya Mikaela deb nomlanishga. Biz tez orada qarib qolamiz. Tez orada bo‘lib ham ketamiz.

– Yo‘q, Ispaniyaga bormayman. Dunyoning hamma joyi bir xil – Madrid, Lima.

– Oh, qani edi, bironta orolga ketib qolsag-u, u yerdagi odamlar sening yoningda, faqat sen uchun yashashsa, seni yaxshi ko‘rishsa.

– Pio amaki, yoshing ellikka borib qolgan bo‘lsayam, haligacha xayoliy orollar haqida orzu qilishingni qo‘ymabsan.

Pio amaki boshini solintirib g‘udrandi:

– Albatta men seni sevaman, Kamila... Men doim seni sevib qolaman, sevgim shunchalik kuchliki, buni so‘z bilan ta‘riflashga til ojiz. Seni uchratishimning o‘zi butun hayotimni oqlaydi. Sen endi obro‘li xonimsan. Badavlatsan.

Sening endi menga hech qanday muhtojliging yo'q. Lekin shunday bo'lsa ham men yordamga doim tayyorman.

– Qanchalik no'noqsan-a, – dedi Kamila kulib. – G'irt yosh bolaning gapini qilyapsan. Yillar seni hech nimaga o'rgatmagan ko'rinadi, Pio amaki. Bunday sevgining o'zi ham yo'q, orol ham yo'q. U faqat teatrdagi tomoshada bor bo'lishi mumkin.

Pio amakini izza qilib bo'ldi-yu, lekin fikridan qaytarib bo'lmadi.

Nihoyat, Kamila o'rnidan qo'zg'aldi-da, g'amgin ohangda dedi:

– Nimalar haqda gapiryapmiz? Salqin tushib qoldi. Men uyga borishim kerak. Boriga qanoat qil. Teatrdan ko'nglim qolgan. – Oraga jimlik cho'kdi.

– Boshqasiga-chi?... Uf, o'zim ham bilmayman. Bu bizga bog'liq emas. Peshonamga nima yozilgan bo'lsa shuni ko'raman. Sen ham tushunishga harakat qilib yurma! Men haqimda o'ylama! Pio amaki. Meni kechir, tamom! Kechirishga harakat qil!

Kamila bir necha daqiqa qimirlamay turib qoldi, yuragi qa'ridan unga biror so'z izlardi. Birinchi bulutlar ayvonga yetay deganda, qorong'i tushib qoldi; sayr etib yurganlar bog'ni tark eta boshlashdi. U don Xaime haqida, don Andres haqida va Pio amaki haqda o'ylardi. Gapirishga so'z topolmasdan tez egilib, Pio amakining barmoqlaridan bo'sa oldi-da, shoshib uzoqlashdi. Pio amaki esa anchagacha quyuqlashayotgan bulutlar ostida o'tirar ekan, baxtdan titrab, bo'lib o'tgan gaplarning ma'nosini anglab yetishga harakat qilardi.

\* \* \*

Kutilmaganda Limada yangilik tarqaldi. donya Mikaela Vilegas, Kamila Perikola deb atalgan xonim chechak bilan kasallanib qolibdi. Chechak bilan bir necha yuzlab



odamlar kasal bo'lsa-da, barchaning, ayniqsa, quvonchdan terisiga sig'may ketgan hasadchilarning e'tibori aktrisaga yo'naltirilgan edi. Estdan og'dirgudek darajadagi shov-shuvdan shahar larzaga keldi. Nahotki, tabaqalar orasidagi tafovutni nazar-pisand qilmagan go'zallikka putur yetgan bo'lsa? Kasalning uyidan Kamilaning nihoyatda ko'rimsiz bo'lib qolgani haqidagi xabar sirg'alib chiqib, hasadchilarni quvontirib yubordi. Sal o'ziga kelgach, bemor shahardan tashqaridagi villasiga ko'chishga qaror qildi; o'zining kichkina qasrini esa sotishga buyruq berdi. Sovg'aga olgan taqinchoqlarini egalariga qaytardi, chiroyli ko'ylaklarini sotdi. Qirol noibi janoblari, buzruk ota va bir necha saroy a'yonlari, uning haqiqiy muxlis-lari Perikolaning uyini xat va sovg'alar bilan to'ldirishda davom etishdi; lekin u xatlarni o'qimas, sovg'alarni esa hech qanday izohlarsiz egalariga qaytarardi. Kasalning birinchi kunlaridanoq xizmatkor va oqsochlardan tashqari uni ko'rishga hech kimga ruxsat berilmagandi. Uchrashish uchun qilgan sa'y-harakatlari uchun don Andres Perikoladan katta miqdorda pul hamda mag'rurlik va shafqatsizlikning barcha turini o'zida jamlagan xat oldi. Chiroyiga doimiy ehtiromlar qabul qilishga ko'nikib qolgan barcha go'zal ayollar singari, u ham yaxshi munosabatlarning bari uning chiroyiga bo'lgan hurmat deb hisoblar, endigi e'tibor esa rahm-shafqat yuzasidan yoki qo'rqinchli maxluqni tomosha qilishdan to'liq qoniqish hosil qilish uchun bo'lgan harakat deb bilardi. Chiroyidan mahrum bo'lib endilikda, hech kimning unga nisbatan yaxshi munosabatini kutmasligi kerakligi haqidagi fikr shundan kelib chiqqan ediki, u ehtirosli sevgidan boshqa sevgini tasavvur ham qila olmasdi. Bunday sevgi esa o'zida g'amxo'rlikka va bag'rikenglikka anchagina kuch sarf etib, orzular qanotida yuksak she'riyat namunasini yaratsa-da, baribir faqat o'zi-

ni o'ylaguvchi g'arazli sevgining yorqin ko'rinishi bo'lib qolaveradi. Bu tuyg'ular qullikning uzoq yo'lini bosib o'tmaguncha, ularga bo'lgan munosabat nafratga aylanmaguncha, kulgiga qolmaguncha, ulkan badgumonlikni yengib o'tmaguncha g'arazsiz tuyg'ular orasidan o'ziga joy topolmaydi. Bu masofani bosib o'tolmaganlarning tuyg'ulari esa u bilan bir umr yashagan bo'lsa-da, kecha kuchugini yo'qotgan bolaning ta'sirlanganichalik tuyg'uni ham bizga yetkazib bera olmaydi.

Do'stlari uni yana odamlar orasiga qaytarish harakatidan to'xtashmas, u esa borgan sari vahshiylashib borar, shaharga haqoratga to'la xatlarni uzluksiz ravishda jo'natib turardi. Birozdan keyin uning din yo'lidan panohtopganligi haqidagi gap tarqaldi. Lekin uning baqirib-chaqirib umidsizlikka tushgani haqidagi yangi mish-mish gaplar buni inkor etardi. Uning yonida yashayotganlarga sho'rlikning tushkunlikka tushishini ko'rish juda og'ir edi. O'zining va bolalarining hayoti tugaganini inkor etolmasdi. O'zining shallaqilarcha mag'rurligi bilan topganidan ko'ra ko'proq narsa yo'qotdi. Endi esa qashshoqlikning ko'lankasi uning qayg'uli va bo'm-bo'sh kelajagini yanada ham g'aribroq ko'rsatardi. Tashlandiq holga kelib qolgan uy-joyida kunlarini rashkli yolg'izlikka yo'rgaklashdan boshqa chorasi qolmagandi. U soatlab dushmanlarining quvonchi haqida o'ylar, xonasidan u yoqdan bu yoqqa borib kelgan qadam tovushlari va ba'zan g'alati tarzda ovoz chiqarib, qichqirib yuborgani eshilib qolardi.

Pio amaki tushkunlikka tushmadi. Bolalar bilan shug'ullanib, tashlandiq holga kelib qolgan uy-joyi boshqarishda ko'maklashib turdi, uy bekasiga bildirmasdan uni pul bilan ta'minlab, bu uyga kirish uchun o'ziga yo'l ochdi, bora-bora esa o'ranib qolgan uy bekasining yoniga ham ko'prik tashladi. Shunda ham Kamila o'zining

mag'rurligi kasridan, uni ham menga rahmi kelyapti deb o'ylab, butun alamini undan olar, masxara qilib haqorat-lardi. Pio amaki esa uning xo'rlangan, kamsitilgan ruhiyatini, sog'ayib oyoqqa turish bosqichlarini undan ko'ra yaxshiroq tushungani uchun uni yanada qattiqroq sevardi. Lekin shunday bir voqea yuz berdiki, bu Pio amakini bemorning kichik g'alabalariga qo'shgan hissasidan mahrum qildi. U eshikni ochib yubordi. Kamila esa uni berkitganman, deb o'ylagandi. Bir soatgagina Kamilaning yuragida umid paydo bo'ldi. Bo'r va krem qorishmasidan moy tayyorlab, uni yuziga surib ko'rsa-chi. O'z vaqtida upa-elikka belangan saroy kampirlari ustidan masxara qilib kulib yuradigan aktrisa o'ziga o'zi savol berardi, nahotki teatrdagi shuncha yillik faoliyati uni hozir asqotishi mumkin bo'lgan hech nimaga o'rgatmagan bo'lsa? Moy tayyor bo'lganda u eshikni berkitganman deb o'ylab, shosha-pisha uni yuziga surkay boshlagandi, so'ngra ko'zuga qarab, masxarabozlarday kulgili oq niqobni ko'rdu-yu, harakatlarining bari behuda ekanini tushundi; xuddi shu payt ko'zguda eshik oldida hayratdan qotib qolgan Pio amakining aksini ko'rib qoldi. U dod solgancha o'rnidan sapchib turib, yuzini qo'li bilan berkitdi.

– Yo'qol, uyimdan butunlay yo'qol! – qichqirdi u. – Bu yerga zinhor qadamingni bosma! – Uyatdan nafrat va la'natlar bilan uni haydar ekan, yo'lak bo'ylab uning orqasidan yugurgancha zinalardan qo'lga ilingan narsani olib uloqtirardi.

Kamila ijarachiga Pio amakini boshqa bu yerga qo'ymaslikka buyruq berdi. Pio amaki bo'lsa yana bir hafta uni ko'rishga harakat qildi. Oxiri harakatlaridan foyda chiqmagach, Pio amaki Limaga qaytdi; vaqtini o'z bilgicha o'tkazib yurar ekan, sog'inchdan o'n sakkiz yashar yigitdek beqaror edi.

Nihoyat, u harbiylarcha ayyorona yo‘l o‘ylab topdi-da, uni amalga oshirish uchun yana tepaliklarga qaytdi. Bir kuni tong otishdan oldin kelib Kamilaning derazasi tagiga yotib oldi. U qorong‘ida kichkina qizaloqning yig‘lagan ovoziga o‘xshatib ovoz chiqara boshladi. Bu ish bilan u chorak soat shug‘ullandi. Uning ovozi biron marta ham o‘zgarmadi, italiya musiqachilari rapo deb nomlagan balandlikdan oshmadi, ammo tez-tez tanaffus qilib turdi. Agar u uxlayotgan bo‘lsa, uzoqdan kelgan ovoz ham baland ovozdek uxlab yotgan odamning shuuriga singib borishini bilardi. Havo salqin va musaffo edi. Cho‘qqilar ortidan qahrabodek birinchi so‘qmoqlar oqarib ko‘rina boshlagan, sharqda esa tong yulduzlari har daqiqada yoqimli va parishonxotir nur taratardi. Chor-atrof jimjitlik bag‘rida, faqat yerdagi maysalar nogohoniy kelib turadigan shabadadan hazin shitirlab qo‘yardi. Birdan Kamilaning xonasida chiroq yondi, bir necha daqiqadan keyin esa deraza ochilib, oynadan yopinchiqli bosh ko‘rindi.

– Kim bor bu yerda? – yoqimli ovoz taraldi.

Pio amaki jim turardi.

Sabrsizlik ila Kamila yana so‘radi:

– Kim bor bu yerda? Bu yerda yig‘layotgan kim?

– Donya Mikaela, bekam, yalinaman, birpasga oldimga tushib keting.

– Kimsan? Senga nima kerak?

– Men bir nochor qizman. Estrellaman. O‘tinaman sizdan, oldimga tushib menga yordam bering. Xizmatkorlaringizni chaqirmang. O‘tinaman sizdan, donya Mikaela, o‘zingiz keling.

Kamila bir soniya jim turib, so‘ngra „yaxshi“ dedi-da, derazani yopdi. Tezda u ichkaridan chiqib keldi. Egnidagi qalin plashi shudringni supurib sudralib kelardi. Uzoqroqda turib:



– O'zing menga yaqinroq kelsang-chi! Kimsan o'zi? – deb so'radi.

Pio amaki o'rnidan turdi.

– Kamila, bu men – Pio amakingman. Kechir meni, lekin sen bilan gaplashib olishim kerak.

– Bibi Maryam haqi, qachon men bu badbashara odamdan qutularkanman-a? Tushunsang-chi, men hech kimni ko'rishni istamayman. Bu olamda hech bir inson bilan gaplashishni istamayman. Mening hayotim tugagan. Hammasi tugagan.

– Kamila, shuncha yil birga yashaganimiz haqi hurmati, men sendan bir narsani iltimos qilaman. Men ketaman va boshqa hech qachon seni bezovta qilmayman.

– Hech qanday iltimosingni eshitmayman. Ket bu yerdan!

– Gapimni oxirgi marta eshit, boshqa hech qachon seni bezovta qilmaslikka so'z beraman.

Kamila orqa eshik tomon tez yurib ketdi. Pio amaki gaplarimni eshitsin deb ortidan yugurdi. Kamila to'xtadi.

– Senga nima kerak? Tezroq gapir. Sovuqni ko'ryapsan-ku. Mazam bo'lmayapti. Borib yotmoqchiman.

– Kamila, yo'q demagin, don Xaimeni bir yilga tarbiyamga olay, u men bilan Limada yashasin. Menga ruxsat ber, unga ustozlik qilay. Ijzat ber, unga kastil tilini o'rgatay. Bu yerda xizmatkorlar orasida u tashlab qo'yilgan. U baribir hech nima o'rganmayapti.

– Yo'q!

– Kamila, yo'q dema! Xaime juda aqlli bola, u o'qishni istaydi.

– U kasal, nimjon. Sening uying axlatxona. U faqat ochiq havoda yashashi kerak.

– So'nggi oylarda u quvvatga kirdi. So'z beraman, uyni tozalattiraman. Murabbiya Mariya del Pilardan menga ena-

ga berishini so'rayman. Sening uyingda esa u kun bo'yi otxonadan beri kelmaydi. Men uni aslzodalar bilishi kerak bo'lgan hamma narsaga o'rgataman: qilichbozlikka, lotinchaga, musiqaga. Biz hammasini o'qib...

– Bolani onasidan ayirish mumkin emas. Buning iloji yo'q. Sening esing joyida emas, nimalarni o'ylab topding axir? Men haqimda unut, meni va atrofidagi hamma narsani unut. Men endi yo'qman. Men va mening bolalarim qanday bo'lsa shundayligicha yashayveramiz. Boshqa meni bezovta qilma! Men odamlarni ko'rishni istamayman!

Shunda Pio amaki so'nggi og'ir chorani qo'llamasa bo'lmasligini sezdi:

– U holda mening haqimni to'lab qo'y! Qancha qarzdor bo'lsang, hammasini.

Kamila hayratdan qotib qoldi. O'ziga o'zi: „Hayot naqadar dahshatli, unga chidash mumkin emas. Qachon men jon berarkanman?“ – deb pichirladi. Bir necha soniyadan keyin u bo'g'iq ovozdada:

– Hozir pulim juda kam. Borini to'layman. Hozirning o'zidayoq to'layman. Asrab qo'ygan qimmatbaho narsalarim bor. Shundan keyin uchrashishimizga hojat qolmaydi.

Kamila o'zining kambag'alligidan uyaldi. Bir necha qadam yurdi-da, so'ng orqasiga o'girilib dedi:

– Endi bildim, sen juda shafqatsiz odam ekansan. Lekin to'g'ri qilasan, men senga hammasini to'layman, tiyintiyinigacha.

– Yo'q, Kamila, men bu gapni seni ko'ndirish uchun aytgandim. Men sendan pul olmayman. Lekin don Xai-meni menga ber, bir yilga. Men uni yaxshi ko'rib, butun mehrimni berib parvarish qilaman. Senga zarar keltirganmidim? Men senga yomon ustoz bo'lganmidim?

– Bu shafqatsizlik, doim minnatdorchilik talab qilaverish, minnatdorchilik, minnatdorchilik. Men minnatdor

bo'lganman! Lekin endi men u ayol emasman, mening minnatdor bo'ladigan hech nimam qolmadi!

Oraga jimlik cho'kdi. Uning nigohlari porlab turgan yulduzga qadaldi, u go'yo osmondagi barcha go'zallikni orqasidan ergashtirib kelayotganday edi. Hozir, shu tobda uning yuragini ulkan yuk bosib turardi – hech qanday ma'no-matراسi qolmagan hayotning yuki. Nihoyat, u dedi:

– Agar Xaime sen bilan ketishni istasa, yaxshi. Men ertalab u bilan gaplashib ko'raman. Ketish istagini bildirsa, kun yarmida uni oshxona oldida topasan. Xayrli tun. Xudo yor bo'lsin.

– Xudo yor bo'lsin.

U uyga kirib ketdi. Ertasi kuni oshxona oldida kichkinagina jiddiy bola paydo bo'ldi. Uning chiroyli tikilgan yag'ir ust-boshi to'zib ketgan, qo'lida kiyimlari solingan bo'g'chasini ko'tarib olgandi. Onasi unga xarajatlari uchun oltin tanga va uyqusiz tunlari tikilib yotishi uchun qorong'ida yaltiraydigan toshcha berdi. Ular aravada yo'lga tushishdi, lekin tezda Pio amaki aravaning silkinishi bolaga ta'sir qilib, uning mazasi qochayotganini sezdi-da, yelkasida ko'tarib ketdi. Ular Avliyo qirol Lyudovik ko'prigiga yaqinlashganida, Xaime o'zining uyalganini berkitishga urindi. U o'ziga yaqin bo'lgan insonlardan ajralish daqiqalari yaqinlashayotganini his qilardi. Ayniqsa, bir necha daqiqa oldin Pio amaki kapitan do'stining orqasidan yetib olganida u juda uyaldi. Ko'prikning oldida esa u yosh qizning hamrohligida kelayotgan qari kampir bilan gaplashib ketdi. Pio amaki ko'prikdan o'tib bo'lishlari bilan, o'tirib dam olishlarini aytdi, lekin endi bunga hojat qolmagan edi.

## BESHINCHI QISM

### Ehtimol – taqdiri azaldir

Eski ko'prikning o'rnida yangi, toshko'prik qurishdi, lekin fojia esdan chiqmadi. Bu fojia odatiy luqmaga aylandi: „Balki, chorshanbada uchrasharmiz, – derdi limaliklar, – agar ko'prik qulamasa“. „Mening inim Avliyo Lyudovik ko'prigi yonida yashaydi“, – derdi-da, sirli tabassum qilardi, chunki bu har daqiqada kutilmagan hodisa ro'y berishi mumkin degan ma'noni anglatardi. Fojia haqida she'rlar ham bitilgan bo'lib, mumtoz she'riyatda ularni peruliklarning istagan antologiyasidan topish mumkin, ammo birodar Yuniperning asarigina adabiy asar sifatida yagona yodgorlik bo'lib qolaverdi.

Bitta voqeaning o'zini yuz xil izohlash mumkin. Agar uning avliyo Martin dorilfununidagi olim do'sti bo'lmaganida Birodar Yuniper bu uslubga hech qachon murojaat qilmagan bo'lardi. Bu olimning xotini uning qaramog'iga belanchakdagi ikkita qizalog'ini tashlab erta tonglarning birida harbiy odam bilan qochib ketgani bois uning qalbi qayg'u-hasratga limmo-lim edi. Bu dunyoda qandaydir nohaqlik hukmron ekanligini anglaganday bo'lib yurgan Birodar Yuniperga ana shunday misollar yetishmayotgan bo'lib, u hatto ichidan quvonib ketdi. Olim Birodar Yuniperga hayotni samodan turib boshqarayotganlarning nohaqliklarini fosh etuvchi fitnali mulohazalarini va shu mavzudagi bema'ni voqealarni gapirib berdi.



– Qachonlardir Neapol va Sitsiliyaning qirolichasi yashagan ekan, – deya hikoya qilardi olim, – kunlarning birida u o‘zining biqinida paydo bo‘lgan davosiz xastalik alomatini ko‘rib qolibdi. Dahshatli qo‘rquv ichra u qo‘l ostidagilarini ibodat qilishga chaqirib, barcha Neapol va Sitsiliya aholisining kiyimlariga xoch tasvirini to‘qib chiqishga amr etibdi. Xalq o‘z hukmdorini sevardi, shu tufayli ibodatlar ham, to‘qish-tikishlar ham ixlos bilan chin yurakdan ado etildi. Lekin bularning hech biri foyda bermabdi. Shundan keyin qirolicha Monreal'ning go‘zal yodgorliklari ichidagi qabrdan joy olibdi, yuragidan bir barmoq enicha tepada esa: „Yovuzlikdan qo‘rqmayman“ – degan so‘zlar bitilgan ekan.

Diniy aqidalar haqida shu tariqa fitnali gaplarni eshita turib, Birodar Yuniper o‘zini shunchalik kuchli hayajonga solgan va ichida anchadan beri pishib yetilib kelayotgan, butun odamzodga o‘sha ishonchni, e‘tiqodni isbotlashi lozim bo‘lgan g‘oyasini amalga oshiradigan, uni aniq sonlar bilan ko‘rsatadigan fursat yetdi, degan qarorga keldi.

Unga qadrli bo‘lgan Puerto qishlog‘ida yuqumli kasallik tarqalib, bir necha dehqonni hayotdan olib ketganida, u hammadan maxfiy ravishda o‘n beshta qurbonning va yana o‘n beshta bu ofatdan qutulib qolganlarning ro‘yxatini tuzib, ularning fe‘l-atvori, ezgulik yo‘lidagi foydalilik me‘yorini ko‘rsatuvchi jadval tuzib hisoblab chiqdi. Har bir jonni o‘n ball bilan belgiladi.

U o‘z jadvalida „Ezgulik“, „Diyonatlik“ va „Foydalilik“ me‘yorlarini o‘mi yuzasidan ustunlarga bo‘lib raqamlab chiqdi. Mana o‘sha jadval:

<sup>1</sup> Monreal – Sitsiliyadagi Benediktit ibodatxonasi.

	Ezgulik	Diyonatlilik	Foydalilik
Alfonso G.	4	4	10
Nina	2	5	0
Manuel B.	10	10	0
Alfonso V.	-8	-10	10
Vera N.	0	10	10

Masala u o'ylaganidan murakkabroq chiqib qoldi. Deyarli har bir jon o'ziga yarasha bo'lgan yerda qadr-qimmatga ega bo'lib, uchinchi qism deyarli hech nima bermadi hisob. Tadqiqotchi shu darajaga borib yetdiki, musbat ko'rsatkichli raqamlarga murojaat qilishga to'g'ri keldi. Alfonso V. fe'l-atvorini o'rganganida u shunchaki Vera N. kabi yomon bo'lib qolmasdan, hatto yomonlikni tashviqot qilib, cherkovni tan olmagan yetmagandek, yana boshqalarni ham yo'ldan urishga harakat qilardi. Vera N. ham yomon edi, lekin u o'mak bo'lgudek tarzda ibodat marosimlarida qatnashib borar, marosim payti to'lib ketadigan kulbaning suyanchig'i bo'lib ulgurgan edi. Ko'ngilga taskin bermaydigan jadvalning ko'rsatkichlaridan birodar Yuniper o'zicha xulosa chiqardi. U halok bo'lganlarning to'plagan raqami va falokatdan omon qolganlarning to'plagan raqamlarini hisoblab chiqib, shunday xulosaga keldiki, halok bo'lganlar tirik qolganlardan ko'ra besh marta afzalroq bo'lgan insonlar ekan. Bularning bari shunday mulohazaga olib kelardiki, go'yo bu ofat Puerto qishlog'idagi eng sara insonlarga qaratilgandek edi. O'sha kuni birodar Yuniper Tinch Okeani qirg'og'ida xayollar girdobida yurarkan, barcha yozgan, chizgan yozuvlarini to'lqinlar uzra sochib yubordi; u soatlab bu daryolar uzra abadiy turuvchi ulkan marvariddek bulutga tikilib turarkan, go'zallikka bo'lgan oshnolik uning qalbida o'ziga

xos itoatkorlik hosil qilib, yozganlarini yaratganning sinovlariga giriftor qilmadi. Undagi e'tiqod aniq asoslar asosida keltirilgan dalillar natijasida o'ylagandan ko'ra ayricha ko'rinish kasb etmoqda edi. Avliyo Martin magistrantining yana bir hodisa bilan bog'liq hikoyasi bor edi, (bu galgisi fitnadan uzoqroq), balkim, o'sha voqea sabab birodar Yuniper avliyo Lyudovik ko'prigida halok bo'lganlarning hayotini tadqiq qilish fikriga kelgandir. Bizga tanish bo'lgan magistrimiz Lima cherkovi bo'ylab aylanib yurgan chog'ida, toshlardan biridagi lavhalarni o'qish uchun to'xtadi. O'qiy turib uning pastki labi tobora ko'proq cho'chchayib borardi; u yerda bir xonim yigirma yildan oshiq yaqinlarining jon-u dili bo'lgani, do'stlariga zavq bag'ishlab yashagani, u bilan hamsuhbat bo'lgan har bir inson esa uning g'amxo'rlikidan va ajoyibligidan lol qolmasdan ketmasligini va u bu yerda Tangrining marhamatini kutib yotganligi haqidagi yozuvni o'qidi. Aksiga olib o'sha kuni magistrning asabi qo'zishi uchun yetarlicha voqealar bo'lib o'tgandi, uning ustiga bu yozuvni o'qib bo'lib undan ko'zini uzib-uzmay g'azab bilan hayqirdi: „Qanday sharmandalik! Qanaqa kaltafahmlik! Har bir odam biladi-ku buni, yer yuzidagi jamiki tirik jon faqat nafsini qondirish bilan band, undan voz kecha olish mumkinligi haqidagi afsonani abadiylashtirishning nima keragi bor edi? Xonim bu ishlarni beg'arazlik bilan qilgan degan gaplarni ko'paytirishning nima keragi bor edi?“.

Shunday deb, u toshga bu so'zlarni tushirganlarni fosh qilishga qaror qildi. Xonim bor-yo'g'i yigirma yil oldin olamdan o'tgan ekan. Tadqiqotchi uning xizmatkorlarini, farzandlarini, do'stlarini qidirib topdi. U qayerga bormasin hamma joyda xonim haqida iliq so'zlar eshitar, uning qilgan yaxshiliklari esa xuddi yoqimli atir

hididek o'zidan keyin ifor taratmoqda edi. U haqda kim bilan suhbatlashmasin, barcha xonimning yaxshiligini yoqimli tabassum bilan eslab, ta'riflashga so'z ojizligini aytishardi. Uni hech qachon ko'rmagan bo'lishsa-da, qiziqqon yoshdagi nevaralari ham uning insoniyligiga tan berishardi. Olim hayratdan tili kalimaga kelmasa-da, g'udrandi: „Baribir gaplarimning bari haqiqat. Bu misol esa tasodif, deyarli uchramaydigan noyob hodisa“.

Birodar Yuniper halok bo'lganlar haqida kitob yozar ekan, arzimagan bo'lib ko'ringan ma'lumotlarni ham ko'zdan qochirmaslikka tirishar, aks holda asosiy manbaga ulanib ketuvchi kalavaning uchini yo'qotib qo'yishdan qo'rqardi. U qancha ko'p ma'lumot yig'gan sari ularning ichida ko'proq chuvalashib borardi. Xulosalar uning boshini garang qilar, ularni joy-joyiga qo'yilsa hammasiga oydinlik kiritiladigandek edi. Fransiskolik rohib baringini yozib borarkan, balkim, bularni yigirma martalab o'qib chiqqanidan keyin (balkim, boshqa birorta aqlliroq odam o'qib qolsa), son-sanoqsiz dalillar harakatga kelib, ba'zi sirlarni oshkor etish mumkin bo'lishiga umid qilardi. Markiza de Montemayorning oshpazi uning bekasi deyarli faqat guruch, baliq va oz miqdorda meva tanovul qilganini gapirib berdi. Bu ma'lumotlarni birodar Yuniper yozib qo'yarkan, yozganlarim markizaning ichki sifatlarini yorqinroq ko'rish uchun asqatib qolar, deb umid qildi. Janob don Rubio esa markizaning uning ziyofatlariga taklifsiz kelishidan maqsadi, qoshiqlarni o'g'irlash niyatida bo'lganini aytdi. Shahar chekkasidagi doya ayol esa donya Mariya hadeb bema'ni savollar bergani kelavergani uchun uni gadoyni haydagandek haydab yuborishga majbur bo'lganini gapirib berdi. Shahardagi kitob sotuvchisi esa uni Limadagi eng kitobsevar kishilar uchligiga kirishini, ijarachining xotini esa uning juda xayolparastligini,



lekin g'oyat g'amxo'r va mehribonligini gapirdi. Inson hayotini o'rganish san'ati birodar Yuniper o'ylagandan ancha murakkabroq chiqib qoldi.

Birodar Yuniper shuni tushunib yetdiki, halok bo'lganlar bilan yaqin munosabatda bo'lganlar hammadan kam ma'lumot berishgan ekan. Murabbiya Mariya del Pilar u bilan uzoq suhbat qursa ham Pepitaga qanaqa umidlar bog'laganini gapirmadi. Perikolaning oldiga esa umuman yaqinlashib bo'lmadi, lekin keyinchalik u fransiskolik rohibni yoqtirib qoldi. Uning gapirib berganlarida Pio amaki boshqa guvohlarning bergan ma'lumotlariga qaraganda yaqqol ajralib turardi. O'g'li haqida esa juda kam gapirar, gapirganda ham o'zida kuchli og'riqni yengib o'tardi. Ularning suhbatlari to'satdan uzilib qoldi. Kapitan Alvarado qanday eplasa, shundayligicha Esteban haqida va Pio amaki haqida gapirib berdi. Bu hayotda kim ko'proq bilsa, so'zlarga shuncha kam ishonadi.

Men sizlarni birodar Yuniperning xulosalaridan xalos qilaman. Ular bizlarga shundoq ham ma'lum. Unga bitta falokatda yomonlar – halokatga giriftor bo'lgani va yaxshilar – erta osmonga chaqirilganiga guvoh bo'lgandek tuyulgandi, yana unga shunday tuyulgandiki, bu hodisada boyluk va takabburlikning yengilishi, itoatkorlik, mo'minlikning g'alabasi shaharliklar uchun ibrat bo'lishi kerak edi. Lekin birodar Yuniper o'z tushuntirishlari bilan qanoatlanmadi. Balkim, markiza de Montemayor dahshatli tarzda ziqna bo'lmasligi ham mumkin edi, Pio amaki esa u darajada tarbiyasiz ham emasdir.

Kitob yozib tugatilgach, unga hukm chiqaruvchilarning nazari tushib, muallifni shakkoklikda ayblashdi, uni kitobi bilan qo'shib gulxanda kuydirishga buyruq berildi. Birodar Yuniper iblis o'zining yovuz niyatlarini Peruda uning yordamida amalga oshirganligi haqidagi

„haqiqatga“ bo‘yin egishga majbur bo‘ldi. Qamoqxona-da oxirgi tunni o‘tkazar ekan, beshta qurbonning hayotini tadqiq qilishi jarayonida esiga tushmagan qonuniyatni o‘zining hayotidan izlab topishga harakat qilardi. U o‘zida ichki qarshilik va g‘alayonni his qilmasdi. Hayotini cherkovning tozaligi uchun qurbon qilishga tayyor edi, lekin hech bo‘lmasa bitta odam uning e‘tiqod mustahkamligi yo‘lida jon kuydirganligiga guvohlik berishini juda xohlardi, shunga umid qilardi, shu bilan birga esa bu dunyoda endi menga hech kim ishonmaydi deb o‘ylardi. Ertasiga charaqlagan quyoshli kunda to‘plangan olomon ichida unga ishonganlar ko‘p edi, chunki uni yaxshi ko‘rishardi. Ular orasida Puerto qishlog‘idan kelgan odamlar ham bo‘lib, Nina (ezgulik: 2, diyonatlilik: 5, foydalilik: 10) va boshqalar garang va yuzlarida hayrat ifodasi aks etgan holda, o‘zlarining kichkina ruhoniylarini olovda kuydirish sababini tushunmay turishardi. Shu holatda ham qalbidagi qaysarlik o‘z fikrini ta’kidlashda davom etar, Avliyo Fransisk<sup>1</sup> uning nohaq gunohkor bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaydi (Yaratganning o‘ziga iltijo qilishga jur’ati yetmagan odamdek, ma’lunki bu yerda ham xatoga yo‘l qo‘ydi) u ikki bora Avliyo Fransiskka iltijo qilib, gulxanga o‘zini topshirdi-da, tabassum bilan jon berdi.

Dafn kuni havo iliq va ochiq edi. Qora ko‘zlarini katta ochib, yurakda qo‘rquv bilan Lima aholisi ibodatxona tomon har yoqdan oqib kela boshlarkan, hammasining nigohi qora va kumushrang baxmalli choyshablarga qaratilgan edi. Taxtadek qotirilgan kiyimlariga bir amallab kirib olgan buzruk ota ham o‘zining taxtida terlab-pishib o‘tirar, ora-chora tangri dargohini va marhamatini ulug‘lovchi

<sup>1</sup> *Avliyo Fransisk – Fransisk Assizskiy* (1181/82–1226) italiyalik din peshvosi fransiskanlar tariqati asoschisi. (*tarj.*)

ibodat marosimining kuy va soʻzlariga quloq tutib qoʻyardi. Xor jamoasi Tomas Luisning homiysi va doʻsti boʻlmish Avstriya imperatoriga bagʻishlab yozgan vidolashuv kuyini ijro etishar, undagi yoqimli va gʻamgin taronalar ispaniyaliklar ruhiyatiga xos tarzda kuylanib, olomon uzra dam kuchayib, dam susayib turardi.

Don Andres xasta va qaygʻuli holda oʻzi uchun ajratilgan maxsus joyda parlar bilan bezatilgan kiyimida choʻk tushib oʻtirardi. Uni yakka-yu yagona oʻgʻlidan judo boʻlgan ota rolida koʻrish uchun, olomon oʻzini kuzatayotganini bilardi. U esa Perikola shu yerdamikan deb oʻylarkan, hech qachon oʻzini buncha uzoq vaqt chekishdan tiyib turishga majbur boʻlmagandi. Cherkovning quyoshli maydon tomonidan kapitan Alvarado bir daqiqaga marosim boʻlayotgan joyga kirdi. U tumonat qora sochli olomon tomonga, bir safda turib sham ushlab turganlar qatoriga, xushboʻy hid taratuvchi tutatqilarga qarab, „Qanday soxtalik, qanday sunʼiylik“, – deya tashqariga yoʻl oldi. U dengizga tushib, oʻz kemasining sahnida oʻtirarkan, suvga tikilganча „Choʻkib ketganlar baxtlidir, Esteban“, dedi.

Onaxon Mariya del Pilar rohiba qizlar orasida oʻtirib, parda ortidan marosimni kuzatardi. Oʻtgan kecha u yuragidagi maʼbudini sugʻurib chiqarishga muvaffaq boʻldi, bu sinovdan u rangpar, lekin qatʼiyatli boʻlib chiqa oldi. Endi uning ishlari rivojlanyaptimi, yoʻqmi, bularning hech qanday ahamiyati qolmaganligi haqidagi haqiqatga koʻnikishdan boshqa chorasi qolmagan edi – shunchaki ishlasa boʻldi. U xastalarga gʻamxoʻrlik koʻrsatuvchi najot hamshirasi, charchoq nimaligini bilmay mehrob oldida oʻz xizmat vazifasini oʻtayotgan rohiba, lekin bu xizmatlariga hech kim muhtoj emas. Endi ishlarini kengaytiradigan, yurgizadigan Pepita ham yoʻq, u esa yana yalqov va lo-

qayd izdoshlarining girdobida cho'kib qolaveradi. Ko'rinishidan, bu Yaratganning irodasi bilan bo'lgan bo'lsa kerak, Peruda ham beg'araz sevgi gul ochishi va uning tezda so'lib qolishi. Murabbiya qo'lini peshonasiga tirab, suyanib o'tirar, taralayotgan kuyning sehrli ohangiga quloq tutarkan, „Mening muhabbatimga mana shu tarzda go'zal bo'yoqlar yetishmagandi, Pepita, butun hayotimga mana shu ohanglar yetishmagandi. Men juda band edim“, derdi afsus-nadomatlar bilan keskin tarzda. Uning xayolini ibodat marosimining so'zlari bo'lib yubordi.

Kamila cherkovga o'zining tepalikdagi qo'rg'onidan yo'l oldi. Uning qalbida dahshat va qo'rqinch hukm surmoqda. Mana yana samolarning belgisi; uni uchinchi bora ogohlantirishyapti. Chechak kasali, Xaimening xastaligi, endi esa ko'prikning qulashi: yo'q, bu tasodif emas. U o'zini xuddi peshonasiga tang'a bosilgan-u, o'sha tang'a bo'rtib ko'rinib turgandek sezardi. Qirol noibi janoblari uning ikkala qizini ham Ispaniyaga, rohiba qizlar maktabiga o'qishga jo'natish haqida saroydan buyruq yubordi. Nachora, buyruq juda to'g'ri. Endi u yolg'iz qoldi. Xayoli parishon holda yo'lga kerakli narsalarni yig'ishtirdi-da, shaharga dafn marosimiga yo'l oldi. Lekin u tinmay o'y surardi, xalq uning Pio amakisi va Kamilaning o'g'liga qanaqa ko'z bilan qararkin? U dabdabali dafn marosimi haqida, o'zining eng yaqin odamlarini domiga tortuvchi tubsiz jarlik haqida o'ylagandek, millionlab o'liklar orasidan shaxs sifatida ajralib chiquvchini qadr-qimmatidan ayirib, xotiradan ham o'chirib yuboradigan to'fon haqida o'ylagandek o'ylardi, dies irae<sup>1</sup>. Yo'lning yarmidan sal ko'prog'ini bosib o'tganidan keyin u Avliyo qirol Lyudovik butxonasining oldida

<sup>1</sup> „Darg'azablik kuni, bu kun!“ – nasroniylarning cherkovda dafn marosimlarida aytiladigan qo'shiqning boshlang'ich so'zlari.



to'xtab, ichkariga kirdi-da, cho'k tushib, nafasini rostladi. U xotirasidan o'ziga yaqin bo'lgan chehralarni izlardi. Qalbiga quloq tutdi, biron-bir his-tuyg'u uyg'onarmikan. – „Men hech narsani his qilmayapman“, – pichirladi u.

– Menda yurak yo'q. Men baxtsiz, ma'nisiz, mazmun-siz ayolman. Men hammaning nazaridan chetga surib tashlangan odamman. Menda yurak yo'q. Men hech nima haqida o'ylashni istamayman, shunchaki bu yerda nafasimni rostlashga ijozat ber.

Lekin u jim bo'lishi bilan, qo'rqinchli va ta'riflab bo'lmaydigan kuchli og'riq uni o'z domiga tortib ketdi, bu og'riq Pio amakiga o'sha kecha uni qanchalik yaxshi ko'rishini aytishga yo'l qo'ymagan, loaqal biror marta shuncha azob chekayotgan o'g'li Xaimening ko'nglini ko'tarish uchun shirin gap aytishga yo'l qo'ymagan og'riq edi. „Men ham-maga xiyonat qilaman“, deya qichqirib yubordi u birdan qaddini rostlab, „Ular meni shunchalik yaxshi ko'rishadi, men esa ularga xiyonat qilaman“.

U qo'rg'oniga qaytib kelib, bir yilcha o'zidan nafratlanib, tushkunlikda yashadi. Bir kuni u tasodifan ibodat-xona murabbiyasi ham o'sha falokatda o'ziga yaqin ikkita odamidan ajralgani haqida eshitib qoldi. Uning tikayotgan ishi qo'lidan tushib ketdi; demak, u bilsa kerak, menga tushuntirib bera olsa kerak. „Lekin uning men bilan gaplashgisi kelarmikin? Mendek bir maxluqning seva olishga yoki yo'qota olishga qodirligiga u ishonarmikan?“. Kamila Limaga borishga va murabbiyani uzoqdan ko'rib qaytishga qaror qildi. „Agar uning ko'zlari mendan jirkanmasligini aytsa, men u bilan gaplashaman“, – deb o'zicha ahd qildi u.

Kamila uni cherkov oldida poylay boshladi. Biroz qo'rquvga tushsa-da, murabbiyaning qari yuzini ko'rib, unga qandaydir mehri ilib ketdi. Nihoyat, ovoz chiqarishga jur'at etib:

– Murabbiya, – dedi u, – men... men...

– Men seni taniymanmi, qizim?

– Men artistlik qilganman, men Perikola edim.

– Ha... Men anchadan beri siz bilan tanishishni niyat qilib yurgandim, lekin menga sizni odamlar ko'ziga ko'rinmayapti deyishgandi. Bilaman, sizning ham yaqinlaringiz avliyo Lyudovik ko'prigida halok bo'lishgan...

Kamila hushini yo'qotayozdi. Mana! Yana o'sha og'riq. Tirmashib ham yetisha olmayotgan o'tganlarning qo'llari. Uning lablari oqarib ketdi, boshi murabbiyaning tizzasiga egildi.

– Murabbiya, men nima qilay? Men juda yolg'izman. Hech nimam qolgani yo'q. Men ularni juda yaxshi ko'raman. Nima qilay?

Murabbiya unga diqqat bilan tikilib qaradi.

– Qizim, bu yer juda issiq. Bog'ga o'tamiz. O'sha yerda dam olasiz. – U yosh rohibaga suv keltir deb imo qildi-da, yo'l-yo'lakay Kamilaga gapira ketdi: – Senora, men anchadan beri siz bilan tanishishni niyat qilib yurardim. Hali baxtsizlikdan ancha oldin siz bilan tanishmoqchi edim. Menga gapirib berishgandi „Valtasarov bazmi“dagi-chi autos sacramentales“da siz o'zingizni buyuk va nihoyatda iste'dodli aktrisa ekanligingizni namoyish etganingizni.

– Eh-he, murabbiya bu haqda gapirmang. Men gunohkorman. Siz bunday gapirishingiz kerak emas.

– Mana buni ichib oling, bolajonim. Bizning bog'imiz juda chiroyli, sizga shunday tuyulmayaptimi? Biznikiga tez-tez kelib tursangiz, bosh bog'bonimiz rohiba Xua-na bilan ham tanishib olasiz. O'zini cherkov xizmatiga bag'ishlagunga qadar u deyarli bog'larni ko'rmagan ham, chunki uning ish joyi tog'li yerlarda edi. Endi esa hammasi uning qo'l ostida unib-o'syapti. Falokatdan beri bir

yil o'tdi, men yetimxonamizda tarbiyalangan ikkita farzandimdan judo bo'ldim, lekin siz o'z farzandingizdan ayrilib qoldingiz-a?

– Ha, onaxon.

– Yana yaqin do'stingizdan hammi?

– Ha, onaxon.

– Menga gapirib bering...

Shundan so'ng, Kamilaning tushkunlik dengizidagi uzoq yolg'izlikdan so'ng birinchi bora bolalikdan to bugungacha to'planib qolgan hasratlarining bari rohiba Xunaning atirgullari orasida murabbiyaning chang o'tirgan etagiga to'kildi.

\* \* \*

Ko'prik qulamaganida yozilgan boshqa yana qaysi kitob ham shuncha voqeani o'ziga sig'dira olar edi? Shuncha ko'p hodisalar ichidan men yana bittasini tanlab olaman.

– Sizni grafinya de Abuire ko'rmoqchilar, – dedi devonxona eshigi oldida turgancha rohiba.

– Shunaqami? – so'radi murabbiya patqalamni chetga qo'yib. – U kim ekan?

– Ular endigina Ispaniyadan kelgan ekan. Men tanimdim.

– E-ha, bu pul, Inessa, ko'zi ojizlar uyi uchun pul. Uni tezroq bu yerga chorla.

Xonaga baland bo'yli, aslzoda xonimlar dunyosiga xos ko'rinishga ega bo'lgan sovuqqon, lekin chiroyli ayol kirib keldi. donya Klara, odatda, hamma yerda o'zini bemalol, o'ziga juda ishongan holda tutsa-da, hozir o'ziga bo'lgan ishonch sezilmas edi.

– Bandmisiz muhtarama murabbiya? Siz bilan suhbatlashishga imkon bormi?

– Mening vaqtim bemalol, qizim. Xotirasi chatoqlashib qolgan mendek kampirni afvu etasiz, biz siz bilan tanishmizmi?

– Meni onam markiza de Montemayor...

Donya Klara, murabbiya Mariya del Pilarning o‘z onasi haqida yaxshi fikrda ekanligiga shubhalanar, shuning uchun ham uni gapirishga qo‘ymay, donya Mariyani hi-moya qilib gapira ketdi. O‘z aybini tan olar ekan, o‘zini kiborlarga xos tutishni ham unutilib yubordi. Murabbiya Mariya del Pilar unga Pepita haqida, Esteban haqida va Kamilaning tashrifi haqida gapirib berdi.

– Biz barchamiz ularga loyiq emasligimiz ko‘rinib qoldi. Shuning uchun kerakli jazomizni olishimiz va qancha kerak bo‘lsa shuncha chidashimiz kerak. Lekin bilasizmi, qizim, men buni aytishga o‘zimdagi bazo‘r jur‘at topyapman – muhabbatda hatto xatolarimizning ham umri qisqaradigandek tuyuladi menga.

Grafinya murabbiya donya Mariyaning oxirgi maktubini ko‘rsatdi. Onaxon Mariya del Pilar maktubni o‘qib bo‘lib hayratda qoldi, uni shunchalik hayratga solgan bu so‘zlar nahotki Pepitasining bekasi qalbida tug‘ilgan bo‘lsa (bu so‘zlarni hanuzgacha butun dunyo rohat bilan takrorlaydi). „Tushun, – ma‘qullardi u o‘ziga, tushunsang-chi nihoyat, hamma joyda ham ezgulikni, yaxshilikni uchratish mumkin“. Hayotini bag‘ishlagan narsalar nish ko‘rsatayotganidan, buning yangi dalilini ko‘rganidan, uni hamma joyda unib-o‘sayotganidan, dunyo pishib yetilayotganidan u yosh qizaloqdek quvonardi.

– Qizim, malol kelmasa, mendan xizmatigizni aya-massiz? Sizga ishlarimizni ko‘rsatishga ijozat bersangiz.

Quyosh botib, kech tushayotgan bo‘lsa ham, murabbiya uni qo‘lida chiroq bilan yo‘laklardan boshlab ketdi. donya Klara qarilarni, yoshlarni, ko‘zi ojizlarni, xastalar-



ni – barchasini ko‘rib chiqdi, lekin hammadan ham ko‘ra u yo‘l boshlab borayotgan bu qari donishmand kampirni kuzatar edi. Murabbiya yo‘lakda birdan to‘xtab qolib so‘radi:

– Men doim o‘ylayman, kar-soqovlarga yordam berishning iloji bor-ku axir. Menimcha, sabr-toqatli odam, ular uchun maxsus til yarata olishi mumkin edi. Bilasizmi Peruda ular yuzlab, ha yuzlab topiladi. Eslolmaysizmi, Ispaniyada buning biror chorasini topishmaganmikan?.. Hay mayli, qachondir topilib qolar. Biroz turib:

– Bilasizmi, hech xayolimdan ketmayapti, aqlizaiflar uchun biron nima o‘ylab topish mumkin-ku? Men qari-man – ko‘ryapsiz, bunday masalalarni muhokama qilayotganlarning oldiga borolmayman, lekin ba‘zan ularni kuzatib tursam shunday tuyuladiki... Ispaniyada ularga yaxshi muomala qilishadimi? Menimcha, bu yerda qandaydir sir bor – shunday yaqinimizda, qo‘l yetgudek joyda. Qachondir Ispaniyaga qaytganingizda bu haqda foydali maslahatlarni eshitib qolsangiz, bizga ham yozib yuboring... agar vaqt topsangiz.

Nihoyat, murabbiya donya Klaraga oshxonani ham ko‘rsatib bo‘lgach, dedi:

– Endi esa uzr so‘rayman, nega deganda men juda og‘ir bemorlarning oldiga kirib, uyqulari qochib ketganida o‘ylab yotishlari uchun bir necha mavzularni berishim kerak. Sizing men bilan kirishingiz shart emas deb o‘ylayman, chunki siz bunday manzarani ko‘rishga o‘rganmangansiz, bu manzaraga, bu ovozlarga. Umuman olganda, ular bilan bo‘ladigan suhbatimiz ham xuddi yosh bolalarni-kiday kechadi.

To‘satdan murabbiya g‘oyib bo‘lib, so‘ng yordamchilaridan biri ~ o‘sha ko‘prikdagi falokatda yaqinlaridan judo bo‘lgan aktrisa bilan qaytib keldi.

– U tezda ketadi, – dedi murabbiya, uning shahar chekkasida ishi bor; men esa kasallar bilan gaplashish uchun sizlarni tark etishim kerak, tegirmonchi boshqa kutishni xohlamaydi, bizning bahsimiz esa anchagacha cho‘zilib ketadi.

Donya Klara baribir eshik oldida turaverdi. Murabbiya kasallar bilan gaplashib bo‘lguncha chiroqni oyog‘i yoniga qo‘ydi. U to‘singa suyanib turarkan, kasallar qatorlashib shiftga tikilib yotar, ovoz chiqarmay nafas olishga tirishardi. U barcha yolg‘iz qolganlar haqida, yolg‘izlikda zulmatda qolganlar haqida gapirdi (u Estebanning yolg‘izligi haqida, Pepitaning yolg‘izligi haqida o‘ylardi), hech kimga murojaat ham qila olmaydigan ahvolga tushib qolganlar haqida, hayotlari ma‘nisiz yukka aylanganlar haqida gapirdi. Karavotda yotganlar bu zulmatdan o‘zlarini himoyalangandek his qilardilar, murabbiya ularni bu qorong‘ilikdan devor kabi to‘sgan, u yoqda qorong‘i, sovuq, bu yer esa issiq va yorug‘, bunday sharoitni esa ular azob-uqubatlardan himoyalovchi, o‘limdan ham asraguvchi hayot tarziga ham alishmas edilar. Lekin murabbiya o‘zi gapirib tursa-da, xayolida umuman boshqa fikrlar aylanardi. „Endi mendan tashqari hech kim Estebanni va Pepitani eslamaydi ham, faqat Kamila o‘zining Pio amakisini va o‘g‘lini eslashi, bu ayol esa, o‘zining onasini xotirlashi mumkin. Tez orada esa biz ham boqiylikka yuz tutamiz va bu beshovi haqidagi xotira yer yuzidan o‘chib ketadi, bizni yorlaqagan qazo-yu qadar vaqti soati yetib unutishga ham mahkum etadi. Mayli, shunisiga ham shukr; bu muhabbatning irmoqlari yana qaytib kelib, abadul-abad mavjud bo‘lgan o‘z o‘zaniga quyiladi. Muhabbat uchun hatto xotira ham shart emas. Tiriklar dunyosi va o‘tganlar dunyosi mavjud, ikki dunyo orasidagi ko‘prik – bu muhabbat, yagona mazmun, yagona najotdir“.

## BIRJA DALLOLINING SEVGISI

Pitcher – birja dalloli Garvi Maksuelning idorasidagi ishonchli klerk'lardan biri. Ertalabki soat to'qqiz yarim. Maksuel yosh kotiba qiz hamrohligida idoraga kirib keldi. Hamma ularga hayrat va qiziqish bilan boqardi.

– Salom, Pitcher, – dedi Maksuel. U o'zining ish stoliga shahd bilan o'tirarkan, darhol uni kutib turgan xatlar, telegrammalar dengiziga sho'ng'idi.

Yosh kotiba qiz Maksuelning idorasida bir yildan beri ishlardi. U unchalik xushsurat ham emasdi. Dabdabali soch turmaklari unga yoqmas, na zirak, na bilaguzuk, na medalyon taqardi. Unda hech qachon restoranga kirish xohishi bo'lmagan, taklif qilishganda esa kayfiyati yo'qligini bahona qilardi. Oddiy, kulrang, nafis ko'ylagi unga yarashib turar, odmi qora shlapasi yashil to'tiqush pati bilan bezatilgandi. O'sha kuni ertalab ko'zlari porlar, yuzlariga qizillik yugurgan, ko'rinishidan baxtiyor edi.

Uni qiziqish bilan kuzatgan Pitcher qiz o'zini odatdigidan ko'ra boshqacharoq tutayotganini sezdi. Avval kotiba o'zining xonasiga kirish o'rniga nimanidir kutayotgandek idora ichida timirskilanib yurdi. Atigi bir marta Maksuelning ish stoliga nigoh tushadigan darajada yaqin keldi.

<sup>1</sup> Klerk – Idora xodimi.

Stol oldida o'tirgan Maksuel umuman odamga o'xshamasdi. U g'ildirak va prujinalar yordamida harakatlanuvchi, bo'g'zigacha band nyu-yorklik dallol-mashina edi.

– Xo'sh, nima gap? – to'satdan so'radi Maksuel.

Ochiq xatjildlar stolda qor uyumlaridek sochilib yotardi. Uning o'tkir kulrang ko'zlari qizga g'azab bilan boqdi.

– Hech narsa, – javob qaytardi kotiba va yengil tabassum bilan nari ketdi.

– Janob Pitcher, – dedi qiz ishonchli klerkka, – janob Maksuel kecha yangi kotiba qizni ishga olish haqida gapirganmidi?

– Aytgandi, – javob berdi Pitcher, – u yangi kotiba qiz topishni buyurgandi. Bir necha kotiba qizlarni sinov uchun bizga jo'natishlarini byuroga bildirgandim. Soat o'ndan qirq daqiqa o'tyapti-yu, lekin ularning birortasidan darak yo'q.

– U holda o'rnimga boshqa birov kelmaguncha har doimgidek ishimni davom ettiraman, – dedi qiz.

O'sha zahoti u xonasiga o'tdi va shlapasini har doimgi joyiga ildi.

Kimki bu nyu-yorklik dallolni birjada ish qizg'in paytda ko'rmagan ekan, o'zini antropologiyadan bilimsiz hisoblayversin. Bu dallolning nafaqat har bir soati, balki daqiqa va soniyasi band qilingandi.

Bugun ham Garvi Maksuel uchun qizg'in ish kuni edi. Telegraf apparatining lentasi siltanib aylanar, stoldagi telefon surunkali qo'ng'iroqlardan charchagandi. Mijozlar idoraga to'da-to'da bo'lib kirishar, kimdir quvnoq, kimdir achchiqlanib, yana kimdir esa hayajonlanib Maksuel bilan to'siq orqali gaplashardi. Pochtachilar eshikdan shoshgancha kirib-chiqishardi. Klerklar to'fon vaqtidagi matroslar singari yelib-yugurishar, Pitcher ham g'ayrat bilan ishlardi.



Shu kuni birjada to'fon, ko'chki, bo'ron, zilzilalar yuz berdi, vulqonlar otildi. Barcha ofatlar mana shu kichikkina idorada ro'y berdi. Maksuel stulini devorga suyab qo'ydi va tik turgancha mijozlar bilan ishlay boshladi. U go'yo mahoratli masxarabozdek telegrafdan telefonga, ish stolidan eshikka borib-kelardi.

Vaqt tobora tig'izlashib borayotgan bir paytda Maksuelning ko'zi kutilmaganda tuyaqush patli shlapadagi, yuzini duxoba to'r bilan to'sib olgan, oltin tusdagi gajak sochli, qunduz mo'ynali palto kiygan, kumush yurakcha bilan tugallanuvchi shoda-shoda marjon taqqan qizga tushdi. Qiz kibri ko'rindi. Buni izohlashga Pitcher tayyor bo'lib turgandi.

– Stenografistlar byurosidan, ish o'rni masalasi bo'yicha, – dedi Pitcher.

Maksuel yarim o'girilib qaradi; uning qo'llari qog'oz va telegraf lentalarini bilan band edi.

– Kimning o'miga? – qoshlarini chimirib so'radi u.

– O'zimizning kotiba qiz o'miga, – dedi Pitcher. – O'zingiz kecha yangi kotiba chaqirishimni so'ragandingiz.

– Siz aqldan ozibsiz, Pitcher, – dedi Maksuel. – Qanday qilib sizga bunday buyruq berishim mumkin? Miss Lesli bir yildan beri o'z vazifasini a'lo darajada bajarib kelyapti. O'zi xohlamaguncha o'miga odam olmaymiz. Bizda hech qanday bo'sh o'rin yo'q, xonim. Byurodagilarga aytib qo'ying, Pitcher, bizga boshqa odam yuborishmasin, qaytib oldimga hech kimni yetaklab kelmang!

Marjon taqqan qiz stullarga turtinib, jahl bilan idorani tark etdi. Pitcher qulay fursat topib hisobchiga „qariya“ning kundan kunga parishonxotir bo'lib borayotganligini yetkazdi.

Idorada ish qizigandan qizidi. Birjada Maksuelning mijozlariga tegishli bo'lgan yirik, turli miqdorda aksiyalar

bosib-yanchilardi. Oldi-sotdi haqidagi buyruqlar u yoqdan bu yoqqa qaldirg'ochdek „uchib yurardi“. Maksuelning mansab kursisi ham omonat edi va u katta quvvatli mashinaday bor kuchi bilan ishlardi; uning so'zlari, qarorlari, harakatlari go'yo soat mexanizmidek tez va aniq edi. Aksiya va hujjatlar, qarz va fondlar, garov va ssudalar – bu moliya olami. Unda insonning his-tuyg'ulariga o'rin yo'q edi.

Tushlik vaqtiga kelib idorada birozgina sukunat cho'kdi.

Maksuel qo'llaridagi xat va telegrammalar bilan stoli oldiga keldi. U o'ng qulog'iga har doimgidek ruchkasini qistirib olgan, bir tutam hurpaygan sochlari peshonasiga tushib turardi. Oyna ochiq edi, chunki u yerdan xonaga bahorning iliq nafasi ufurardi.

Derazadan xonaga siren gulining yoqimli hidi anqidi va dallolni bir zum joyiga mixlab qo'ydi. Negaki bu ifor miss Lesliga tegishli edi. Bu unga, faqat ungagina tegishli edi.

Qiz – Maksuelning yodiga tushdi. Birja olami ahmiyatsizdek bo'lib qoldi go'yo. Kotiba esa qo'shni xonada, yigirma qadam narida edi.

– Qasam ichamanki, men bu ishni qilaman, – dedi yarim ovozda dallol. – Hoziroq undan so'rayman. Hayronman, nega buni avvalroq o'ylab ko'rmagan ekanman-a.

U kotiba qizning xonasiga otilib kirdi va uning ish stoliga yaqinlashdi.

Qiz ohista jilmaydi. Uning yonoqlari qizargan, nigohi ham muloyim va samimiy edi. Maksuel qizning stoliga tirsaklari bilan suyandi. Uning qo'lida hali ham bir dasta qog'oz turar, qulog'iga ruchka qistirilgandi.

– Miss Lesli, – hovliqib gap boshladi u, – rappa-raso bir daqiqa vaqtim bor. Sizga bir narsani aytishim kerak. Menga turmushga chiqing. To'g'ri, shu paytgacha ko'nglingizni olishga harakat qilmaganman, lekin sizni chindan ham sevaman. Iltimos, tezroq javobini ayting.

– Nimalar deyapsiz? – ajablandi qiz. U o‘midan turib, ko‘zlarini katta-katta ochgancha Maksuelga qaradi.

– Siz meni tushunmadingiz chog‘i? – dedi Maksuel. – Menga turmushga chiqishingizni xohlayman. Sizni sevaman, miss Lesli. Buni oldinroq aytmoqchi edim. Ni-hoyat, endi fursat topdim. Ana, yana meni telefonga chaqirishyapti. Pitcher, ayting, kutib turishsin. Xo‘sh, nima deysiz, miss Lesli?

Kotiba qiz o‘zini juda g‘alati tutdi. Avvaliga u hayratdan dong qotdi, ko‘zlaridan yosh quyildi, so‘ngra quyosh porlagandek jilmaydi va bir qo‘li bilan dallolning bo‘ynidan asta quchoqladi:

– Tushundim, – dedi qiz muloyimlik bilan. – Bu bir-ja butun fikr-u xayolingni egallab olibdi. Boshida qo‘rqib ketdim. Nahot yodingdan ko‘tarilgan bo‘lsa, Garvi? Biz, axir kecha kech soat sakkizda muyulishdagi Kichik cherkovda nikohdan o‘tdik-ku!

---

## KO'K RANGLI MEHMONXONA

Fort Romperdagi ko'k rangga bo'yalgan mehmonxonana binosi atrofidagi shu rangdagi boshqa binolar orasidan yaqqol ko'zga tashlanib turardi.

Temiryo'l stansiyasida qolgan har qanday yo'lovchi Fort Romperdagi pastak uylarga kirishdan ko'ra mehmonxonaga kelishni afzal ko'rardi. Hech ikkilanmay aytish mumkinki, bironta sayyoh mehmonxonaga kirmay o'tmasdi. Mehmonxonana xo'jayini Pet Skalli rang-tasvir ustasi ekanligini ko'p marta isbotlagan. Xushhavo kunlarning birida poyezd Fort Romper shahridan o'tib ketar ekan, yo'lovchilar go'zal manzarani ko'rib, og'izlari ochilib qoldi.

Shaharning sharqiy qismida yashovchi aholi buni ko'rib uyalganidan miyig'ida kulib qo'ygan bo'lsa, g'arbdagi aholiga esa Pet Skalli ajoyib tomosha ko'rsatdi. Pet Skalining shaxsan o'zi mehmonxonaga yo'lovchilarni chorlardi. U har kuni ertalab va kechqurun Romperda to'xtab o'tadigan poyezdni kutib olgani chiqardi.

Unga shubha ko'zi bilan qaragan har qanday kishiga darhol salom berardi.

U qor yog'a boshlagandagina yolg'iz qolardi. Shaharchadagi uylar oppoq libosga burkangani bois mehmonxonana hadeganda ko'zga tashlanmaydi.

Kunlarning birida sovuqdan motori muzlab qolgan mashinalar stansiyada turnaqator bo'lib turganda Skalli „Uch



kishi“ deb nomlangan ajoyib tomosha ko‘rsatdi. Bu uch kishining biri shvetsiyalik – vaysaqi, bir ko‘zi sal g‘ilayroq, katta, arzon yaltiroq sumka ko‘tarib olgandi; yana biri novcha, o‘z ishini Dakota chegaralarida bajaradigan, quyoshda qoraygan kovboy edi. Uchinchisi esa sharqiy qirg‘oq tarafdin bo‘lib, tashqi ko‘rinishdan u yerlikka sira ham o‘xshamaydigan yuvosh odam edi. Skalli ularni o‘zlarini xuddi mahbuslardek tutishga majbur qildi. U juda quvnoq va mehribon edi.

Ular qamoqxonada jabr-zulm avj olavergach, qochishga harakat qilishdi.

Shunday qilib, bu mitti odamni qiziqish bilan kuza-tishdi.

U boshiga jun matodan tikilgan qalpog‘ini kiydi. Bosh kiyimi uning boshqalarnikiga o‘xshamaydigan qizil quloqlarini yashirib turardi. Nihoyat Skalli ularni ko‘k rangli mehmonxona eshigi oldiga olib keldi. Ular kirgan xona ixchamgina edi. Xonaning qariyb yarmini guvullab yonayotgan kattakon pechka egallagandi. Uning atrofi olov taftidan yarqirab, o‘zidan nur taratayotgandek edi go‘yo. Pechka yonida Skallining o‘g‘li Jonni bir fermer bilan qarta o‘ynardi. Ular qo‘qqisdan janjallashib qolishdi. Skalli baland ovoz bilan ularning o‘yinini to‘xtatdi. O‘zi esa mehmonlarga uch qadahda muz solingan suv berdi. Kovboy va sharqlik idishlardagi suv bilan yuzlarini qizarib ketguncha ishqalashdi. Shvetsiyalik esa suvga barmog‘ini tegizib qo‘ydi, xolos.

Shundan so‘ng ular birinchi xonaga qaytishdi. Pechka yonida o‘tirishar ekan, bexosdan Skallining oshxonada ovqat pishirayotgan qiziga baqirganini eshitib qolishdi. Ular o‘zaro suhbatlashib o‘tirishaverdi, shvetsiyalik esa gapga aralashmay, churq etmay o‘tirardi. U xonadagi har bir odamni o‘zicha tanqid qilish bilan ovora edi. Uni ko‘rgan

har qanday kishi qo'rquv va ahmoqona tuyg'ular iskanjasi-da qolganini sezishi qiyin emasdi. U juda tushkun kayfiyat-da qolganga o'xshardi.

Mehmon hech kim bilan gaplasmadi, faqat tushlik mahali Skalli bilan biroz suhbatlashdi. Bu suhbat davomida u Skalliga o'zining Nyu-Yorkdan kelgani, o'n yildan buyon chamadon yasab, tirikchilik qilib yurganini aytdi. Bu ma'lumotlar Skalli uchun juda qiziqarli edi, gap orasida u ham o'n to'rt yildan beri Romperda yashayotganini ta'kidladi. U Skallidan bu yilgi hosil qanday bo'lgani, qancha daromad olganini so'radi, uning uzundan uzoq javobini toqatsizlik bilan eshitarkan, davradagilar orasida o'zini ortiqchadek his qildi.

Shvetsiyalik „G'arbiy shaharcha juda xavfli joy“ deb qo'ydi. Stol ostidan oyoqlarini yig'ib, to'g'rilab olarkan, baland ovozda kulib yubordi. Boshqalar hech narsaga tushunmay, unga tikilib qoldi.

Tushlikdan so'ng ular qarta o'ynashga qaror qilishdi. Kovboy Jonni bilan o'ynamoqchi ekanini aytdi. Shvetsiyalik va sharqlik bir jamoa bo'lib o'ynaydigan bo'ldi. U o'zi bilmagan o'yin haqida biroz tushunchaga ega bo'lgach, bu o'yinga boshqacha nom berishni taklif qildi. Ular rozi bo'lishdi. Biroq shvetsiyalik raqibining oldiga xuddi uni kaltaklamochi bo'lgandek bir vajohatda keldi. Joylashib olgach, kutilmaganda telbalarcha qah-qah urib kulib yubordi. Bu kulgi juda g'alati edi.

Sharqlik unga taajjub bilan qaradi. Kovboy og'zini ochib turardi.

– Xo'sh, kelinglar, o'yinni boshlaylik, – deya taklif kiritdi Jonni.

Ular stullarini stolga yaqinroq siljitib o'tirdilar. O'yin boshlandi. O'yinga berilib ketgach, shvetsiyalikning qiliqlari zumda eslaridan chiqib ketdi.

To'satdan shvetsiyalik Jonniga so'z qotdi:

– Menimcha, bu yerda juda ko'p begunoh kishilarning qoni to'kilgan.

Hamma og'zini ochib unga qaradi.

– Nimalar deyapsiz? – baland ovozda dedi Jonni.

Shvetsiyalik soxta jasurlik bilan yana qah-qah urib kula boshladi.

– O, o'ylashimcha, nima demoqchiligimni juda yaxshi tushundingiz, – javob berdi u.

– Yo'q, hech narsa tushunmadim, – e'tiroz bildirdi Jonni. O'yin to'xtab qolgandi. Hamma shvetsiyalikning og'zini poylardi.

Jonniga shvetsiyalikning uni tergov qilayotgani yoqmadi.

– Xo'sh, nima demoqchisan? – dedi u „sen“sirab.

Shvetsiyalikning qo'llari titrardi.

– Sen meni hech qayerni ko'rmagan bir ovsar deb o'ylayapsan, shekilli?

– Siz haqingizda hech narsa bilmayman, – o'z navbatida javob berdi Jonni.

– Qayerda bo'lganingiz bilan mening nima ishim bor? Umuman, nima demoqchiligigizga zarracha tushungan bo'lsam o'lay agar.

Boyadan beri shvetsiyalikka tikilib turgan kovboy:

– Nima bo'ldi, oshna? Ahvoling yaxshimi o'zi? – deb so'radi.

Bu savoldan shvetsiyalik qo'rqib ketdi. Qaltirab, rangi ham oqara boshladi. U sharqlik kishiga ma'nodor qarab qo'ydi.

– Qarang, nima deyayotganimni tushunmabdi, – dedi u sharqlikka kinoya bilan. Ro'parasidagi odam birpas o'ylanib turdi-da, so'ng muloyimlik bilan javob qildi:

– Nima demoqchiligingizni tushunmadim.

Shvetsiyalik joyida qo'zg'alib qo'ydi. U najot kutgan kishisidan dakki yegandi.

– Nazarimda, hammangiz menga qarshisiz, shundaymi? Kovboyning sabr kosasi to'ldi.

– Dardingni ayt! – deya baqirdi u qartalarni jahl bilan otib yuborarkan. – Nima demoqchisan o'zi?

Shvetsiyalik o'ziga ishonib, mag'rur o'rmidan turdi.

– Mening urishishga tobim yo'q! – baqirdi u.

Kovboy uzun oyoqlarini oldinga uzatdi.

– Xo'p, kim seni „urishmoqchi“ deb o'ylabdi? – so'radi Kovboy qo'llarini cho'ntagiga solib.

Shvetsiyalik xonaning bir burchagida turgancha, o'zini bosishga harakat qilardi, biroq uning qo'llari hamon titrardi.

– Janoblar, – dedi u shivirlab, – bu uydan mening o'ligim chiqadi. Men...

Shu vaqt eshik ochilib, Skalli kirib keldi. U shvetsiyalikning ko'zlaridagi qo'rquvni ko'rib, hayratlandi.

– Tinchlikmi? – so'radi u.

Shvetsiyalik jahl bilan shartta javob berdi:

– Ular meni o'ldirishmoqchi.

– O'ldirishmoqchi?! – qichqirib yubordi Skalli. – Nimalar deyapsan?

Shvetsiyalik yordam so'rab qo'llarini ko'tardi.

Skalli o'g'liga yuzlanib, dedi:

– Bu nimasi, Jonni?

Yigitning jahli chiqa boshladi.

– Men qayoqdan bilay? Buning menga aloqasi yo'q.

Shunday deya qartalarni yig'ib, chiylay boshladi.

– U bu yerda begunoh odamlar o'ldirilgan, meni ham o'ldirishadi deganga o'xshash bema'ni gaplarni gapirdi, – deb tushuntirdi Jonni. – Menimcha, u aqldan ozgan.

Shundan so'ng Skalli izoh talab qilib Kovboyga yuzlandi, biroq u boshini qimirlatib qo'ydi, xolos.



– Sening esing joyida emas.

– Ha, buni bilaman, – portladi shvetsiyalik. – Men nima ro‘y berishini bilaman. Ha, aqldan ozdim. Ha, men jinni-man, biroq...

Uning yuzida iztirob va dahshat zohir edi.

– Men bu yerda nimalar bo‘lishini tirikligimda ko‘rmoqchiman, – deya gapida davom etdi u.

Skalli shahd bilan burilib, o‘g‘liga dedi:

– Sen bu odamni qiynab qo‘yibsan.

– Nega endi? O Xudoyim, men unga hech narsa qilganim yo‘q, – dedi Jonni. U o‘zini aybdor hisoblashlaridan nihoyatda cho‘chirdi.

Shvetsiyalik sekin hujumga o‘tdi:

– Janoblar, o‘zingizni qiynamang. Men uzoq-uzoqlarga ketaman, – u o‘tirganlarga aybdorlarcha termildi. – Chunki men o‘lishni istamayman.

– Siz hech qayerga ketmaysiz, – dedi Skalli. – To men bu ishning tagiga yetmagunimcha shu yerda qolasiz. Bordi-yu birortasi sizni tashvishga solgan bo‘lsa, shaxsan o‘zim u bilan shug‘ullanaman. Bu mening uyim. Siz mening boshpanamdasiz va men sizday beozor odamni xafa qilishlarini istamayman.

Shunday deb Skalli o‘g‘li, kovboy va sharqlik kishiga o‘qrayib qo‘ydi.

– Yo‘q, mister Skalli, yo‘q, men ketaman. O‘lishni aslo istamayman!

Shvetsiyalik zina tomon yura boshladi. U sumkasini olmoqchi edi.

– Yo‘q, yo‘q, – dedi Skalli buyruq ohangida. Biroq shvetsiyalik uning so‘zlariga quloq solmay xonani tark etdi.

– Xo‘sh, endi ko‘ngillaring joyiga tushdimi? – so‘radi u g‘azab bilan.

Jonni va Kovboy baravariga baqirishdi:

– Biz unga hech nima qilmadik!  
Skallining ko‘zlari sovuq chaqnadi.

– Yo‘q, – dedi u, – bilaman, sizlar hech nima qilmagan-sizlar.

Uning gapirish ohangidagi kinoya hammadan ham Jonniga og‘ir botdi.

– Bunaqa vahshiy jinnini endi ko‘rishim. Biz butunlay begunohmiz. Shu yerda jimgina qarta o‘ynab o‘tirgandik. U...

– Bolalar nima qilishayotgandi? – deya o‘g‘lining so‘zini bo‘lib, sharqlikdan so‘radi Skalli.

Sharqlik yana o‘yga toldi.

– Bu yerda hech bir anglashilmovchilik ko‘rmayapman, – dedi u oxiri.

Skalli jazavaga tusha boshladi.

– Biroq buni men qanday tushunay? – U o‘g‘liga yeb qo‘ygudek tikildi. – Buning uchun seni jazolashim kerak, o‘g‘lim, – dedi u.

Jonni o‘zini tutib turolmadi.

– Xo‘sh? Nima qilishim kerak? – deya qichqirdi u otasiga.

– Menimcha, sizlar soqovsizlar, – dedi u xonadagilarga oxiri o‘ziga kelgach, sekin tashqariga chiqdi.

Yuqorida shvetsiyalik sumkalariga narsalarini joylashingtirayotgandi. U eshik tomonga xiyol o‘girilib turganidan, pastdagi shovqinni bemalol eshitayotgandi.

Skalli qo‘lida chiroq ko‘tarib uning oldiga keldi. Bir lahza ular bir-birlariga tikilib qolishdi.

Shundan so‘ng Skalli xonaga kirdi, chiroqni stol ustiga qo‘yib, karavot chetiga ohista o‘tirdi-da, sekin gapira boshladi:

– Umrim bino bo‘lib bunaqa gap eshitmagandim. Bu juda g‘alati, o‘ylab o‘yimga yetolmayman. Bu fikr miyangizga qayerdan keldi?

– Rostdan ham ular sizni o‘ldirishmoqchimidi? – so‘radi u shvetsiyalikning ko‘zlariga tik boqib.

Shvetsiyalik Skalliga go‘yo uning miyasidagi fikrlarni uqib olishga harakat qilgandek qaradi.

– Shunaqa deb o‘ylayman, – dedi u va qo‘llari qaltiray boshladi.

– Skalli, – dedi u to‘satdan kutilmagan jasurlik bilan, – sizdan qancha qarzdor bo‘ldim?

Shunday deb u sumkasini titkilay boshladi.

– Siz mendan qarzdor emassiz! – dedi qariya jahli bilan.

– Yo‘q, qarzdorman, – dedi shvetsiyalik o‘jarlik bilan va sumkasidan biroz pul olib, Skalliga uzatdi. Ammo Skalli uning qo‘lini itarib tashladi.

– Men sizdan pul olmayman, – dedi Skalli. – Bu yerda nimalar sodir bo‘ldi? Bir eslab ko‘ring-chi.

Shunday deb u xayolan reja tuza boshladi.

– Bu yoqqa, – dedi u chiroqni olarkan eshik tomon yurib, – bir daqiqaga bu yoqqa keling.

– Yo‘q, – dedi shvetsiyalik vahima ichida.

– Keling deyman sizga, – takrorladi Skalli. – Men sizga mehmonxonani ko‘rsatmoqchiman.

Shvetsiyalik shu tobda o‘lim sharpasi yuziga soya so‘layotganini tushundi.

Uning og‘zi ochilib, taajjubdan angrayib qoldi.

Skallining ortidan ergasharkan, shiftga ilingan zanjir oldida to‘xtadi.

– Hozir, – dedi u va polga shartta uzala tushib, karavotining ostiga kirib ketdi. Shvetsiyalik Skallining ovozini zo‘rg‘a eshitardi:

– Agar Jonni bo‘lmaganida men uni yostig‘im ostiga qo‘yardim. Qayerda qoldi ekan? Har doim har xil joyga yashirib qo‘yaman. Mana, hozir, chiqyapman.

U o'zining eski paltosini sudragancha karavot tagidan chiqdi.

– Men uni topdim, – dedi u pichirlab.

So'ng polga cho'kkalab o'tirdi-da, paltoni sekin ochib, undan viski solingan sarg'ish-jigarrang shishani oldi va hurmat yuzasidan iltifot ko'rsatib, uni mehmonga uzatdi.

Irodasiz mehmon shishani olishni xohlasa ham, qo'lini birdan orqaga tortdi va Skalliga qo'rqinch to'la ko'zlari bilan boqdi.

– Ich, – dedi qariya do'stona ohangda. U oyoqlarini chalishtirib shvetsiyalikka tikilib turardi.

Bir zum jimlik cho'kdi. So'ng Skalli yana „ich“ deb majburlay boshladi.

Shvetsiyalik g'ayritabiiy ovozda kulib yubordi. U shishani olib, og'ziga yaqinlashtirdi. Qariyadan ko'z uzmay ahmoqona tabassum qotib qolgan lablarini ho'lladi-da, shishani yana egasiga qaytardi.

Skalli chiqib ketganidan keyin uchovlon hamon stol atrofida o'tirgancha bahsga kirishib ketdi.

– Bu men bilgan erkaklar ichida eng yomoni, – dedi Jonni.

– Bir narsa deyishga ham hayronman, – dedi sharqlik.

– Uning o'zini shunday tutishiga nima majbur qildi deb o'ylaysiz? – so'radi kovboy.

– U qo'rqib ketgan, shuning uchun o'zini idora qilolmay qoldi.

– Nima bo'пти? – dedi Jonni va Kovboy baravariga.

– Bilmadim, menimcha, u g'arbning bema'ni romanlarini ko'p o'qiganga o'xshaydi.

– To'g'ri-ku-ya, – dedi Kovboy, – ammo bu yer begona joy emas, Nebraska.



– To‘g‘ri, – deya qo‘shib qo‘ydi Jonni, – nega bo‘lmasa g‘arbdan butunlay xalos bo‘lguncha ko‘nglini uzmadi.

Sharqlik sayyoh kulib yubordi.

– Shu paytgacha ishlari ham, ahvoli ham yaxshi edi, biroq u o‘zini jahannamda yurgandek his qilyapti.

– Qiziq, – dedi Jonni.

– Ha, – uning fikrini ma‘qulladi kovboy. Pastda esa Skallining latifasini eshitib, kimdir maroq bilan kulardi. Kulayotgan shvetsiyalik edi. Pechka atrofida gilar hayrat bilan bir-birlariga tikilishdi. Eshik g‘ijirlab ochildi-da, Skalli va shvetsiyalik ostonada paydo bo‘ldi. Endi pechka yaqinidagi stol atrofida beshta stol bor edi. Shvetsiyalik g‘azab bilan baland ovozda gapira boshladi. Jonni, sharqlik, Kovboy, Skallining o‘zi aralashmasdan jim turishardi. Shvetsiyalik suvsaganini aytdi.

U stolni surib, endi o‘rnidan qo‘zg‘algan ham ediki, Skalli darhol:

– Men o‘zim olib kelaman, – dedi.

– Yo‘q, – deya e‘tiroz bildirdi shvetsiyalik dag‘allik bilan. – Men o‘zim olib kelib beraman.

Shunday deya u o‘zini mehmonxona xo‘jayinidek tutib keta boshladi. Shvetsiyalik chiqib ketishi bilanoq, qariya o‘tirganlarga: „U o‘zicha shubhalanib, „Meni Skalli zaharlamoqchi bo‘ldi“ deb o‘ylayapti“, dedi.

– U meni aqldan ozdiradi, – dedi Jonni. – Nega siz uni tashqariga uloqtirib tashlamaysiz?

– Hammasi joyida, – dedi Skalli. – U g‘arbiy sohildan, bu yerni rasvo bir makon deb o‘ylayapti chog‘i.

Kovboy sharqlikka qarab kulib qo‘ydi-da, „Siz haqsiz“ dedi va qo‘shimcha qildi:

– Hozir o‘zini yaxshi his qilyapti, biroq boshida u qo‘rqayotgandi. Endi esa unda jasorat paydo bo‘libdi. Buni tushunolmayapman.

– Seningcha, men nimani sir tutyapman? – deya Skalli tizzasiga shapatilab urib qo‘yarkan, – bu harakati bilan u „Hammangiz gapimga quloq soling“, demoqchi edi.

– Men mehmonxonani saqlab qoldim! – baqirib gapirdi u. – Mehmonxonani! Eshityapsizlarmi? Mening mehmonlarim maxsus imtiyozlarga ega. Shvetsiyalikning bu yerni tark etishiga hech bir sabab yo‘q. Boshqa yerda uni mehmon sifatida qabul qilishmaydi. Gapim to‘g‘rimi?

Shunday deb Kovboy va sharqlikka yuzlandi.

– Ha, to‘g‘ri, – uning fikriga qo‘shildi sharqlik. O‘sha kuni kechki ovqat mahali shvetsiyalik ichkilik ta‘siridan otash bo‘lib yondi. U buni goh kuylab, goh esa kulib namoyon etardi. Qizig‘i shundaki, uning barcha tentaknamo qiliqlarini Skalli ma‘qullab turdi. Sharqlik xotirjam edi. Kovboy hayratdan og‘zini ochib, ovqatlanishni ham unutgan, Jonni esa g‘azab bilan likopchadagi ovqatni yeb bo‘layotgandi.

Shvetsiyalik butun kechani boshqararkan, unga shafqatsiz tus berishga harakat qilardi. U juda kuchayib ketgandek edi, go‘yo o‘tirganlarga o‘tkir nigohini qadab, ovozining boricha baqirib gapirardi. Kechki ovqatdan so‘ng boshqalar singari qo‘shni xonaga o‘ta turib, Skallining yelkasiga qo‘li bilan qoqib:

– Rahmat, qariya, ovqat juda shirin ekan.

Jonni otasiga xavotirlik bilan tikildi. Uning yelkasidagi og‘ir jarohat azob berayotganini yaxshi bilardi. Shvetsiyalikning bu qilig‘idan uning jahli chiqa boshladi.

Boshqalar esa uning yangi nag‘malariga javobgarlikni Skalli o‘z bo‘yniga olganini tushunib yetgandi.

Pechka yaqinida yig‘ilib o‘tirishganda u boshqa qarta o‘yinlarini o‘ynash kerakligini talab qildi. Uning ovozida doimgidek qo‘rqinch, tahdid bor edi. Kovboy va sharqlik bunga rozi bo‘ldilar, endi ularga qartaning qizig‘i qolma-

gandi. Skalli esa hademay kechki poyezdni kutib olishini aytdi. Shu tobda Jonni va shvetsiyalik yolg'iz qolishdi. Bir zumga ularning nigohi o'tkir qilichdek kesishdi, so'ng Jonni miyig'ida kulib qo'ya qoldi.

Ular stol atrofida davra hosil qilishdi. Sharqlik va shvetsiyalik bu safar ham bitta jamoada o'ynadilar.

Butun o'yin davomida Kovboyning churq etmay, o'zini bu qadar sipo tutishi o'tirganlarning diqqatini tortardi.

Skalli qaytib kelgach esa uning muzdek havo oqimini olib kirishi davradagi samimiylilikni tarqatib yubordi. Shvetsiyalik yana so'kina boshladi, biroq bu safar hamma-lari o'yinga kirishib ketgani uchun unga e'tibor bermadilar. Ularning boshlari egilgan, qo'llari esa chaqqon harakat qilardi.

Skalli zerikmasligi uchun gazeta olib kelgandi va uni varaqlaganda shitirlagan ovoz eshitilardi. So'ng shu payt norozi ohangdagi so'zlar eshitildi: „Siz g'irrom o'ynayapsiz!“

Kichkina xona yana vahima qa'riga g'arq bo'ldi. Bu so'zlarni eshitib, Skallining qo'lidagi gazeta tushib ketdi. Uning ko'zoynagi burnining ustida, o'yin ishtirokchilariga o'tkir nigohini birma-bir tashlab turardi. Bu jimlik uzoq cho'zilmadi.

Jonni o'zini shvetsiyalikning ustiga otdi. Ur-yiqit boshlandi. Sharqlik va Skalli esa Jonnini to'xtatmoqchi bo'ldilar. Hamma olishardi. Biroq dim havoni yutib, olishuvdan charchagan raqiblar ko'zlari bilan imo qilib, bir-birlarini ogohlantirishdi.

– Hoziroq to'xtatinglar!

Skallining ovozi barchanikidan balandroq eshitildi.

Xonada tinmay sharqlik va Skallidan qochayotgan Jonni esa „U meni firibgar deyapti, qalloblikda ayblayapti“, deb baqirardi. – Agarda u meni ayblasa, men uni...

– Hoziroq bas qil, eshityapsanmi?! – dedi Kovboy shvetsiyalikka.

Baqir-chaqirlar shvetsiyalikni to'xtata olmadi.

– U g'irrom o'ynadi. Men buni o'z ko'zim bilan ko'rdim, ha, ko'rdim, – dedi u.

– Bir daqiqa to'xtanglar, iltimos, kutib tura olasizlarmi? – deya past ovozda yalinardi sharqlik. – Qartani deb urishishning nima keragi bor?

Bu shovqin-suronli janjalda „G'irromlik“, „To'xtatinglar“, „U meni shunaqa dedi“ kabi so'zlar zo'rg'a quloqqa chalinardi. Ovozining boricha baqirayotgan Skalli umuman hech kimni eshitmasdi.

To'satdan hamma jim bo'lib qoldi. Ular nafas rostlab olish uchun to'xtagan edilar.

Jonni darhol oldinga chiqdi. „Nega siz meni g'irromlikda ayblayapsiz? Nega, a, nega? Men hech kimni aldaganim yo'q va hech kim meni qallob deb atashiga yo'l qo'ymayman.“

– Men seni o'z ko'zim bilan ko'rdim, o'z ko'zim bilan! – deya boyagi so'zlarini takrorladi shvetsiyalik.

– Yaxshi, – qichqirdi Jonni, – kim meni firibgar desa, o'sha bilan urishaman.

– Yo'q, sen bunday qilolmaysan, ya'ni bu yerda urisha olmaysan, – dedi Kovboy.

– Biz urishishimiz kerak! – gapida turib oldi Jonni.

– Ha, urishamiz, – qichqirdi shvetsiyalik.

U xuddi aqldan ozgan shaytonga o'xshardi.

– Men senga kimligimni ko'rsatib qo'yaman. Urishamiz, tamom-vassalom. Kim bilan urishmoqchi bo'lganingni bilmayapsan, shekilli. Meni urisha olmaydi deb o'ylayotgandirsan-a? Yo'q. Men senga ko'rsatib qo'yaman, jinoyatchi! – dedi u Jonniga.

– Bo'пти, oshna, boshladik bo'lmasa, – dedi Jonni so-



vuqqonlik bilan. Kovboy chora izlab Skalliga yuzlandi: endi nima qilamiz?

Qariyaning xayoliga ajoyib bir fikr kelgandek, ko'zlari quvonchdan chaqnaab ketdi.

– Biz ularning urushishiga ruxsat beramiz, – dedi u jasurluk bilan. – Men buni uzoq kutolmayman. Bu shvetsiyalikning qarg'ishidan bo'larimcha bo'ldim. Sabrning ham chegarasi bor, yaxshisi, urisha qolishsin. Yigitlar tashqariga chiqishga tayyorlana boshladilar.

Sharqlik azbaroyi asabiylashganidan yangi charm paltosini qiynalib kiydi. Kovboy kepkasini qulog'igacha bos- tirib kiyarkan, qo'llari qaltirardi.

Jonni va qariya Skalligina o'ta xotirjam edilar.

Skalli eshikni ochdi. Daydi shamol o'chakishgandek o'sha zahoti chiroqni o'chirib qo'ydi. Ular boshlarini egib, shamolga qarshi yura boshladilar.

Qor tingan bo'lsa-da, sovuq shamol ularni chimchilab olayotgandek edi.

Shvetsiyalik yo'lda nimalardir deb baqirardi. Skalli uning yoniga bordi-da, qo'lini uning yelkasiga qo'yib, bir nima deb pichirladi.

– Nimalar deyapsiz? – baqirdi shvetsiyalik. – Men bu olomonga qarshi chiqolmayman.

– Hammasini bilib turibman, siz hamma aybni menga ag'darasiz.

– Yo'q, yo'q – dedi Skalli, biroq shamol uning so'zla- rini og'zidan yulib, uzoqlarga olib ketdi.

Shvetsiyalik boloxonador qilib so'kindi, biroq bo'ron qolgan gaplarni eshitishga imkon bermadi. Ular panaroq joy topishdi. Bu yer „V“ shaklida bo'lib, qor beiz edi.

Ular endi qo'nalg'a topganlarida shvetsiyalik hali ham baqirayotgan edi.

– Ha, men bu yer qanaqa joyligini juda yaxshi bilaman. Kunday ravshan, sizlar meni o‘rtaga olmoqchisizlar, ham-mangizga kuchim yetmaydi.

Skalli unga g‘azab bilan o‘qraydi.

– Sen hammamiz bilan emas, faqatgina Jonni bilan urishasan.

Ikki raqib Skallining qisqa buyrug‘ini kutib, bir-biriga qarab turardi. Jangchilarning hech biri kiyimini yechmadi. Ularning ko‘zlari muloyim boqsa-da, tub-tubida shafqatsiz bir tuyg‘u yashiringanini payqash qiyin emasdi.

– Xo‘sh, boshladik! – dedi Skalli.

U shunday deyishi bilanoq ikkisi ham xuddi buqalardek bir-biriga tashlanib, hujumga o‘tdi.

Zarblardan chiqayotgan gurs-gurs tovushlar va raqib-larning haqoratli so‘zlari atrofni tutib ketdi.

Kuzatuvchilarga kelsak, sharqlikning nafasi ichiga tushib ketgandi, ora-chora, ko‘ksini to‘ldirib tashvishli nafas olardi-da, yana jim bo‘lib qolardi.

Kovboy qichqirib, u yerdan bu yerga sakrardi. Skalli harakatsiz qotib turar, bu urushga ruxsat berib, uni uyushtirganidan o‘zi ham hayron edi. Vahshiylarning harakatlarini ko‘rib, qo‘rqib ketdi. Qorong‘ilikda birpas havoda ucha-yotgan qo‘llardan boshqa hech narsa ko‘rinmasdi.

Kovboy tinmay Jonniga yon bosardi. U yugurib, xuddi yovvoyi otdek yaqinlashdi-da, „Ur uni, ur, Jonni! O‘ldir uni!“ – deya baqira boshladi.

– Jim bo‘l! – dedi Skalli jahli chiqib. Shundan so‘ng qisqa, ammo juda qattiq urilgan musht zarbidan Jonni o‘t-loqqa gursullab yiqildi.

Kovboy shvetsiyalikning yonida qovog‘ini solib turar, Skalli esa o‘g‘lining tepasida edi.

– Jonni, o‘g‘lim, Jonni.

Uning ovozi g‘amga to‘la edi.

– Jonni, mushtlashuvni davom ettira olasanmi? – so‘radi u o‘g‘lining kaltak zarbidan shiliniib, qonab ketgan yuziga achinib qararkan. Bir muddat javob bo‘lmadi. Shundan so‘ng Jonni yana o‘zining odatdagi ovoziida „ha“ deya javob qildi.

U otasining ko‘magi bilan oyoqqa turdi.

– Nafasimni rostlab olay, – dedi u.

Kovboy esa bir necha qadam naridagi shvetsiyalikka:

– To‘xta, biroz sabr qil, – dedi.

Sharqlik esa Skallining qo‘lidan tortdi.

– Balki yetar-a? – yalindi u. – Hammasini o‘z holicha qoldiraylik.

– Bill, – dedi Skalli, – uni ko‘zimdan yo‘qot!

– Hozir! – deya Kovboy ular tomon yura boshladi.

Raqiblar bir-birlariga yaqinlasha boshladilar.

Jonni birinchi zarbadanoq o‘zini yo‘qotib, muvozanati buzilib, shvetsiyalikning ustiga quladi. Kovboy, sharqlik va Skalli dodlab yuborishdi. Shvetsiyalik esa raqibini ayamay ura boshladi. Og‘ir mushtlarning zarbidan Jonni uzoqroqqa borib yiqildi. Jonning tepasidagi g‘azabnok kishilarning ko‘zlaridan qochib, shvetsiyalik juftakni rostlab qoldi.

– Hali ham urisha olasanmi, Jonni? – so‘radi Skalli chorasiz bir ahvolda.

Bir necha daqiqa o‘tgach o‘g‘li javob qildi:

– Yo‘q, men urisha olmayman.

So‘ng uyat va og‘riqdan yig‘lay boshladi. Uning achchiq ko‘zyoshlari qonli yuziga to‘kildi.

Skalli qaddini rostlab, yonida turganlarga gapira boshladi:

– Og‘aynilar, – dedi u muloyimlik bilan, – hammasi tugadi.

Uning ovozi kutilmaganda juda o‘zgarib ketgandi.

– Jonni yengildi, – dedi u xuddi o‘limni e‘lon qilayotgandek.

Ular Jonnini yerdan turg‘azishdi. U yordam bermoqchi bo‘lganlarga e‘tibor ham bermay, qiynalib bo‘lsa-da o‘zi yura boshladi. Qor kuchayib, bo‘ronga aylangan, ko‘z ochishga qiynalib qolishgandi.

Qor ularning yuzlarini qizartirib yuborgandi. Jonnini yetaklab bir xonaga boshlab kelishdi. Ko‘p o‘tmay zinada qadam tovushlari eshitildi. Shvetsiyalik eshikni ochib, to‘ppa-to‘g‘ri xonaning o‘rtasiga yurib kela boshladi. Hech kim unga e‘tibor qaratmadi.

– Taxminimcha, siz menga qarzimdan qanday qutulishim mumkinligini aytmoqchisiz, – dedi u Skalliga.

Qariya iloji boricha vazminlik bilan javob berishga harakat qildi:

– Sen mendan hech narsa qarzdor emassan.

– Yo‘q, qarzim bor, qanchaligini aytsangiz bo‘ldi, – dedi u qaysarlik bilan.

– Mendan hech qanaqa qarzing yo‘q, – dedi Skalli o‘sha alfozda.

– Menimcha, siz haqsiz, yana bir haqiqat shundan iboratki, siz mendan qarzdorsiz.

U Kovboyga taqlid qilib:

– O‘ldir uni, o‘ldir! – dedi. So‘ng telbalarcha kulib yubordi. Uning kulgisi sovuq jaranglardi. Ularning uchalasi gapirishni ham, gapirmaslikni ham bilmasdi.

Shvetsiyalik eshikni ochib, qor bo‘roniga yuz burarkan, o‘tirganlarga so‘nggi bor tikildi. U Jonnining zarbalaridan ancha tetiklashgandi.

Yuziga urilayotgan qor parchalari va shamoldan ajib bir rohat his etdi. U to pivoxonaga yetib kelguncha shaharcha ko‘chalarini rosa aylandi.

Shvetsiyalik eshikni ochib, ichkariga kirdi. Xonaning



oxirida to'rt kishi o'tirgandi. Shvetsiyalik sumkasini polga qo'yar ekan, barmenga jilmayib salom berdi.

– Iltimos, menga viski bering, – dedi u. Barmen uning oldiga bir shisha viski, stakan va muz olib kelib qo'ydi. Shvetsiyalik viskini o'zining ustidan quyib yubordi va qolganini oxirigacha sipqordi.

Barmen o'zini beparvo tutishga qanchalik harakat qilmasin, shvetsiyalikning yuzidagi qonga hayratlanib tikildi-da, „xayrsiz kecha“ dedi. Viskini ko'p ichib yuborgani uchun shvetsiyalikning ko'zlari ichiga tortib, qiynalib nafas ola boshladi.

– Boshqasidan ichishim kerakka o'xshaydi, – dedi shvetsiyalik ko'zlari suzilib. – Ichasizmi? – so'radi u barmendan.

– Yo'q, rahmat. Men ichmayman. Yuzingizga nima qildi? – qiziqdi u.

Shvetsiyalik darhol baland ovozda gapirishga tutindi:

– Mushtlashdim. Men Skallining mehmonxonasidag yigitni do'pposlab, tuproqqa qorib tashladim.

Bu gap stol atrofidagi to'rt kishining diqqatini tortdi.

– Menimcha, u bir haftaga bormaydi.

Ular yigitni uyigacha ko'tarib olib borishdi.

Ko'z ochib-yumguncha ular shvetsiyalikni o'rab olishdi.

– Ichasizmi? – so'radi Skalli.

– Yo'q, rahmat, – rad etdi ulardan biri.

Bu juda g'alati guruh edi. Ularning ikkitasi mahalliy tijoratchilardan, bittasi huquqshunos, bittasi esa qimorboz edi.

Bu guruhga yaxshilab nazar solgan odam aynan shu qimorbozgina o'yinga tortishini anglardi.

Qimorbozning biznesi qo'rquv va tavakkalchilikka asoslangan edi. U o'zining g'ayritabiiy mahoratini ko'rsatib, hammani o'ziga tortardi.

Bu odam nodon sayohatchilar-u, mo'1 hosil olgan fermerlarga osongina firib berar va ularning bor-budini shilib olardi.

Uning mo'jazgina hovlisi, pazanda xotini va bir-biridan shirin ikki farzandi bor edi.

Xullas, Fort Romperda hamma uni tanirdi. U boshqa har qanday ishdan ko'ra qarta o'yinini afzal ko'rardi.

U bugun kechasi har galgidek do'stlari bilan uchrashgandi.

Shvetsiyalik viski ichishda davom etar va barmenni ham o'zi bilan otamlashishga undardi.

– Kel, ich, icha qol, „yo'q“ dema endi, ozgina ich. Men bittasini boplab urdim, uni jangda yengdim. Janoblar, ichasizlarmi? – so'radi u.

– Jim, – dedi barmen barmog'ini labiga solib.

Stol atrofidagilar harchand qiziqishmasin, o'zlarini suhbat bilan ovoradek qilib ko'rsatishardi. Ulardan biri „Rahmat, ichmaymiz“ dedi shvetsiyalikka qarata.

Shu gapdan so'ng u o'rnidan turdi.

– Yaxshi, – baland ovozda dedi u, – birga ichish uchun o'zinga sherik topa olmayapman. Hozir ulardan birortasi men bilan ichishini xohlayman, hozir! Tushunyapsizmi?

U ikkala qo'li bilan stolga mushtladi.

Yillar bo'yi tajribalarda toblangan barmen sekin dedi:

– Men sizni tushundim.

– Tushungan bo'lsang, eshit unda. Anovi odamlarni ko'ryapsanmi? Ular men bilan ichishmoqchi, buni yodingda tut. Hozir ko'rasan.

– Bas qiling! – dedi barmen.

– Nega endi? – dedi shvetsiyalik va ular o'tirgan stol tomon yurdi. Borib, qimorbozning yelkasiga qo'lini qo'ydi.

– Men bilan birga ichishingizni xohlayman.

– Oshna, men seni tanimayman, – deya javob qildi u ortiga o‘girilib qaramasdan.

– Buning ahamiyati yo‘q. Kel, menga sherik bo‘l.

– Yo‘q, – dedi qimorboz, – yelkandan qo‘lingni ol-da, yo‘lingdan qolma.

U kichkina, past bo‘yli, ozg‘in odam edi. Uning bu ohangda gapirishi shvetsiyalikka yoqmasdi. Qolganlar jim o‘tirishardi.

– Nima, sen men bilan birga ichishni xohlamayapsanmi, ahmoq, pakana!

U shartta qimorbozning bo‘ynidan changalladi.

– Sen men bilan birga ichasan! Men seni majbur qilaman, – dedi shvetsiyalik va qimorboz o‘tirgan stulni surib yubordi.

Sarosimada qolgan barmen ular tomon yugurdi. „Ursur“ boshlanib ketdi. Dahshat! Ayni paytda qimorbozning qo‘lida yaltiragan katta pichoq shunchalar o‘tkir ediki, u odam tanasini osongina qoq ikkiga bo‘lib tashlay olardi. Shvetsiyalik kutilmaganda tanasiga sanchilgan sovuq qurol tig‘idan jon achchig‘ida qichqirib, yerga quladi.

Barmen, huquqshunos va savdogar og‘zini ochib, bir nuqtaga qarab qolgan shvetsiyalikning ochiq qolgan ko‘zlariga tikildilar.

– Genri, – dedi qimorboz barmenga, – sen politsiyani qayerdan topish mumkinligini aytasan.

Bir necha oydan so‘ng Kovboy pechda go‘sht pishirayotgandi. U Dakota chegaralari yaqinidagi bir parcha yerda chorvachilik bilan shug‘ullanardi.

Tashqarida ot tuyoqlarining ovozi eshitildi. Sharqlik qo‘lida xat va gazeta ko‘tarib kirib keldi.

– Shvetsiyalikni o‘ldirgan mahbus uch yil ozodlikdan mahrum etilibdi! – dedi u kira solib. – Mana, so‘ng-

gi yangilikni qara! Unchalik ko'p muddat berishmabdi. Shunday emasmi?

– Uch yil, – dedi Kovboy go'shtni tovaga solarkan. – Rost, uch – yil oz muddat.

– Fort Romperda uning xayrixohlari juda ko'p.

– Bordi-yu barmen yaxshi odam bo'lganida edi, – dedi Kovboy o'ylanib, – shvetsiyalikning boshiga shisha bilan bir urib, qotillikning oldini olgan bo'lardi.

Ha, har narsa bo'lishi mumkin edi. Kovboy tovadagi go'shtni olov ustida aylantirgancha o'z falsafasini davom ettirdi. Agar u Jonnini qalloblikda ayblamaganda edi, hozir tirik yurgan bo'larmidi. U juda ahmoq odam edi. Bunga hech bir shubham yo'q.

– Men qimorbozga achinaman, – dedi sharqlik o'ychan.

– Men ham u shvetsiyalikni o'ldirgani uchun qamoqxonada o'tirishi shart emasdi, deb o'ylayman.

– Hamma gap halollikdami? U Jonnini firibgarlikda aybladi. U kuchli tushkunlik holatida edi.

Bu gaplar Kovboyning g'ashiga tega boshladi.

– Shvetsiyalikning o'limida bizning ham aybimiz bor, – dedi sharqlik.

– Bizning qanaqa aybimiz bo'lishi mumkin? – taajjublandi Kovboy.

– Sen shvetsiyalikdan ham battar ahmoqsan. Bir haqiqatni aytib qo'yay, Jonni rostdan ham g'irromlik qildi. Kovboy indamadi.

– Axir o'yin shunchaki ko'ngilxushlik edi, xolos, – dedi u oxiri.

– Qanaqa ko'ngilxushlik? Men uning g'irrom o'ynaganini ko'rdim. Erkakning ishini qilmadim. Shvetsiyalikni yolg'iz qoldirdim. Sen-chi, sen bo'lsang o'sha yerda janjal bo'lishini juda xohlading. Qariya Skalli ham. Biz hammamiz gunohkormiz. Biz vaziyatni boshidan kuzatdik. Be-



chora qimorboz esa hammamizning gunohimiz uchun xun to'layapti. Shvetsiyalikning o'limida sen, men, Skalli, Jonni – hammamiz aybdormiz. O'z ahmoqligi va omadsizligi tufayli qimorboz hammasi uchun javob beryapti.

Kovboy xafa, ruhan siqilgan edi.

– Men aybdor emasman, – dedi u pichirlab. Sharqlik indamay chiqib ketdi.

---

## BOBIL VA DO'ST

Keksa Bobil qishloq chekkasida yashardi, uning iti bor edi. U dunyo kezib, nonini tergilab yedi, och qolmadi. Bobil hech qachon sevimli iti Do'stdan ayrilmadi. Bobil qishloq bo'ylab yuradi, derazalarni chertadi, Do'st esa uning yonida nasibasini kutganday dumini likillatib turardi. Odamlar Bobilga kuchugingni qo'y, Bobil, axir, o'zingning qorningni to'yg'izolmayapsan-ku... deyishsa, ulardan og'rinsa-da, bir so'z demasdi. Do'stni chaqirib, derazadan uzoqlashardi, bir burda nonni ham olmasdi.

Bobil tundfe'l edi, odamlar bilan kam gaplashardi.

Qish keldi, bo'ron jahl bilan esar, yerni supurar, katta-katta qor uyumlarini uchirib yuborardi.

Bobil qor uyumlari orasidan hassasini tirab, u hovlidan bu hovliga o'tar, Do'st esa uning yonida yugurardi. U Bobilning pinjiga kirib, yuziga mehr bilan qarab, aytmoqchi bo'lardi: Bizlar hech kimga kerak emasmiz, hech kim bizga issiq joy, non bermaydi, ikkimiz ham dunyoda yolg'izimiz. Bobil ham unga qarar, qarardi-yu, itining o'ylarini uqqanday sekin-sekin so'zlay boshlardi:

– Seni qara-yu, Do'st, men qariyani tashlab ketma.

Bobil iti bilan uychasiga yetib keldi, kulba eski va sovuq. U pechka orqasi, burchaklarni titkilab chiqdi – bir dona ham o'tin qolmabdi. Bobil Do'stga boqdi, it xo'jasi nima deyishini kutganday tik turdi. Bobil mehribonlik bilan dedi:

– Do'st, men seni chanaga bog'layman, o'rmonga bo-

ramiz, u yerdan shox-shabba, o'tinlar terib kelamiz, uyi-  
mizni isitamiz. Keyin issiqqina pechka ustida yotamiz.

U itini chanaga bog'lab, o'tinlar keltirdi, pechkaga o't  
yoqdi. Itini quchoqlab, silab-siypaladi, pechka ustida yo-  
tib, o'tgan umrini esladi. U Do'stga hayotini qayg'uli er-  
takday aytib berdi, tugatgach, o'kindi:

– Do'st, bir so'z demaysan, javob berolmaysan, tiling  
yo'q, ammo ko'zlaring kulrang, aqlli... bilaman, bilaman...  
sen barisini tushunasan...

Bo'ron bo'zlab charchadi, izg'irin ham pasaydi, tosh-  
day qattiq tomchilar jaranglab tusha boshladi.

Qor erimoqda. Bobil qish ketayotganini ko'rdi. Do'st-  
ga shivirladi:

– Ko'klamga yetib olsak bo'ldi, o'lmaymiz.

Quyoshning qizg'ish nurlari o'ynadi, qo'ng'iroq ir-  
moqlar chopqillab qolishdi. Bobil derazadan tashqariga  
tikildi – yer qorayibdi.

Daraxtlarda kurtaklar bo'rtdi, borliqni bahor bo'yi tut-  
di. Yillar esa Bobilni aldadi, loygarchilik qariyaning oyo-  
g'idan ushladi.

Uning oyoqlari chalkashib ketdi, yo'tal tutdi, belida  
sanchiq turdi, ko'z oldi qorong'ilashdi.

Qor eridi. Yer quridi. Deraza ortida butoqlar barg yoz-  
di. Faqat qariya uychasidan har zamonda bir chiqadi. U  
so'rida qimirlamay yotardi.

Bobil bor kuchini yig'ib, o'rmidan turdi, polga tushdi,  
yana yo'tali zo'raydi. Do'stga iztirob bilan so'z qotdi:

– Hali erta edi, Do'st. Biz buni avvaldan bilgandik.  
Mening vaqt-soatim yetganga o'xshaydi. Faqat o'lishni,  
seni tashlab ketishni istamayman.

U betob bo'lib qoldi, na turadi, na qimirlaydi. Do'st  
esa so'ridan nari ketmaydi; qariya yaqinlashib kelayotgan

ajal qadamlarini sezadi, sezadi-yu, itini quchoqlab oladi, zorillab yig'laydi:

– Men seni kimga tashlab ketaman, Do'st. Odamlar bizga begona. Sen bilan bir umr birga yashadik, o'lim esa bizni ayirmoqda. Alvido, Do'st, azizim, so'nggi damlarim kelayotganini ko'rib turibman, nafasim ko'ksimda qotib qoldi. Alvido!... Qabringa borib, eski do'stingni eslab tur!..

Bobil Do'stning bo'ynidan quchdi, yuragiga qattiq bosdi, titrab ketdi – yuragi chiqib ketdi.

U jon berdi. It xo'jasi o'lganini tushundi. Burchakdan burchakka bordi-keldi, uni sog'indi. Do'st qariyani hidlab-hidlab ko'rardi-da, zor-zor uvullardi.

Odamlar bir-biridan nega Bobil chiqmay qo'ydi, deb so'rashga tushdi. Birgalashib kelishdi, eshikni ochib ko'rishdi, ko'rishdi-yu, ortga tisarilishdi. Marhum so'rida yotar, uyni bo'g'iq, achchiq badbo'y is tutgan, so'rida o'tirgan iti kuyib, qorayib ketgan edi...

Odamlar o'likni ko'tarishdi, uni, xonani tozalashdi, yuvishdi, tobutga solishdi. It esa uning yonidan siljimasdi. Odamlar tobutni cherkovga olib ketishdi. Do'st ham u bilan yonma-yon ketardi. Uni cherkovga kiritishmadi, haydab solishdi. Do'st cherkovning atrofini chir aylanar, uvullar, alam va ochlikdan oyoqlari chalkashib, yiqilay-yiqilay derdi.

Marhumni qabristonga olib kelishdi. Go'r qazib, ko'mishdi. Bobil o'ldi, hech kim ko'zyosh to'kmadi.

Faqatgina Do'st qabr ustida hamon uvlar, qo'llari bilan qabrni kovlardi. Qarddon do'stining qabrini ochib, u bilan yonma-yon yotgisi kelardi. It qabrdan nari ketmadi, hech nima yemadi, do'stini sog'indi. Do'st qabrga tiki-lar, tikilardi-yu, yurakni ezguday iztirob bilan uvullardi.



U yana qabrni qazgisi kelar, ammo qo'llarini ko'tarolmasdi. Do'stning yuragi qisildi... Yelkasi bo'ylab titroq yoyildi, sekin boshini tushirdi, qaltiradi... va qabr ustida joni uzildi.

Qabr ustidagi gullar shunday sadoqatli, vafoli do'stlar, ajoyib do'stlikni go'zal ertakday qushlarga so'zlab berishdi. Qabrga kakku uchib keldi. Majnuntolga qo'ndi, o'tirdi-yu, qayg'uga botdi. Kakku qabr ustida hazin tovushda ku-kuladi...

---

## MUNDARIJA

Nashriyotdan .....	3
<b>Tornton Uaylder. Avliyo qirol Lyudovik ko'prigi.</b> <i>Mehri Bonu tarjimasi</i>	
Birinchi qism .....	5
Ikkinchi qism .....	11
Uchinchi qism .....	45
To'rtinchi qism .....	74
Beshinchi qism. ....	112
<b>O. Genri. Birja dallolining sevgisi.</b> <i>Saidjalol Saidmurodov tarjimasi</i> .....	127
<b>Stefan Jozef Kreyn. Ko'k rangli mehmonxona.</b> <i>Dildora Otaqulova tarjimasi</i> .....	132
<b>Sergey Yesenin. Bobil va do'st.</b> <i>OyguL Suyundiqova tarjimasi</i> .....	154

*Adabiy-badiiy nashr*

TORNTON UAYLDER

**AVLIYO QIROL LYUDOVIK  
KO'PRIGI**

*Qissa va hikoyalar*

„Ziyo nashr“ nashriyoti  
Toshkent – 2020

Tarjimonlar:  
**Mehri BONU va b.**

Muharrir	<i>Abdurahmon Jo'rayev</i>
Badiiy muharrir	<i>Nasiba Ergasheva</i>
Musahhih	<i>Gulandom Umarova</i>
Sahifalovchi	<i>Habibulloh Haydarov</i>

Nashriyot litsenziyasi AA № 0008, 27.03.2019  
22.05.2020 da bosishga ruxsat etildi. Qog'oz bichimi 84x108  $\frac{1}{32}$ .  
Ofset qog'ozi. „Times“ garniturasida ofset usulida bosildi.  
Shartli bosma tabog'i 8,4. Adadi 5000. Shartnoma № 117–20.  
Buyurtma raqami 444-20.

„Ziyo nashr“  
Mas'uliyati cheklangan jamiyat  
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 23-mavze, 42-uy.

«Credo Print» MChJ  
Kitob fabrikasida chop etildi  
Toshkent sh., Bog'ishamol k. 160.  
Tel.: 71 234-44-01/05  
[www.credoprint.uz](http://www.credoprint.uz)

TORNTON UAYLDER  
AVLIYO QIROL  
LYUDOVIK  
KO'PRIGI



ZIYO NASHR



[t.me/ziyonashr](https://t.me/ziyonashr)



[fb.com/ziyo.nashr](https://fb.com/ziyo.nashr)



[ziyonashr@mail.ru](mailto:ziyonashr@mail.ru)



ISBN 978-9943-6439-2-5



9 789943 643925